

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:

Xolmatov Shahriyor Zohidjon o‘g‘lining

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z URG‘USINING O‘ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**  
**(PECULIARITIES OF WORD STRESS IN ENGLISH AND UZBEK  
LANGUAGES)**

5A 120102 - lingvistika (ingliz tili)

Magistrlik  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiyasi

**Ilmiy rahbar: FarDU dotsenti. f.f.n. D.G‘aniyeva**

**Farg‘ona – 2017**



# **Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z urg‘usining o‘ziga xos xususiyatlari**

## **Mundarija**

Kirish..... 3

### **1-bob. So‘z urg‘usi va uning fonetik va fonologik jihatlari**

1.1.Ingliz va o‘zbek tillari so‘z urg‘usiga berilgan nazariy ta’rif va qarashlar.....9

1.2.Urg‘uning fonetik tabiatiga ko‘ra turlari.....16

### **2-bob. So‘z urg‘usining darajalari, uning pozitsion va funksional klassifikatsiyasi**

2.1. So‘z urg‘usining darajalari.....23

2.2. So‘z urg‘usining o‘rni, unga ta’sir qiluvchi omillar va aksentuatsion tendensiyalar.....35

2.3. So‘z urg‘usining vazifalari. So‘z urg‘usi stilistik vosita sifatida.....52

### **3-bob. So‘z urg‘usiga doir lingvovididaktik masalalar**

3.1. Ingliz tilini o‘rganuvchi o‘zbek talabalarida so‘z urg‘usi ko‘nikmalarini shakllantirishning afzalliklari.....62

3.2. Ingliz tili so‘z urg‘usini o‘qitishning samarali metodlari .....71

Xulosa .....77

Foydalanilgan adabiyotlar.....80

Ilova.....85

## Kirish

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbliги.** Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimiz xayotining har bir iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jabhalarida muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shu o‘rinda ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. Xususan, 1997-yil 27-avgustda tasdiqlangan „O‘zbekiston Respublikasi kadrlarlar tayyorlash milliy dasturi” va shu dastur asosida o‘tkazilgan ma’orif tizimidagi islohotlarning barchasi fikrimizning yaqqol dalilidir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov aytganlaridek “ Biz ta’lim-tarbiya sohasidagi keng ko‘lamli islohotlarimizni, albatta, oxiriga yetkazishimiz, bunday ta’lim dargohlarini nafaqat qurish, ta’mirlash va jihozlash, balki farzandlarimizni zamon talablari asosida kamol toptirish uchun eng yuksak malakali o‘qituvchi va domlalarni jalg etish, ularning bilim va tajribasini muntazam oshirib borishga eng muhim, ma’sulyatli vazifa deb qarashimiz zarur.”<sup>1</sup> Amalga oshiralayotgan va kelajakda bajarilishi rejalashtirilayotgan barcha islohotlar o‘sib kelayotgan yosh avlodning porloq kelajagi, ularning orzu—umidlarini ro‘yobga chiqarish masalasi asosida shakllantirildi.

Ayni davrda globallashuv axborot asrida yashar ekanmiz, har bir fuqaroning ayniqsa yoshlarning ilm-fanni chuqur o‘zlashtirib dunyodagi barcha fan yutuqlaridan boxabar bo‘lib borishini zamonamizning o‘zi taqozo etmoqda. “

---

<sup>1</sup>Ислом Каримов. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат килиш – энг олий саодатдир. —Т.: Ўзбекистон, 2015.—В. 244.

<sup>2</sup>Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008.—В. 44.

Chindan ham agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm va fan texnologiyalarni chuquro‘zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo‘lib yashaydigan bo‘lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o‘z xissamizni qo‘shmasak, zamon bilan hamqadam bo‘lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o‘rin egallashimiz qiyin bo‘ladi.”<sup>2</sup>

Yuqoridagi fikrlarni inkor etmagan holda 2017-yil 14 yanvarda o‘tkazilgan yig‘ilishda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’limga har doimdagidanda ko‘proqe’tibor qaratish haqida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar “Bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur.”<sup>2</sup> Keltirilgan fikrlarning amaliy isboti sifatida joriy yilning 17-fevral sanasida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo’llab quvvatlash, fan fidoiylarini har tomonlama rag‘batlantirish va ularga kerakli sharoitni yaratib berish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Demak, yurtimizda ilm-fan taraqqiyoti porloqdir. Shunga qaramay, oldimizga qo‘yilgan maqsadlar, ta’lim sohasida hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar hali talaygina.

Tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan kompyuter va integratsiyalashuv asrida har bir shaxsning chet tillarini bilishi hayotiy zaruriyatga aylandi. Buni inobatga olgan holda, xorijiy tillarni o‘qitish doirasida yurtimiz bo‘ylab keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi „Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 1875-sonli qarori ham fikrimizning

---

<sup>2</sup> Шавкат Мирзиёев. Танқидий Таҳлил, Қатъий Тартиб - Интизом Ва Шахсий Жавобгарлик – Ҳар Бир Раҳбар Фаолиятининг Кундалик Қоидаси Бўлиши керак. Т.: Ўзбекистон, 2017. –В. 45.

yaqqol dalilidir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini o‘qitish endilikda 1-sinfdan boshlab yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Ingliz tili ayni davrdagi xalqaro muloqot vositasi sifatida butun dunyoda yetakchi o‘rinni egallovchi til hisoblanadi. D. Kristalning ta’kidlashicha, hozir dunyoda 326 million ingliz tilidan ona tili sifatida foydalananayotgan so‘zlashuvchilar, 430 million bu tilni ikkinchi til sifatida qo‘llovchilar mavjud bo‘lib, ingliz tilini o‘rganuvchilarning aniq miqdori mavjud emas. Shunga qaramay Britaniya Kengashining xabar berishicha ularning soni bir milliardga yaqin. Shunday ekan, dunyo aholisining har to‘rttadan bittasi ingliz tilida o‘z darajasida muloqotga kirisha olish qobiliyatiga egadir.<sup>3</sup>

Xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishga katta e’tibor qaratilyotgan bugungi kunda o‘qituvchilar va til o‘rganuvchilar oldida fonetik va fonologik inferentiv xatoliklarni, ya’ni chet tilini o‘qitishdava o‘rganishda ona tilining talaffuzdagi ta’sirini bartaraf etish masalasi hamisha dolzarb bo‘lib qolmoqda.<sup>4</sup> Tillarda so‘zlarning fonetik qobig‘i markazi vazifasini bajaruvchi hodisa bu so‘z urg‘usi hisoblanadi. Barcha tillarda ham urg‘u normalari aynan bir xil xarakterga ega bo‘limgani sababli ularning alohida xususiyatlarini aniqlash muhimdir. Negaki, til o‘rganuvchilar mahalliy tilda mavjudurg‘u hodisasining o‘rganilyotgan til urg‘usi bilan o‘xhash va farqli tomonlarini bilishlari zarur. Ingliz va o‘zbek tillarining so‘z urg‘usi belgilarini alohida jihatlarini o‘rganish ehtiyoji mazkur tadqiqot mavzusining dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z urg‘usining o‘xhash va ajralib turuvchi belgilarini tavsiflashga yordam beradigan bir nechta morfema va leksemalar tanlab olingan.

---

<sup>3</sup>CRYSTAL D. English as a Global Language. —Cambridge:. Cambridge University Press, 2003. —B. 3.

<sup>4</sup>Mamajonova N. Fonetik inferentiv xatoliklar: sabablari va ularni bartaraf etish yo’llari // Til va adabiyot ta’limi. 2016. № 7. —B.44.

**Tadqiqot predmetini** ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z urg‘usini o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun qo‘llanilgan so‘zlar va qo‘shimchalarining alohida jihatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** So‘z urg‘usining ingliz va o‘zbek tillaridagi mazmun mohiyatini yoritish, urg‘uning har ikkala tilda tutgan o‘rni va vazifalarini tahlil qilish, shuningdek ingliz tili so‘z urg‘usi kompetensiyasini o‘zbek talabalarida shakllalantirishning ustivor tomonlarini aniqlash va so‘z urg‘usini o‘qitish bo‘yicha ba’zi metodik tavsiyalarni berish dissertatsiyani yozishda oldinga qo‘yilgan asosiy maqsad hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ushbu dissertatsiyada ko‘zda tutilgan asosiy maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishildi:

- so‘z urg‘usining fonetik va fonologik jihatlarini ingliz va o‘zbek tillari doirasida tahlil qilish, turli ta’riflar va tavsiflarni taqqoslash;
- so‘z urg‘usining fonetik tabiatini ko‘ra tasniflash va aniqlangan kategoriyalarning alohida xususiyatlari tahlil qilish;
- urg‘uda darajalanish jarayoniga aniqlik kiritish;
- ingliz va o‘zbek tillarida so‘z urg‘usining pozitsion xarakteristikasi bilan tanishish va unga ta‘sir o‘tkazuvchi faktorlarni yoritish;
- ingliz va o‘zbek tillarida so‘z urg‘usining funksional tasnifini o‘rganish;
- ingliz va o‘zbek tillarida so‘z urg‘usining stilistik vosita sifatida qo‘llanishini aniqlash va real misollar orqali isbotlash;
- ingliz tilini o‘rganuvchi o‘zbek talabalarida so‘z urg‘usi kompetensiyasini hosil qilishning foydali jihatlarini tahlil qilish;
- ingliz tili so‘z urg‘usini o‘qitishning samarali usullari yuzasidan tavsiyalar yaratish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- so‘z urg‘usining hosil bo‘lishida zarb, davomiylig, tovushning yuqori toni asosiy omillar ekanligi dalillangan;
- ingliz va o‘zbek tillarida so‘z urg‘usi o‘rniga ta‘sir qiluvchi olinma so‘zlar va qo‘shimchalar tavsiflangan;

- so‘z urg‘usining tildagi va til o’rganishdagi ahamiyati tasdiqlangan;
- ingliz tili so‘z urg‘usini o‘qitish bo‘yicha bir necha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;
- ingliz tilida mavjud so‘z urg‘usi aksentual qolipi o‘zbek tiliga ham tadbiq qilingan.
- o‘zbek talabalarida (Farg‘ona davlat universiteti talabalari) ingliz tili so‘z urg‘usini bilish darajasini aniqlash yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazilgan.

**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi.** So‘z urg‘usiga bo‘lgan qiziqish va samarali tadqiqotlar asosan XX asrning boshlariga borib taqaladi. Dastlab, 1920-yillarda o‘tkazilgan tajribalarda ingliz tili so‘z urg‘usining darajalariga aniqlik kiritila boshlandi.<sup>5</sup> Bundan tashqari, olib borilgan tadqiqotlarda so‘z urg‘usining so‘zdagi pozitsiyasi<sup>6</sup>, ahamiyati<sup>7</sup>, so‘zga bo‘lgan semantik ta’siri, so‘z urg‘usining stilistik xarakterining turli jihatlari o‘rganilgan.

Ingliz va rus tilshunoslari tomonidan so‘z urg‘usining fonetik va fonologik xususiyatlari, urg‘uning amaliy tasnifi yoritilgan tadqiqot ishlari bir qanchani tashkil etadi. Chunonchi, G.P. Torsuyev rus va ingliz tillarini qisman taqqoslashdan tashqari u ingliz tili so‘z urg‘usining fonetik tabiatini va aksentual qolipi masalalari bo‘yicha qilgan ishlari muhim ahamiyatga egadir.<sup>8</sup> A. Gimson, D.B. Fray, P.Rovch, Vrabel va boshqa bir qator olimlar esa so‘z urg‘usining o‘ziga xos xususiyatlari uni o‘rganish, tahlil va tasnif qilish muammolarining yechimlariga aniqlik kiritdilar.<sup>9</sup>

---

<sup>5</sup>Sweet H. A primer of phonetics. —Oxford.: 1929.

<sup>6</sup>Roach P. English phonetics and phonology. A practical course second edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 1991.

<sup>7</sup>Halle M, Keyser J. English stress. Its form, its Growth and its Role in Verse. —NewYork.: 1970.

<sup>8</sup> Торсунев Г. Вопросы акцентологии современного английского языка. —Москва.: 1960

<sup>9</sup> Gimson A. An introduction to the Pronunciation of English. —London.: 1962; Fry D. 1958. Language and speech Vol. 1: Experiments in the Perception of Stress; Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009

O‘zbek tilshunosligida ham urg‘u va uning ahamiyati, urg‘uning farqlash funksiyasi, uning stilistik vosita sifatida keng qo‘llanishini isbotlovchi qator tadqiqot ishlari olib borildi.<sup>10</sup>

Dastlabki, ingliz va o‘zbek tillari so‘z urg‘usi qiyoslanishi masalalariga bag‘ishlangan adabiyotA.Abduaazizov tomonidan yaratilgan manbalarda ko‘zga tashlanadi.<sup>11</sup>Bundan tashqari, so‘z urg‘usining umumiy va xususiy tavsifi tasnifi bo‘yicha „Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili“, „Tilshunoslikka kirish“ rukni ostidagi qo‘llanma va darsliklarda ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, S.Jalilov urg‘uni til fonetik-fonologik tizimining muhim supersegment birligi sifatida qo‘llash masalalarini,<sup>12</sup> Z.Xolmanova so‘z urg‘usiga ta’sir qiluvchi omillarni yoritib berilgan.<sup>13</sup> Ingliz va o‘zbek tillarining so‘z urg‘usi qiyoslanishi kurs ishi sifatida tahlil qilingan.

**Tadqiqotning metodologik asoslari.** O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning „ Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining joriy prezidenti SH.Mirziyoyevning „ Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqotda qo’llangan metodikaning umumiy tavsifi.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, eksperimental, modellashtirish, stilistik tahlil, morfemik tahlil, etimologik tahlil, orfoepik tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot materiallari tillarni qiyosiy aspektida fonetik-fonologik tahlil qilishda nazariy manba vazifasini o‘tashi mumkin.

---

<sup>10</sup> Махмудов А. Словесное ударение в узбекском языке. —Ташкент. 1960.

<sup>11</sup>AbduazizovA. Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.

<sup>12</sup>JalilovS. Hozirgio‘zbekabiytili (fonetikavafonologiya). —Nukus.: 2011

<sup>13</sup>XolmanovaZ. Tilshunoslikkakirish. —Toshkent.: 2007.

Dissertatsiyada keltirilgan tadqiqot natijalaridan stilistika, leksikologiya, fonetika va fonologiya fanlarini o‘qitishda , shuningdek, o‘zbek talabalariga ingliz tili so‘z urg‘usining alohida belgilarini o‘rgatishda foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat bo‘lib, ... sahifani tashkil etadi.

## **1-bob. So‘z urg‘usi va uning fonetik va fonologik jihatlari**

### **1.1.Ingliz va o‘zbek tillari so‘z urg‘usiga berilgan nazariy ta’rif va qarashlar.**

Bo‘g‘in va urg‘u birgalikda so‘zlarni tashkil etuvchi struktural tizim hisoblanadi. Urg‘u so‘zning fonetik qobig‘ini bir butun (kompleks holatda) ushlab turuvchi markaz, nutq oqimida esa so‘zni boshqa so‘zdan ajratib olishga yordam beruvchi vositadir. Yozma nutqdan farqli ravishda og‘zaki nutq oqimi o‘ziga xos bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat bo‘lib, bunday bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori deyiladi.<sup>14</sup> Lekin og‘zaki nutqimiz faqatgina segment birliklardan tashkil topmaydi. Bularidan tashqari ketma-ket joylashgan va bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori ustiga qo‘yilgan supersegment birliklarga ham ega bo‘ladi va bu birliklar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minlaydi. Supersegment birliklarga urg‘u, to‘xtam va boshqa nutqqa emotsional bo‘yog‘i (darak, so‘roq, buyruq, his-hayajon va boshqalar) kiradi.Keltirilgan birliklarning barchasi

---

<sup>14</sup> Sharipov O’, Yo’ldoshev I. Tilshunoslikasoslari. —Toshkent.: 2006. —B. 27.

birgalikda nutq ohangini tashkil etadi. Og'zaki nutq segment va supersegment birliklarning o'zaro munosabati orqali ifodalanadi. Ular orasida urg'u eng muhim ahamiyatga ega supersegment birlikdir. Nutq jarayonida urg'u olgan va olmagan bo'g'inlar almashinib nutq ritmini hosil qiladi.<sup>15</sup>

Nutq jarayonida to'g'ri hosil qilingan gaplar odatda bir necha o'rinda supersegment birliklarni to'g'ri qo'llashni taqozo etadi. So'z urg'usini ko'p bo'g'inli so'zning mavjud normalarga mos bo'lgan bo'g'inida qo'llash va gap urg'usidan xatosiz foydalanish tildagi nutqiy raxonlikni belgilab beradi.<sup>16</sup> So'zlarni urg'u va tovushning asosiy toni orqali ba'zi unli va undosh tovushlar nato'g'ri talaffuz qilinganda ham anglab olish mumkin. Ammo, aytilgan so'zda barcha unli va undosh tovushlar mos talaffuzga ega bo'lib, urg'uni qo'llashda xatoga yo'l qo'yilsa, nutqqa jiddiy putur yetadi.<sup>17</sup>

Urg'uning o'ziga xos xususiyatlari va uni amaliy tasniflash yuzasidan ingliz, rus va o'zbek fonotilshunosligida olimlar tomonidan asosan o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab bir qator nazariy va emperik ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ularda so'z urg'usi yoki aksentemaga olimlar tomonidan turli ta'riflar berildi. B. A. Bogoroditskiyning ta'rif berishicha, urg'u artikulyatsion va nafas olish bilan bog'li energiyaning ko'tarlish yoki pasayishi bilan harakterlanadi. D. Jovns fikricha, urg'uni kuchli zARB yordamida nafas chiqarilganda hosil bo'ladigan tovush balandligi bilan bog'liq zarbning darajasi sifatida ta'rif beradi. H. Svit ham urg'u aynan chiqarilayotgan nafas kuchi bilan bog'liq degan qarashga qo'shiladi.<sup>18</sup> Ingliz tilshunoslardan yana biri A. Gimsonning ta'kidlashicha, urg'u olgan bo'g'in aynan shu so'zdagi boshqa bir urg'u olmagan bo'g'indan yuqoriq nafas kuchi va muskullarning energiya sarf etishi bilan izohlanadi.<sup>19</sup> D. Kristal urg'uga fonetik tavsif berishicha, urg'u bog'inni hosil qilishdagi zarbning

<sup>15</sup>Jalilov S. Hozirgio'zbekabiytili (fonetikavafonologiya). —Nukus.: 2011. —B. 52.

<sup>16</sup>Anne C. ERRORS OF STRESS AND INTONATION. Laboratory of Experimental Psychology. University of Sussex. —Brighton, England. 1980. -B. 67.

<sup>17</sup>Sokolová H. THE PRONUNCIATION OF CZECH TEACHERS OF ENGLISH: ENGLISH WORD STRESS. Diploma thesis. CHARLES UNIVERSITY PRAGUE. 2009. —B. 6.

<sup>18</sup>Leontyeva S. A theoretical course of English phonetics. —Moscow.: 1980. VYSSAJA SKOLA, -B. 173.

<sup>19</sup>Gimson A. An introduction to the Pronunciation of English. —London.: 1962. —B. 128.

darajasini ifodalaydi.<sup>20</sup> Pouldaufning fikricha, so‘z urg‘usi so‘zdagi (leksik birlik, leksemadagi) zarb avji yoki avjlarining mavjud bo‘g‘inlarni inobatga olgan holda so‘zdagi boshqa bir zarb avji yoki avjlariga qarama-qarshi qo‘yishdir.<sup>21</sup>

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, urg‘u bo‘gindagi unliga bog‘liq hodisa bo‘lib, leksik urg‘u bo‘g‘indagi unliga tushadi. Urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni ajratishda unli tovush dominant xarakterga egadir.<sup>22</sup> Shunga qaramay, barcha olimlar ham bu fikrni to‘liq ma’qullagan emas. Ba’zi adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, urg‘u aynan bo‘g‘indagi unlini emas, balki butun bir bo‘g‘inni qolganlardan ajratib turishiga ko‘maklashadi.<sup>23</sup> Aynan shuning uchun ham urg‘u segment birlik sifatida qabul qilingan fonemadan ajralib turadi.

K.Kreidlerning ta’kidlashicha, unlilar tilda o‘z ahamiyatiga ega tovushlardir. Unlining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning urg‘u va tovushning asosiy tonini o‘zi bilan birga olib yurishidir, albatta, so‘z tarkibida, bo‘g‘inda.<sup>24</sup>

Yana bir ingliz tilshunosi Peter Rovch urg‘uli bo‘g‘inni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’riflash emas balki urg‘uli bo‘gin xususiyatlarini aniqlashga ikki yoqlama yondashish prinsipini taklif qildi<sup>25</sup>:

- 1) so‘zlovchining urg‘uli bo‘g‘inni hosil qilishda nima qilganini e’tiborga olish;
- 2) tovushning qanday xususiyatlari sababli bo‘g‘in tinglovchiga urg‘uli bo‘lib tuyulishini inobatga olish. Boshqacha qilib aytganda, urg‘uni hosil qilish va qabul qilish nuqtai nazaridan o‘rganishimiz mumkin; garchi har ikkala holat ham bir-biri bilan o‘zaro bo‘g‘liq bo‘lsa-da ularni aynan bitta narsa deb bo‘lmaydi. Urg‘uning hosil bo‘lishi asosan so‘zlovchining urg‘u olgan bo‘g‘inni urg‘usiz bo‘g‘inga nisbatan ko‘proq mushaklar kuchi bilan aytishiga bog‘liqdir. Odatda biz urg‘uli

<sup>20</sup>Crystal D. A dictionary of linguistics and phonetics. Sixth edition. –Oxford.:Blackwell publishing, 2008. –B. 454.

<sup>21</sup>Sokolová H. THE PRONUNCIATION OF CZECH TEACHERS OF ENGLISH: ENGLISH WORD STRESS.

Diploma thesis. CHARLES UNIVERSITY PRAGUE. 2009. –B. 6.

<sup>22</sup>Turniyozov N, Rahimov A. O’zbek tili. (I qism) –Samarqand.: 2006. –B. 24.

<sup>23</sup>Claire-A. Forel & Genoveva P, Updated by Cornelia H and Carmen S. PHONETICS AND PHONOLOGY University of Oldenburg.:2005. –B. 43.

<sup>24</sup>Kreidler C. Pronunciation of English. A course book. Second edition. –Oxford.: Blackwell publishing, 2004. –B. 48.

<sup>25</sup>Roach P. English phonetics and phonology.A practical course second edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 1991. –B. 85.

bo‘g‘inni hosil qilganimizda biz o‘pkadan chiqayotgan havoni yuqori bosim bilan chiqaramiz. Bunday faollik deyarli barcha nutq a’zolarida kuzatiladi.

Leksik urg‘uni qanday hosil bo‘lishini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan qator tajribalar shuni ko‘rsatdiki, urg‘uli bo‘g‘inni anglash uchun tovushning asosan unli tovushning turli xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Sababi bo‘g‘inlarning xosil bo‘lishi unli tovushlar bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘z urg‘usi bu so‘zdagi ma’lum bir unlining (yoki bo‘g‘inning) cho‘ziqroq, ajratib ta’kidlab aytilishidir. Payqab olish nuqtai nazaridan barcha urg‘uli bo‘g‘inlarning umumiyligi bu qolgan urg‘usiz bo‘g‘inlardan yaqqol ajralib turishidir. Mana shu yaqqollik uchun esa kamida to‘rtta omil muhimdir.

1) Ko‘pgina odamlar urg‘uni qolgan bo‘g‘inlarga nisbatan balandroq aytilgan bo‘g‘inda his etadilar. Lekin faqatgina bo‘g‘inni balandroq aytish bilan uning yaqqolligini muayyan belgilab bo’lmaydi.

2) Bo‘g‘inlar uzunligi ham ajralib turish uchun ahamiyatlidir. Masalan, ma’nosiz so‘zning tarkibidagi 1 bo‘g‘in urg‘uli bo‘lsa, u qolganlariga qaraganda uzunroq

/ta:ta:ta:ta:/ talaffuz qilinadi.

3) Har bir bo‘g‘in past yoki yuqori ohang darajasiga egadir; nutqda tovushning toni un paychalarining titrashi bilan bog‘liq bo‘lib, musiqa tili bilan aytganda yuqori va quyi notalar demakdir. Demak yuqori tonga ega bo‘lgan bo‘g‘inlar urg‘uli, qolgan quyi tondagi bo‘g‘inlar esa urg‘usiz sifatida qabul qilinadi.

4) Bo‘g‘inning urg‘u olishiga ta’sir ko‘rsatuvchi keyingi omil bu uning tarkibidagi qo‘shni bo‘g‘inlardagi unlilardan farqliroq unliga bog‘liqdir. Agar biz o‘sha ma’nosiz so‘zdagi 1ta unlini o‘zgartirsak /ta:ti:ta:ta:/ aynan o‘sha bo‘g‘in urg‘u olgandek eshitiladi. Bunday ta’sir yuqoridagilarga nisbatan kuchli yoki muhim bo’lmasada unlilarning kuchli yoki kuchsiz ekaniga aniqlik kiritishda foydalidir.

Yaqqollik, demak, to‘rt muhim omil tovushning balandligi, uzunligi, tovushning yuqori toni va xususiyatlari (tipik ottenkasi) doirasida vujudga keladi.

Umuman olganda har to'rttala omil ham bir paytda amalga oshsada ba'zan ulardan faqat bir yoki ikkitasi faol bo'lishi ham mumkin.<sup>26</sup>

Professor Abduazizov urg'uning fonetik komponentlarini quyidagicha tasniflaydi:<sup>27</sup>

- a) Nutq organlarining harakatiga ko'ra. Ya'ni urg'u bo'g'iz faoliyati va nafas olish sezilarli darajada kuchaytirilishi va un psychalari titrashining yuqori chastotali artikulyatsiyasi davomiyligi bilan xarakterlanadi.
- b) Akustika nuqtai nazaridan urg'u olgan bo'g'in boshqa urg'u olmagan bo'g'irlarga qaraganda yuqoriroq intensivlikka va yuqori tovush toni, davomiylikka ega bo'ladi.
- c) Anglash doirasida esa urg'u olgan bo'g'in urg'ulantirilmagan bo'g'irlarga qaraganda balandligi davomiyligi va tovushning yuqori toni bilan belgilanadi.

So'z urg'usidan foydalanish bu faqatgina tovushning davomiyligi va tonning yuqori yoki quyi darjasini orqali ularni bo'g'irlarga ajratish uchun emas, fonetika nuqtai nazaridan til sturkturasida prosodik bog'liqlik asosida so'zni shakllantirish demakdir.<sup>28</sup>

Ta'kidlab o'tilganidek, urg'u so'zning hosil qiluvchi xususiyatlaridan biridir. Har qanday so'z bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli yoki ko'p bo'g'inli bo'lishidan qat'iy nazar u albatta o'zining urg'usiga ega bo'ladi.<sup>29</sup> Urg'uning hosil qilish funksiyasi so'zlarni fonetik jihatdan shakllantiradi, ya'ni hajm, zarb va tovushning asosiy toni yordamida urg'uli va urg'usiz bo'g'irlarni artikulyatsion vositalar yordamida tovush ketma ketligida birlashtiradi. So'zning aksentual-ritmik strukturasi bo'g'in strukturasi, fonemelarning bog'lanishi asosida hosil bo'ladigan so'zning fonemik strukturasi va fonetik strukturasining tarkibiy elementi hisoblanadi. So'z fonetik strukturasining bu uch komponenti aksentual ritmik struktura doirasida birlashadi,

<sup>26</sup>Roach P. English phonetics and phonology.A practical course fourth edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 2009. —B. 74 .

<sup>27</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.—B. 124.

<sup>28</sup>Содиков А., Абдуазизов А., Ирикгулов М. Тилшуносликка кириш. —Т.: “Ўқитувчи”, 1981. —б. 45

<sup>29</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.. —B. 136.

natijada semantik va lingvistik birlik sifatida qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘z hosil bo‘ladi.

D.B.Frayning ta’kidlashicha, urg‘uning farqlari tinglovchi tomonidan murakkab to‘rtta o‘zaro bog‘langan fiziologik o‘lchovlar bilan idrok etiladi; cho‘ziqlik, balandlik, ingichka-yug‘onlik va yuqori tonda ekanligi.<sup>30</sup> Jismoniy va aqliy omillar o‘zaro bog‘liqdir: davomiylilik, zarb, asosiy chastota va va nutq tovush to‘lqinlarining shakllantiruvchi strukturasi. Ingliz urg‘usini idrok etishdan kelib chiqsak, bir necha omillar bunga ta’sir ko‘rsatadi: 1) bo‘g‘inning cho‘ziqligi, 2) bo‘g‘inlarning balandligi 3) bo‘g‘inlardagi unlida mavjud zarb 4) bo‘g‘inlarda asosiy tovush tonining mavjudligi 5) kinasetik xotiralar o‘zi yaratayotgan bo‘g‘inni qabul qilish bilan bog‘liqdir. Turli asboblar orqali o‘tkazilgan tekshiruvlar shuni isbotladiki, urg‘u olgan bo‘g‘indagi unli yuqori chastotaga, zarbga, yug‘onlikka va urg‘usiz so‘zlardagi unliga qaraganda ko‘proq davomiylikkha ega bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni farqlashda uchta xususiyat muhim ahamiyatga egadir.<sup>31</sup> Birinchidan urg‘uli bo‘g‘in qolgan bo‘g‘inlarga qaraganda cho‘ziq o‘qiladi, ikkinchidan urg‘uli bo‘g‘in urg‘usiz bo‘g‘indan ko‘ra aniqroq talaffuz qilinadi, uchinchidan urg‘uli bo‘g‘in boshqa bir urg‘usiz bo‘g‘indan ko‘ra balanroq ovozda aytildi. Masalan *dala*, *paxta*, *ona* so‘zlarining oxirgi ikkinchi bo‘g‘inlari birinchi bo‘g‘inga qaraganda cho‘ziq, aniq va baland ovozda aytildi.

Fonetik va fonologik tabiatiga ko‘ra ingliz tili urg‘usi o‘zbek tili so‘z urg‘usiga qaraganda murakkab jarayon hisoblanadi va o‘z o‘rnida tildagi ahamiyati ham yuqoriroq darajaga egadir. D.Kristal va Gimson ham bu fikrga qo‘shilgan holda ingliz tili so‘z urg‘usi amalga oshirilishi mushkul bo‘lgan jarayon deb ta’rif bergenlar.<sup>32</sup> Sababi mavjud ilmiy tadqiqotlarda urg‘uga ta’riflar va yondashuvlar o‘rtasida o‘xshashliklar bo‘lsada, ba’zan qarama-

<sup>30</sup>Fry D. 1958. Language and speech Vol. 1: Experiments in the Perception of Stress. –B. 126-128

<sup>31</sup>Muhammadov E. So‘z urg‘usi // Imtihon. 2016. № 6. —B.4.

<sup>32</sup>Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009. –B. 69.

qarshi fikrlarga ham duch kelamiz. Masalan, Vrabelning fikricha ingliz tilida faqat ma'noli(mustaqlil so'zlar) so'zlargina so'z urg'usi olishi mumkin va aksincha artikllar urg'u olmaydi. Ba'zi adabiyotlarda taklif qilinishicha artikllar ham, predloglar ham qaysidir ma'noda potensial (ehtimoliy) urg'uga egadir.<sup>33</sup> Shuning uchun ingliz tili urg'usi haqidagi barcha manbalarda birnechta istisnolar ko'zga tashlanadi.O'zbek tili so'z urg'usi esa ingliz tili so'z urg'usidan farqli ravishda umumiy normalar bilan xarakterlanadi. Balki shuning uchun o'zbek tili fonologiyasiga va fonetikasiga doir manbalarda so'z urg'usi va uning alohida xususiyatlari haqida mualliflar o'ta qisqa ma'lumotlarni keltiradilar.

So'z urg'usi gap urg'usi bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Negaki, so'z urg'usi va gap urg'usining chegaralash vazifasi doirasida har ikkovi ham nazariy va amaliy nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Gap urg'usi odatda so'zdagi eng kerakli bo'g'inga so'z urg'usi belgilagan bo'g'inga tushadi. Shuning uchun ot, aniqlashtiruvchi so'zlarning aksentual strukturasi so'z birikmasidagi urg'uning tartibidir. Bir vaqtning o'zida so'z birikmasining urg'u qolipi semantik va sintaktik omillar orqali shakllantiriladi. So'z birikmasi tarkibidagi doim urg'uli bo'ladigan so'zlar atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlardir. Ular so'z birikmasidagi asosiy tushunchani ifodalaydi, shunday ekan, gapdagi muayyan semantik ahamiyatga ega har qanday so'z gap urg'usini olishi mumkin.<sup>34</sup>

Shuni inobatga olish lozimki, so'z urg'usi va gap urg'usini aynan bir xil jarayon deb tasvirlab ham bo'lmaydi. So'z urg'usi so'zdagi bir yoki undan ortiq bo'g'inlarni ajratib ko'rsatsa, gap urg'usi gapdagi bir yoki undan ortiq

---

<sup>33</sup> Claire-A. Forel & Genoveva P, Updated by Cornelia H and Carmen S. PHONETICS AND PHONOLOGY University of Oldenburg.:2005. –B. 45-47.

<sup>34</sup>Abduazizov A. Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.—B. 126.

so‘zlar yoki iborani ta’kidlab keladi. Shuning uchun ham gap urg‘usi intonatsiyaning muhim komponenti hisoblanadi. Urg‘uning bu ikki turi turli darajadagi tadqiqotlarda ularning omillari, vazifalari va komponentlari turlicha bo‘lganligi sababli ba’zan aralash holda qo‘llaniladi. Masalan: *canso*‘zi ko‘pincha urg‘u olmaydi, ammo mana bu kabi ba’zi holatlarda urg‘u olishi ham mumkin; *Now you can see it. Can you see it? I can.* Ingliz tili so‘z urg‘usi ba’zan jumla yoki gap ichida ham o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qoladi va gap ohangining yuqori yoki quyi darajaga ega bo‘lishiga ta’sir qiladi. Balki shu sababli ham ba’zi tilshunoslar so‘z urg‘usi va gap urg‘usini bir-biridan ajratmagan holda o‘rganishadi.

Fonologik aspektida leksik urg‘u (shu o‘rinda urg‘u farqlovchi urg‘u deb ham nomlangan) ma’no farqlash xususiyatiga egadir.<sup>35</sup> Bunday holat ko‘p tillarda, xususan, ingliz va o‘zbek tillarida ham mavjuddir: 1)*There has been a significant increase in the number young people who smoke.* 2)*The population may increase by 15 percent.* Keltirilgan gaplardagi *increase* so‘zi dastlab ot ['inkri:s], keyingi gapda esa fe’l [in'kri:s] vazifasini bajaryapti. O‘zbek tilida *olma* (meva), *olma* (fe’lning bo‘lishsiz shakli). Bir xil tovush ketma-ketligiga ega bo‘lgan so‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlar so‘zlarni ajratib olish uchun leksik urg‘udan foydalananamiz: ‘*black ‘bird* (qora qush, har qanday qora qush(so‘z birikmasi)), ‘*black-bird* (asosan Yevropa va Shimoliy Amerikada uchraydigan qush turi (qo‘shma so‘z)). Kontekstdan tashqarida bunday so‘zlarni faqatgina urg‘u yordamida farqlashimiz mumkin.

Qisqacha qilib aytganda, so‘z urg‘usi so‘z bo‘g‘inlardan biriga tushib uning ma’no va talaffuzini belgilab beradi. So‘z urg‘usi leksik urg‘u, lug‘aviy urg‘u deb ham yuritiladi.

---

<sup>35</sup>Crystal D. A dictionary of linguistics and phonetics. Sixth edition. –Oxford.:Blackwell publishing, 2008. –B. 455.

## **1.2.Urg‘uning fonetik tabiatiga ko‘ra turlari**

So‘z urg‘usinining asosiy tasnifi uning fonetik tabiatiga ko‘ra amalga oshiriladi. Tovushlarning (asosan unli tovushlarning) davomiyligi, ohangning yuqori yoki quyi darajada ekanligi, prosodik xususiyatlarining o‘ziga xos belgilariga ko‘ra tillar quyidagi uch turga (ba’zi manbalarda to‘rt turga) bo‘linadi:<sup>36</sup>

1) Urg‘uli bo‘g‘inni aniqlashda zarbning boshqa omillar davomiylik yoki tonga nisbatan muhim ahamiyat kasb etgan tillar bo‘lib, ular dinamik urg‘uga ega bo‘lgan tillardir. Masalan: ingliz, o‘zbek va rus tillari dinamik so‘z urg‘usiga egadir. Urg‘uning bu turi so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining, ayniqsa, undagi unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. Kuchli zarb va baland ovoz dinamik urg‘uning akustik belgisi bo‘lsa, shu ovozni yuzaga keltiruvchi nutq a`zolari muskullarining kuchlanishi (tortilishi, taranglashishi) bunday urg‘uning fiziologik belgisi sanaladi. Dinamik urg‘uli bo‘g‘inda kuchli zARBning bo‘lishi uning shu so‘z tarkibidagi boshqa bo‘g‘inlardan ajralib turishini ta’minlaydi.

2) Asosan urg‘uli bo‘g‘in undagi tovush toni bilan xarakterlanadigan tillar tonik yoki musiqali urg‘uga ega bo‘lgan tillardir. Masalan: xitoy, yapon, serb tillari tonik tillardir. Urg‘uning bu turini olgan bo‘g‘in ovoz tonining o‘zgarishi bilan urg‘usiz bo‘g‘inlardan farq qiladi. Demak, tonik urg‘uda un paychalari chastotasi tezlashadi, ovoz toni esa balandlashadi.

---

<sup>36</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English .—Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986. —B. 124.

3) Ba'zi tillarda urg‘uli bo‘g‘inning davomiyligi boshqa faktorlardan ortiq ahamiyat kasb etadi. Bu tipdagi tillar kvantitativ urg‘uga egadir. Masalan: chex va grek tillari. Urg‘uning bu turi urg‘uli bo‘g‘indagi unli tovushning cho‘ziq (davomli) talaffuz etilishi bilan xarakterlanadi.

Ba'zi manbalarda yuqoridagi qayd etilgan turlarga qo‘sishimcha sifatida tipik ottenkali urg‘u (sifat urg‘usi) ham keltiriladi.<sup>37</sup> Urg‘uning bu turi bo‘g‘indagi unlining o‘ziga xos tipik ottenkasi (sifat belgisi) bo‘lishi bilan xarakterlanadi va shu belgisiga ko‘ra u urg‘usiz bo‘g‘indan farqlanadi.

Ko‘pchilik tillarning so‘z urg‘usida yuqoridagi fonetik (fizik-akustik) belgilardan bir nechasi birga ishtirok etadi, ammo ulardan bittasi, ba`zan, ikkitasi shu til uchun yetakchi belgi hisoblanadi.

Masalan S Jalilov bunday holatni rus tili va o‘zbek tillari doirasida qiyoslaydi.<sup>38</sup> Rus tilidagi so‘z urg‘usida tonik (musiqiy) urg‘u belgisi yo‘q, qolgan belgilarning barchasi bor, cho‘ziqlik mavjud, bo‘g‘indagi unlining asosiy sifat (akustik) belgilari saqlangan, zarb ham ishtirok etadi. quyidagi misollarning qiyosida buni yaqqol anglab olish mumkin, a) *oltin* (o‘zb.) va *karatin* (rus.), *ovsin* (o‘zb.) va *apel’sin* (rus.) so‘zlarining barchasida oxirgi bo‘g‘in urg‘ulidir, barcha urg‘uli bo‘g‘inlarda **i** unlisi qatnashgan, ammo ruscha *karantin*, *apel’sin* so‘zlaridagi **i** unlisi o‘zbekcha oltin, ovsin so‘zlaridagi **i** dan cho‘ziqroq talaffuz etilmoqda. Bunday tafovutni *mavzu* (o‘zb.) va *meduza* (rus.), *mangu* (o‘zb.) va *mangusta* (rus.) so‘zlarining urg‘uli bo‘g‘inlaridagi **u** unlisi qiyosida ham ko‘ramiz. Rus tili fonetistlarining ta‘kidlashicha, ruscha unli fonemalarning urg‘uli bo‘g‘indagi cho‘ziqlik darajasi urg‘usiz bo‘g‘indan bir yarim barobar ortiqdir.b) *gorod* (im.padej,ed.chislo)-  
*goroda* (im.padej,mn.chislo), *voda* (im.padej,ed. chislo)-  
*vodO’* (im.padej,mn.chislo)-  
*vodO’* (rod. padej, ed.chislo). Keltirilgan so‘zlarining

<sup>37</sup> Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009. –B. 69.Jalilov S. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). —Nukus.: 2011. —B. 52.

<sup>38</sup>Jalilov S. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). —Nukus.: 2011. —B. 52-53.

barcha grammatik shakllarda lab-lab, o‘rta keng **o** unlisi qatnashgan, ammo u o‘zining ana shu sifat belgilarini (lab-lab, o‘rta keng **o** uchun tipik ottenkalarni) faqat urg‘uli bo‘g‘inda saqlagan, urg‘usiz bo‘g‘inlarda esa bu belgilar o‘zgarib, **o** unlisi qisqa **a** (lablanmagan, quyi keng unli) tarzida talaffuz qilinmoqda, garada, vada, vadO‘ kabi. Unli fonemaning asosiy (tipik) ottenkasi namoyon bo‘lishi uchun so‘z urg‘usining qanday ahamiyati borligini shu misollar tahlilidan anglab olish mumkin. Shuning uchun ham so‘z urg‘usining fonetik tabiatini baholashda rus tilshunoslari birinchi o‘ringa sifat belgilarini (unli fonemadagi asosiy ottenkalarning saqlanish darajasini), ikkinchi o‘ringa cho‘ziqlik belgisini va, nihoyat, uchinchi o‘ringa zarb belgisini qo‘yadilar.

O‘zbek tilida ham musiqiy urg‘u yo‘q, ammo unda cho‘ziqlik belgisi va zarb bor. Bu belgilar urg‘uli bo‘g‘inni shu so‘zdagi urg‘usiz bo‘g‘inlardan ajratish imkonini beradi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, so‘z urg‘usining cho‘ziqlik darajasi rus va o‘zbek tillarida bir xil emas, rus tilidagi so‘z urg‘usining cho‘ziqlik belgisi o‘zbek tilidagidan ko‘proq darajada seziladi. Buni yuqorida oltin va karantin, ovsin va apel’sin so‘zlar qiyosida ham ko‘rib o‘tdik. Demak, o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usida zarb birinchi o‘rinda turadi, shunga ko‘ra uni dinamik urg‘u deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Tillarning boshqa tillardan so‘z olib, olinma so‘zlar hisobiga ham boyib borishini nazarda tutsak, dinamik urg‘u deyarli barcha tillar uchun xosdir.<sup>39</sup> “Dinamika” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “kuch” demakdir. Tilshunoslikda so‘z tarkibidagi urg‘u qabul qilgan unli tovushning bir qadar kuchli va cho‘ziq talaffuz etilishi **dinamik urg‘u** hisoblanadi. Ayrim tillarda dinamik urg‘uning ta‘siri natijasida so‘z tarkibidagi urg‘usiz unli tovushlar pozitsion o‘zgarishlarga uchraydi. Ya’ni urg‘u qabul qilgan unli tovush baland ovoz bilan, shiddat bilan aytilganda, urg‘usiz unlilar talaffuzida noaniqlik, qisqalik, bilinar-bilinmaslik yuzaga keladi. Bu holatni slavyan tillarida, chunonchi, rus tilidagi ayrim so‘zlar talaffuzida kuzatish mumkin.

<sup>39</sup> Abulazova M, Yo’ldosheva D. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent.: Universitet, 2005. –B. 49.

O‘zbek tilida so‘z urg‘usi aksariyat holatlarda urg‘uli bo‘g‘inning chastotasi va undagi zARB vositasida urg‘u olmagan bo‘g‘inlardan ajralib turadi. Tadqiqotlarga qaraganda, o‘zbek tili so‘z urg‘usida tovushning yuqori chastealigi yoki davomiyligi emas, aynan undagi zARB muhim ahamiyatga ega.<sup>40</sup> Akustika doirasida dinamik urg‘u hech qachon zARB va cho‘ziqlilikni bir paytda qabul qilmaydi. Shunga qaramay ba’zi istisno holatlar ham mavjud bo‘lib, skandinaviya tillarida tonik va dinamik urg‘u bir xil darajaga egadir. O‘zbek tilida so‘z urg‘usiga berilgan ta’rif idrokiy o‘lchovga tayangan bo‘lib u maxsus asboblar tekshiruvi bilan isbotlangan. Shunga qaramay, ingliz va o‘zbek tillari urg‘usiga dinamik urg‘u deb ta’rif berilsada, jismoniy komponentlarning ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda boshlang‘ich, o‘rta va yakuniy bo‘g‘inlardagi harakati bilan farqlanadi. So‘z urg‘usining komponentlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi uchun urg‘u tushgan bo‘g‘inni doim baland, cho‘ziq va yuqori tonli bo‘lishini kutish to‘gri emas. Ba’zi manbalarda aytishicha, o‘zbek tilidagi urg‘uning xosil bo‘lishida zarbdan tashqari cho‘ziqlilikning o‘z o‘rni mavjuddir.<sup>41</sup> Ya’ni unlining miqdoriy xususiyati ham leksik urg‘uning yuzaga kelishida ahamiyatlidir. Misol uchun *sa:ap-sariq* yoki *ma:azza* so‘zlarida zARBga qaraganda cho‘ziqlilik ustunlik qiladi. Agar bu fikrni ham inobatga oladigan bo‘lsak o‘zbek tili nafaqat dinamik urg‘uli tillar, balki kvantitativ urg‘uli tillar oilasiga ham qo‘sishimizga to‘g‘ri keladi.

Vrabelning qayd etishicha, ingliz tili ham boshqa bir qator tillar – nemis, fransuz, ukrain tillari singari fonetik tabiatiga ko‘ra dinamik so‘z urg‘usiga egadir.<sup>42</sup> Shubhasiz tovushning tipik ottenkasi, davomiyligi ham urg‘uga ta’sir ko‘rsatsada, ingliz tilida so‘z urg‘usining dinamik va tonik xususiyatlari qolganlariga qaraganda ustun hisoblanadi. Shuni inobatga olish lozimki, so‘z urg‘usining tonik elementi bo‘g‘inning yuqori ohang darajasiga ko‘tarilishi, bu orqali bo‘g‘inning qolgan bo‘g‘inlardan ajralib turishini ta’minlydi. Urg‘uning miqdor va sifat belgisining ham o‘z o‘rni bor. Muayyan holatlarda unlining

<sup>40</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986. —B. 124.

<sup>41</sup>Фозиева М. Ўзбек тилида ургу// Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. —Farg’ona. 2017. —B. 262.

<sup>42</sup>Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009. —B. 69.

cho‘ziqligi va ohangdorligi urg‘usiz bo‘g‘inlarda pasayadi. Urg‘u olgan bo‘g‘indagi unli esa urg‘usiz bo‘g‘indagi unlidan, albatte, cho‘ziqroq bo‘ladi. Shunday ekan, leksik urg‘uning unli tovushning miqdor va sifat belgilari orqali xarakterlanishi mumkinligiga tayangan holda kvantitativ(miqdor), hamda tipik ottenkali urg‘uni nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Dinamik urg‘uli tillarga ta’rif berishda N.S. Trubetskoy so‘z urg‘usining kulminativ vazifasifasiga ko‘proq e’tiborini qaratdi. Uning fikricha tonik tillardatovushning yuqori ohangda bo‘lishi so‘zning birdan ortiq bo‘g‘inlarida sodir bo‘lsa, dinamik urg‘uli tillarda har bir so‘zda bir bo‘g‘in bosh urg‘uga ega bo‘ladi.<sup>43</sup> Bu fikr qaysidir ma’noda mujmaldek, sababi ikkitadan bosh urg‘uga ega bo‘lgan so‘zlar ham mavjuddir. So‘z urg‘usi tabiatiga ko‘ra kulminativ bo‘lsada, ammo uning soni va darajasi bo‘g‘ini sanaladigan tillardagi so‘z strukturasiga bog‘liqdir. Masalan kind-`hearted, `penmanship, `brightness va hokazo.<sup>44</sup>

Qiyosiy jihatdan zarb urg‘uli tillarda bo‘g‘inning yaqqolligi kulminativ bo‘lsa, tonik tillarda unday emas. Tonikurg‘uli tillarda asosiy ohang paradigmaticdir. Bunday tillarda ohangning o‘rni beqiyos bo‘lib, ohang so‘zlarni ma’no jihatdan farqlash yoki yangi bir so‘zni hosil qilishdagi vosita hisoblanadi. Masalan, xitoy tilidagi ushbu so‘zlarni olaylik:

- **dāo**-pichoq (turg‘un ohang), **dǎo**-yiqilmoq (pasayib ko‘tariluvchi ohang), **dào**-yetmoq, erishmoq (pasayuvchi ohang)<sup>45</sup>
- **mā**-ona (turg‘un ohang), **mǎ**-ot (pasayib ko‘tariluvchi ohang)
- **mèn**-tashvishlangan, stress holatida (pasayuvchi ton), **mén**-eshik (ko‘tariluvchi ton)
- **liū**-sirg‘anmoq(turg‘un ton), **liú**-anor(ko‘tariluvchi ton), **liù**-olti raqami(pasayuvchi ton), **liǔ**-tol (pasayib ko‘tariluvchi ton)<sup>46</sup>

Ayni paytda dunyoning hamma tillarida ham so‘z urg‘usi mayjud emas. Yirik fonotilshunoslardan biri bo‘lmish professor L.R. Zinderning aytishicha,

<sup>43</sup> Трубецкой Н. Основы фонологии. –Москва. 1960. –Б. 230-233.

<sup>44</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.—B. 125.

<sup>45</sup> Abby Lingvo x5. 2011. E-version//Chinese-English// **dāo// dǎo// dào**.

<sup>46</sup>Jerry S. New Practical Chinese Reader. Second edition. –Beijing.: Beijing Language And Culture University Press, 2013 –B. 7-20

Shimoliy, Shimoli-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika tillarining ko‘pchiligi so‘z urg‘usiga ega emas.<sup>47</sup> Demak, urg‘u til tarixiga aloqador lisoniy voqeа sifatida shakllangan va ma’lum tillargagina xos bo‘lgan hodisadir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, so‘z urg‘usi til tarixi bilan chambarchas bog‘liq jarayondir. Agar ingliz tili so‘z urg‘usi klassik qoidalariga Anglo-saksonlar davriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, urg‘uning murakkablik darajasi zamonaviy ingliz tli urg‘u normalaridan tubdan farq qiladi. Bu haqda Robert Stokvel va Donka Minkovaning aytishicha, so‘z urg‘usidan foydalanish normalari anglo-saksonlar zamonasida jiddiy muammo emas edi va deyarli alohida qoidalarga ham zaruriyat tug‘ilmagan. Odatda birinchi bo‘g‘in urg‘uga(bosh urg‘uga) ega bo‘lgan: *'blossom,'body, 'holy*. O‘sha davrda mavjud so‘zlarning aksariyatini bir va ikki bo‘g‘inli so‘zlar tashkil etardi. Shunga qaramay, ingliz tiliga lotin, grek va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar va qo‘srimchalar hisobiga ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar hosil bo‘ldi. Bu holat esa so‘z urg‘usi qo‘llashdagi chigalliliklarga sabab bo‘ldi.<sup>48</sup>

So‘z urg‘usi muammolarini o‘rganish o‘tgan asrdan beri umumiyligi va qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Leksik urg‘uga nisbatan yondashuvlar, berilgan ta’riflar turlicha bo‘lsada ular urg‘u hodisasini yanada chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan.

Demak, tillarda so‘z urg‘usining hosil bo‘lishida to‘rtta muhim faktor mavjuddir:

- tovushning asosiy toni;
- zarb(talaffuz kuchi yoki intensivlik);
- davomiylik (cho‘ziqlilik);
- tovushning yuqori chastotasi;

Albatta, keltirilgan omillarning hammasi urg‘uli tillarning barchasida bir paytda sodir bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, urg‘uni fonetik tabiatiga ko‘ra tasniflash muayyan tildagi leksik urg‘u hosil qilishdagi dominant omilni aniqlash orqali belgilanadi. Ingliz va o‘zbek tillari so‘z urg‘usi uchun zarb muhim

<sup>47</sup>Зиндер Л.Р. Общая фонетика. –Изд. ЛГУ. 1979.

<sup>48</sup>Robert S, Minkova D. English Words. History and Structure. –Cambridge.: Cambridge University Press, 2001. – B. 167-168

ahamiyatga egadir. Shuning uchun ular dinamik urg‘uli til turkumiga mansub tillar hisoblanadi.

Shunday qilib, so‘z urg‘usi doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tillar o‘rtasida bir necha o‘xhash va farqli jihatlar aniqlandi, so‘z urg‘usi yordamida dunyodagi tillar turli tiplarga ajratildi. Ingliz va o‘zbek tillarini so‘z urg‘usi doirasida qiyoslash ham bizga har ikkala tildagi fonetik va fonologik o‘ziga xosliklar va o‘xhash jihatlarni yoritishga ko‘maklashadi.

## **2-bob. So‘z urg‘usining darajalari, uning pozitsion va funksional klassifikatsiyasi**

### **2.1. So‘z urg‘usining darajalari**

Leksik urg‘u bir necha omillar ta’sirida vujudga keluvchi murakkab jarayon bo‘lib, unda bir nechta darajalar mavjuddir. Bunday turlicha urg‘u darajalari tovush asosiy tonining roli, ritmik yaqqollik, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning xususiyatlari, ularning reduksiyaga uchrashi natijasida vujudga keladi. Muayyan tillardagi leksik urg‘u darajalanish xususiyatiga egadir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi urg‘u ham bundan mustasno emas. Ingliz tili so‘z urg‘usini darajalarga ajratish tilshunos olimlar o‘rtasida turli bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Ko‘pgina mualliflar ingliz tilida so‘z urg‘usining uchtadan beshtagacha darajasini farqlaydilar. Rus fonetistlari va britaniyalik tilshunoslar asosiy (‘), ikkinchi darajali(, ) va kuchsiz (urg‘u olmagan) urg‘u darajalarini farqlagan.<sup>49</sup> Amerikalik tilshunoslar fikricha esa bunday darajalar to‘rtta : asosiy (‘), ikkinchi darajali(,), uchinchi darajali (‘) va kuchsiz (,).

Urg‘uning darajalarini belgilovchi terminlar va belgililar ham bir-biridan farq qiladi. Masalan amerikalik tilshunoslar asosiy(main), pasaygan asosiy (lowered main), o‘rta (medium), va kuchsiz va hatto to‘liq<sup>50</sup>, yarim, kuchsiz urg‘u kabi

<sup>49</sup>Ladefog p. A course in phonetics. Harcourt Brace Jovanovich. Inc, 1975. –B. 101. ГлисонГ. Введение в дескриптивную лингвистику. –Москва. 1959. –Б. 79-80.

<sup>50</sup>SouthworthF, DaswaniCh. Foundation of linguistics. —New York.; 1974. –B. 67.

atamalarni qo‘llaganlar<sup>51</sup>. Tilshunos H Svit ingliz tilidagi leksik urg‘u darajalarini quyidagicha belgilaydi: kuchsiz /~/, o‘rta yoki yarim kuchli /:/, kuchli /•/ va o‘ta kuchli yoki emfatik urg‘u /;/.<sup>52</sup> Guvohi bo‘lganimizdek, olimlar leksik urg‘u darajalarini turli belgilar orqali ifodalaganlar. Fonologiyada uchta urg‘uni belgilash taomili mavjuddir: sonlardan foydalanish, pastdan yoki yuqoridan maxsus belgilar qo‘yish, Xalqaro Fonetika Alifbosi (XFA) urg‘u belgilaridan foydalanish. Odatda tilshunoslар quyidagi jadvalda keltirilgan belgilardan keng foydalanadilar.

<b>Urg‘u kategoriyalari</b>	<b>Asosiy</b>		<b>Kichik(ahamiyatsiz)</b>	<b>Urg‘u olmagan</b>
<b>Urg‘u darajalari</b>	<b>Bosh</b>	<b>Ikkinci darajali</b>	<b>Uchinchi darajali</b>	<b>Urg‘usiz</b>
<b>Sonlar</b>	1	2	3	0
<b>Alohida urg‘u belgilari</b>	Kuchli /~/	Kuchsiz /~/	-	-
<b>XFA urg‘u belgilari</b>	Ustki belgi / /	Ostki belgi / /	-	-

XFA ga ko‘ra birinchi darajali urg‘u uchun // ustki belgi, ikkinchi darajali urg‘u uchun // quyi vertikal chiziqcha qo‘llaniladi. Ba’zida urg‘uli bo‘g‘indagi unli ustidan alohida belgilar qo‘yiladi (ó). So‘ngisi urg‘u urg‘u darajalarini sonlar orqali ifodalash mumkin: bosh urg‘u uchun 1, ikkinchi darajali urg‘u uchun 2, uchinchi darajali urg‘u uchun 3 va urg‘usiz bo‘g‘in uchun 0 soni qo‘llaniladi. Yuqoridagilarga binoan, *suprasegmental* so‘zining urg‘u qolipi quyidagicha belgilanishi mumkin: sonlar vositasida 20310, sùprasegmental yoki XFA transkriptiyasiga ko‘ra [su:p̚rəseg'm̚ntl] tarzida ifodalanadi.

Ehtimol ingliz tilidagi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda uchdan ortiq urg‘u darajalarini aniqlash mumkindir. Lekin urg‘uning quyi darajalar asosan maxsus tajribada qo‘llaniladigan asboblar yordamida aniqlanadi. Shuning uchun ham, tinglovchi besh yoki undan ortiq so‘z urg‘usi darajalarini ajrata olmaydi ( D.Jones

<sup>51</sup> Kurath H. A phonology and prosody of modern English. Ann Arbor, 1964. –B. 141.

<sup>52</sup> Sweet H. A Primer of Phonetics. —Oxford.: 1929. —B. 49

va A.C.Gimson buni tasdiqlagan). Agar biz ushbu fikrga asoslanadigan bo‘lsak ingliz tilidagi besh yoki undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarda beshtadan daraja mavjuddir. Masalan, *examination* so‘zida *e<sup>3</sup>xa<sup>2</sup>mi<sup>4</sup>na<sup>1</sup>tion<sup>5</sup>* shaklida urg‘u darajalari belgilangan<sup>53</sup>. Nazariy jihatdan, bunday urg‘u darajalari faqatgina ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar uchun muhim bo‘lishi mumkin xolos. Amaliy jihatdan esa insonning qulog‘i urg‘uning uchta darajasini ajrata olishi mumkin<sup>54</sup>.

Chomski va Halle ingliz tilida beshta so‘z urg‘usi darajasini ko‘rsatadilar va ta’kidlashlaricha „ asosiy urg‘uning sirtqi qismi o‘zgarish sikli amaliyoti orqali aniqlanadi”<sup>55</sup>. Oxirgi sikl so‘zi orqali ular bosh urg‘u va urg‘uning sirtqi qismi(ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, kuchsiz kabi) so‘zning boshlang‘ich va oxirgi qismida joylashuvi va unlining tushirib qoldirilishini nazarda tutganlar. O‘zgaruvchan-generativ fonologiya urg‘uning eng kamida to‘rt yoki beshta urg‘u darajasini ko‘rsatib bir necha urg‘uning joylashuviga doir taxminiy qoidalarini taklif qildi. Ularda keltirilgan ta’riflar ham keskin farq qiladi, masalan, D.Jonesning tahliliga ko‘ra, umumlashtirib aytganda, ingliz tilidagi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning urg‘uli bo‘g‘in yoki bo‘g‘inlarini aniqlash normalari mavjud emas<sup>56</sup>. Ya’ni urg‘uning o‘rni aniqlash avtomatik tarzda sodir bo‘ladi, masalan, so‘zdagi bosh urg‘uning o‘rni cho‘ziq unli va diftonglar bilan o‘zaro aloqadordir. Urg‘uning qolgan darajalari esa qisqa unlilarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ingliz tili murakkab urg‘u tizimiga egadir. Ingliz tili so‘z urg‘usini ta’riflash uchun esa demak urg‘uning uchta darajasi (bosh, ikkinchi darajali, kuchsiz) ham nazariy, ham amaliy jihatdan yetarlidir<sup>57</sup>.

Ingliz tilidaginofunksional so‘zlarning barchasi kamida bitta ritmik zarbli bo‘g‘inga(asosiy urg‘uga) egadir. Yordamchi so‘zlar esa odatda urg‘usizdir. Asosiy urg‘uning ritmik yaqqolligini tasdiqlovchi dastlabki manbai bu tovushning yuqori chastotasi, ammo ovoz tonining turli darajalari asosiy urg‘uda ikki tipdag‘i

<sup>53</sup> Соколова М, Гитовт К, Тихонова И, Тихонова Р. EnglishPhonetics. ATheoreticalCourse. —Москва.: Высшаяшкола, 1991. —Б. 104.

<sup>54</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.—B. 128

<sup>55</sup> Chomsky N, Halle M. The Sound Patterns of English. —New York.; 1968. —B. 74. .

<sup>56</sup> Halle M, Keyser S. English Stress. Its Form, its Growth, and its Role in Verse. New York.; 1970. —B. 3.

<sup>57</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986. —B. 128

asosiy urg‘uning farqlanishiga sabab bo‘ldi. Masalan, *suprasegmental* yoki *syllabification* so‘zlari ikkitadan ritmik zarbga ega, ammo ulardan bittasi ikkinchisi o‘zining yuqori toni tufayli birinchisiga qaraganda ancha yaqqolroqdir. Qo‘s Shimcha qilib aytganda, faqatgina shu bo‘g‘in aytilgan so‘zdagi asosiy urg‘uni olib yurish xususiyatiga ega. *Are these features suprasegmental? This is the correct syllabification.*

Asosiy urg‘u ikkiga bo‘linadi: bosh va ikkinchi darajali. Ikkinci darajali urg‘u bosh urg‘uga nisbatan nomajburiy bo‘lib asosan ingliz tilidagi uzun so‘zlarda alohida vaziyatlarda ko‘zga tashlanadi. Masalan *suprasegmental* so‘zining birinchi bo‘g‘ini, *syllabification* so‘zining ikkinchi bo‘g‘inida ikkinchi darajali urg‘uga duch kelamiz. Bosh va ikkinchi darajali urg‘u o‘rtasidagi asosiy farq birinchi darajali urg‘u deyarli barcha so‘zlarda faqatgina bitta bo‘g‘inda mavjud bo‘ladi, biroq ikkinchi darajali urg‘u so‘zlearning uzunligiga bog‘liq ravishda bir nechta bo‘lishi ham mumkin: *contamination* so‘zida bitta ikkinchi darajali urg‘u bo‘lsa, *decontamination* so‘zida ularning soni ikkita. Kuzatuvlarga ko‘ra, ikkinchi darajali urg‘uning birinchisi ikkinchisiga qaraganda biroz kuchliroq bo‘lgani uchun ba’zi mualliflar uchinchi darajali urg‘u atamasini qo‘llaydilar.

Ritmik yaqqollikka ega bo‘lmagan bo‘g‘inlar ikki guruhga bo‘linadi. Ko‘p holatlarda bog‘in kuchsiz bo‘ladi yoki reduksiyaga uchraydi. Boshqa tomondan qaraganda, kuchsiz bo‘g‘indagi undoshlar asosan bo‘g‘indagi dastlabki undosh noturg‘unlashadi<sup>58</sup>. Masalan /h/ tovushi tizimli ravishda g‘oyib bo‘ladi (*vehicle* ['vi:ik(ə)l], *shepherd* ['ʃepəd], *vehement* ['vi:imənt], *Buddha* ['bʊdə], *Birmingham* ['bɜ:mɪŋθəm] va hokazo) yoki undosh talaffuz qilingan taqdirda ham bo‘g‘inlilik mavqeい(darajasi) noaniqligicha qolib ketadi. Bunday bo‘g‘inlar urg‘ulantirilmagan yoki to‘liq urg‘u olmagan deb ataladi. Shunga qaramay ba’zi kuchsiz bo‘g‘inlar reduksiyaga uchramagan unlini ham o‘z ichiga olishini inobatga olsak, muayyan hollarda kutilgan unli reduksiyaga uchramasligi ham mumkin: *activity* [æk'tiviti] so‘zidagi birinchi bo‘g‘in kabi. Bunday ritmik va tonik jihatdan yaqqol bo‘lmagan urg‘u uchinchi darajali urg‘u deb ataladi. Bosh urg‘uga qarama-qarshi ravishda

<sup>58</sup> Balogné B. K., Slizárd S. The pronunciation of English. Korbai Hajnaltól. 2006. –B. 110.

kichik (ahamiyatsiz) urg‘u atamasi qo‘llaniladi. Shunga qaramay bunday bo‘g‘inlar supersegment xususiyatiga ega emas, biroq to‘liq urg‘u olmagan bo‘g‘indan kuchliroq bo‘lib, unda unlining reduksiyaga uchrashi ham, undoshning kuchsizlanishi ham uchramaydi. Masalan *Abraham* ['eibrəhæm]<sup>59</sup> so‘zining oxirgi bo‘g‘inida unli va /h/ to‘liq talaffuz qilinadi, aynan shu holat uchinchi darajali urg‘u deb ataladi. *Graham* ['greɪəm]<sup>60</sup> so‘zida esa /h/ tushib qoladi va shu bo‘g‘in urg‘usiz deb ataladi. Urg‘uning to‘rt darajasi quyidagi jadvalda izohlanadi:

<b>Urg‘u kategoriyalari</b>	<b>Asosiy</b>		<b>Kichik(ahamiyatsiz)</b>	<b>Urg‘u olmagan</b>
<b>Urg‘u darajalari</b>	<b>Bosh</b>	<b>Ikkinci darajali</b>	<b>Uchinchi darajali</b>	<b>Urgusiz</b>
<b>Yaqqollik</b>	<b>To‘liq unli Yuqori chastota Tovushning asosiy toni</b>	<b>To‘liq unli Yuqori chastota</b>	<b>To‘liq unli</b>	--
<b>Misollar</b>	<i>suprasegmental syllabification annihilate hesitate Japan</i>	<i>Suprasegmental syllabification hesitation grammaticality Japanese</i>	<i>suprasegmental syllabify annihilate hesitate activity</i>	<i>suprasegmental syllabification annihilate grammaticality Japan</i>

Unga ko‘ra urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inning asosiy farqi urg‘u reduksiyasining mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog‘liq, Mos ravishda bosh va kuchsiz urg‘u bosh va kuchsiz urg‘u o‘rtasidagi farq tovushning yuqori chastotasi (ritmik yaqqollik) bilan bog‘liqdir.

Doktor Solijonovning fikricha o‘zbek tilida so‘z urg‘usining to‘rtta darajasi mavjud: bosh(‘), ikkinchi darajali(„), uchinchi darajali (‘) va kuchsiz („). O‘tkazilgan tekshiruvlar va bu fikrning to‘grilagini isbotladi<sup>61</sup>. O‘zbek tilida so‘z

<sup>59</sup> Abby Lingvo x5. 2011. E-version//English-English//Abraham//

<sup>60</sup> Abby Lingvo x5. 2011. E-version//English-English//Graham//

<sup>61</sup> Салиджанов С. Силлабическая и акцентная структуры слова и их соотношение в разно системных языках. (Сопоставительно-типологическое и экспериментально-фонетическое исследование на материале английского и узбекского языков.) Авторефератканд. Диссертации. Москва.: 1982.

urg‘usining o‘rni va darajalari so‘zning bo‘g‘in strukturasiga bog‘liqdir. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning istalgan bo‘g‘ini turli darajadagi so‘z urg‘usini olishi mumkin. Ma’lumki, o‘zbek tilida afiks yuklamalar urg‘u qabul qilmaydi. Ammo bu ularga urg‘u butunlay tushmaydi degani emas. – mi, - chi, - ku, - da, - oq (-yoq), - a(- ya), - gina (- kina, - qina) kabi affiks yuklamalar ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shilganda, urg‘uning bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan ikkinchi darajali urg‘u shu yuklamalarga ham tushishi mumkin. Chunonchi, *yuraversang* – *chi, nordonroq-ku* kabi.

Xuddi shunday [-miz], [- siz] tuslovchi qo‘shimchalarga ham ikkinchi darajali urg‘uning tushish tushmasligi shu affikslar qo‘shilgan so‘zning aytilish ohangiga bog‘liq. Shuni ham ta’kidlash lozimki, turli sheva vakillarining nutqdagi urg‘uning qaysi bo‘g‘inga tushishi har xil ko‘rinishda bo‘ladi. Toshkent, Farg‘ona sheva vakillari nutqda *boramiz*, *kelamiz* kabi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘ini kuchsiz talaffuz etiladi va so‘z oxiridagi **z** undoshi jarangsizlashib s tarzida eshitiladi. Aynan shu so‘zlar Buxoro, Samarqand shevalarida boshqacharoq talaffuz etiladi, ya’ni oxirgi [- miz] qo‘shimchasiga yordamchi urg‘u tushiriladi, natijada so‘z oxiridagi **z** undoshining aniq talaffuz saqlaniladi.<sup>62</sup>

Ba’zi tilshunoslar so‘z urg‘usini gap urg‘usidan ajratmaydilar, natijada ton bilan o‘zaro bog‘liq holda urg‘uning to‘rt va undan ortiq turlarini taklif qiladilar. Chunonchi, R.Kingdon urg‘uning quyidagi to‘rt darajasini taklif qildi: 1) to‘liq (harakatlanuvchan)urg‘u, 2) to‘liq o‘zgarmas yuqori darajadagi urg‘u, 3) qisman o‘zgarmas (quyi darajadagi) urg‘u va 4) urg‘usiz<sup>63</sup>. Abduazizovning fikricha muallif ingliz tilida ko‘p bo‘g‘inlarda uchrashi mumkin bo‘lgan urg‘uning to‘rt darajasini keltirsada, Kingdon urg‘u va tovushning asosiy toni o‘rtasidagi aloqani tushuntirib o‘tmagan<sup>64</sup>.

O‘tgan asrdagi qarashlardan farqli ravishda, asosan ingliz tili lug‘aviy urg‘usining darajalari va ularning hosil bo‘lish sabablari, darajalarning amaliy va

<sup>62</sup>AbulazovaM, Yo’ldoshevaD. Tilshunoslikkakirish. –Toshkent.: Universitet, 2005. –B. 49.

<sup>63</sup> Kingdon R.The Groundwork of English Stress. London.: 1958. –B. 8.

<sup>64</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . –Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.–B. 129

nazariy jihatdan tahliliga yanada aniqlik kiritildi. Vengryalik B.K Balogné, S Slizárd ana shunday tilshunoslardan bo‘lib aynan ular tomonidan urg‘udagi darajalanish hodisasi mukammalroq tasvirlangan ya’ni so‘z urg‘usining ikkinchi va uchinchi darajasi o‘rtasidagi farq, uchinchi darajali va to‘liq urg‘u olmagan bo‘g‘inlar va ularning manbai turli tasniflar asosida yoritilgan. Ularning fikricha, so‘z urg‘usi ingliz tilidagi leksik urg‘u darajalanishidamuhim va umumiy xususiyatlar mavjuddir. „Birinchidan, ikkinchi darajali urg‘u aksariyat holatlarda bosh urg‘u oldidan keladi. Ya‘ni bosh urg‘u eng kuchli bo‘lgan ohirgi ritmik zarbda namoyon bo‘ladi. So‘zdagi yaqqollikning avji bosh urg‘uning o‘rni bilan izohlanadi. Ikkinchidan ingliz tili urg‘usiz yoki uchinchi darajali urg‘uga ega bo‘lgan bo‘g‘in bilan boshlanuvchi so‘zlar deyarli mavjud emas”<sup>65</sup>. Boshqa so‘z bilan aytganda, dastlabki ikki bo‘g‘indan bittasi asosiy urg‘uga ega bo‘lishi lozim. Bunday qarash qadimgi urg‘u normalaridan kelib chiqqan.

Bosh urg‘uning o‘ng yoki chap tomonda joylashuvi uzun so‘zlarda ehtimoliy qarama-qarshilikka sabab bo‘ldi. Masalan besh bo‘g‘inli so‘zlarda bosh urg‘u oxiridan ikkinchi bo‘g‘inda bo‘lsa, qolgan uch va undan ortiq chap tomondagi bo‘g‘inlarning barchasi urg‘usiz bo‘lavermaydi. Natijada birinchi (*suprasegmental [su:presəg'məntl]*) yoki ikkinchi (*contamination [kən.tæmɪ'neɪʃən]*) bo‘g‘in ikkinchi darajali urg‘u olishi zarurdir. Faktlarga qaraganda, ikkinchi darajali urg‘uning yaratilish sababi doimiy o‘zgarishdagi urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni hosil qilishdir: *suprasegmental-20310, contamination-02010*. Bu tendensiya ingliz tilidagi urg‘usiz bo‘g‘indan keyin urg‘uli bo‘g‘in kelishi bilan xosil qilinadigan ritmni xosil qildi. Dastlabki urg‘u talablariga binoan, agar bosh urg‘u uchinchi yoki undan keyingi bo‘g‘inlarga tushsa, so‘zning birinchi yoki ikkinchi bo‘g‘ini ikkinchi darajali urg‘uni olishi shart. Agar bosh urg‘udan oldin uchdan ortiq bo‘g‘in bo‘lsa, qo‘srimcha ikkinchi darajali urg‘u hosil qilinadi: *Àpalàchicóla*.

Urg‘udagi mavjud darajalanish xossasi bog‘inlar soni va ularning tarkibiy qismlari bilan bog‘liq. Masalan fe’lli birikmalarda leksik ma’noga ega bo‘lgan

---

<sup>65</sup>Balogné B. K., Slizárd S. The pronunciation of English. Korbai Hajnaltól. 2006. –B. 113.

so‘zlar bosh urg‘u oladi, predloglar esa ikkinchi darajali urg‘u oladi: *show-off* /'ʃəʊ̯.ɒf/, *take-off* /'teɪk.ɒf/. Grammatik ma’no ifodalaydigan so‘zlar yordamida hosil qilingan so‘zlarda faqatgina atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zning o‘zidagina bosh urg‘u mavjud, grammatick so‘zlarda esa hech qanday urg‘u darajasi kuzatilmaydi: *withstand* [wið'stænd], *withdraw* [wið'dra: ]. Ammo grammatick so‘zlar yordamida hosil qilingan fe’llarda ikkinchi darajali urg‘u grammatick so‘zga tushadi: *outrun* [,aut'rʌn], *outfit* ['aut,fit]<sup>66</sup>. Demak, bosh va ikkinchi darajali urg‘uning qo‘llanishi so‘zning ma’noli va garammatik ma’no ifodalovchi qismlari bilan ham o‘zaro bog‘li bo‘lib, atash ma’nosiga ega bo‘lgan qism aksariyat hollarda bosh urg‘uni olmaydi.

Muammoli vaziyatlar asosan yasama so‘zlarda yuzaga keladi. Odatda suffiksatsiya jarayonida so‘zlar uzayib boradi va bosh urg‘u o‘ng tomondagi bo‘g‘inlarga siljib boradi. Dastlabki bosh urg‘u endi ikkinchi darajali urg‘uga aylanadi. Bu urg‘u ko‘pincha yasama ikkinchi darajali urg‘u deb ataladi. *Fiction* so‘zida, masalan, bosh urg‘u birinchi bo‘g‘inda, *fictioneerso‘zida* birinchi bo‘g‘indagi urg‘u ikkinchi darjali urg‘uga aylandi. Quyidagi misollar aynan shu tipdag'i so‘zlarga oiddir: *adáptable – adàptability*, *éducate – èducátion*, *impréssion – imprèssionístic*, *irrégular – irrègulárity*, *jústify – jùstificátion*, *órchid – òrchidáceous*, *peripheral – peripherality*. Bu yerda bosh urg‘udan oldingi bo‘g‘inlar soni muhim ahamiyatga ega emas. Agar allaqachon ikkinchi darajali urg‘uga ega bo‘lgan uzun so‘zga suffiks qo‘shilsa, ikkinchi darajali urg‘uga ega bo‘g‘inlar soni ko‘payadi: *individuálity*, *còmprehénsible* va *còmprehènsibility*.

Yasama ikkinchi darajali urg‘u cheklangan holat ham mavjuddir. Asosiy urg‘ularning ketma-ket joylashuvidan qochish va urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar yonma-yon kelishidan hosil bo‘ladigan ritmga erishish maqsadi ikkita yechimga olib boradi: dastlabki bosh bo‘g‘in uchinchi darajali urg‘uga aylanishi kerak yoki urg‘usizga, yoki ikkinchi darajali chap tomonga siljishi lozim, so‘ngisi hech

---

<sup>66</sup> Argenis A. Stress and Rhythm. Universidad de Los Andes. 2009. –B. 5.

qanday ikkinchi darajali urg‘udan foydalanilmay sobiq bosh urg‘u butunlay olib tashlanadi. Demak, har ikkala strategiyaning maqsadi urg‘uli bo‘g‘inlarni to‘g‘ri taqsimlashdir. Quyida bir necha dastlab bosh urg‘uga ega bo‘g‘inli so‘zlar va ularning unlilari XFA belgilari asosida belgilangan.

Urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar yonma-yon joylashtirish	Bosh urg‘uni olib tashlash
<i>adápt – adaptátion /æ/</i>	<i>áctive – actívity / æ/</i>
<i>doméstic – dòmesticity /e/</i>	<i>ànthropología – ànthropológical /ə/</i>
<i>enigma – ènigmátic /i/</i>	<i>átom – atómic /ə/</i>
<i>fragmément (verb) – fràgmentátion /ə /</i>	<i>clímate – climátic /ai/</i>
<i>horízon – hòrizóntal /I/</i>	<i>Gérman – Germánic /ɜ:/</i>
<i>Japán – Jàpanése /ə/</i>	<i>frágile – fragílty /ə/</i>
<i>refórm – rèformátion /ə/</i>	<i>víctory – victórious /ɪ/</i>
<i>transpórt – trànsportátion /ɔ:/</i>	<i>vírgin – Virgínia / ə/</i>

Ikkinci darajali urg‘u tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, muayyan suffikslar so‘zga qo‘shilgandan keyin bosh urg‘u o‘rnini o‘zgartiradi: átom – *atomic* kabi. Bundan tashqari suffiksatsiya ikkinchi darajali urg‘u xosil qilishning asosiy manbaidir: *décorate* – *dècorátion* kabi. Shubhasiz ingliz tili urg‘u tizimida morfologiya muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, morfologik amaliyotning ikki turini farqlash lozim. Quyidagi so‘zlarga e’tibor bering:

*éducate – éducatiing – èducátion*

*adápt – adápted – adaptátion*

*diagnose – diagnoses – diagnostíc*

*jóurnal – jóurnalist – jòurnalése*

Guvohi bo‘lganimizdek, yangi so‘z asosdan tashqarida hosil qilinganda bosh urg‘u o‘zgarishi ham saqlanishi ham mumkin. Masalan *éducate* so‘zining birinchi bo‘g‘ini bosh urg‘uga ega, unga –ing qo‘shimchasi qo‘shilganda ham bosh urg‘u o‘z o‘mini o‘zgartirmaydi, lekin –ion qo‘shimchasini qo‘llaganimizda bosh urg‘u ikkinchi darajali urg‘uga aylanadi va boshqa bir bo‘g‘in bosh urg‘uga egalik qiladi. Shuning uchun ham biz suffikslarni biz urg‘uga ta’sir qiluvchi yoki urg‘uga nisbatan neytral kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Yuqorida ingliz tilidagi ikkinchi darajali urg‘uning hosil qiluvchi holatlar o‘zbek tilida ham uchrab turadi. Masalan, so‘z yasovchi yoki grammatik shakl yasovchi qo‘shimchalar atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlarga qo‘shilganda, yoki qo‘shma so‘zlar xosil qilinganda dastlabki bosh urg‘u endi ikkinchi darajali urg‘uga aylanadi: *paxtá-paxtákór*, *gúl-gúllár*, *kò’zoynák*. Birinchi va ikkinchi misollarga e’tibor bergen bo‘lsak, ikkinchi darajali urg‘u birinchi darajali urg‘u bilan yonma-yon joylashgan.

Odatda zamonaviy ingliz tili lug‘atlarining aksariyatida uchinchi darajali urg‘u ko‘rsatib o‘tilmagan. Lekin ba’zi tilshunoslarning fikricha uchinchi darajali urg‘uni ahamiyatsiz deb bo’lmaydi. Urg‘uning bu darajasi unlining reduksiyaga uchramasligi tufayli vujudga keladi. Nima uchundir mayyan unlilarning reduksiyaga uchrashi yoki uchramasligi haqida turli qarashlar mavjud bo‘lsada, ularni taxmin qilish va izohlash murakkabdir. Masalan, ko‘pincha reduksiyaga uchramagan bo‘g‘inlar yopiq bo‘g‘inda bo‘ladi (*activity*) yoki unli cho‘ziq bo‘ladi, cho‘ziq monoftong (*Germánic*) yoki cho‘ziq diftong (*climátic*) bo‘lishi ham mumkin. Afsuski, barcha bu kabi unlilar reduksiyadan himoyalangan emas. (*infórm* – *informátion* /ə/; *fragmént* – *fràgmentátion* /ə/ qarshicondémn – *còndemnátion* /e/ ga). Bu jarayonga so‘zlarni tez tez takrorlanishi ham ta’sir qilishi mumkin. so‘zlovchi so‘zni qancha ko‘p qo‘llagan sari unlinking reduksiyaga uchrash ehtimoli ortib boradi<sup>67</sup>. Masalan musiqa asbobi *trombon*

<sup>67</sup>Balogné B. K., Slízár S. The pronunciation of English. Korbai Hajnaltól. 2006. –B. 121.

so‘zni odatda [trøm'bœvn] tarzida talaffuz qilinadi, bu cholg‘u asbobidan foydalanuvchilar esa [trəm'bœvn] deb talaffuz qiladilar.

Uchinchi darajali urg‘uning tizimli ravishda hosil bo‘ladigan atigi bir nechta holatlar mavjud. Ulardan biri bu qo‘shma so‘zlarni hosil qilishdir. Qo‘shma so‘zlearning aksariyatida bosh urg‘u biringchi qismda bo’ladi. Mantiqan u reduksiya bilan hamrohdir, xususan, ular dastlabki mavjud ritmik yaqqollikni yuqotsalarda, unlining to‘liqligi saqlanadi. Masalan, *bláck* va *bóard* so‘zlarining har ikkovida ham bosh urg‘uni qo‘llashimiz zarur. Ular birgalikda qo‘shma so‘zga o‘zgarganda *board* so‘zi bosh urg‘udan voz kechadi, ammo u o‘zidagi [ɔ:] cho‘ziq unlisini saqlab qoladi *bláckboard* ['blæk,bɔ:d]. Shuning uchun uning urg‘u darajasi 13 shaklida ifodalash mumkin. Bunday qarash asosidagi qoidani *rainbow* ['reɪn,bœv], *lifestyle* ['laɪf,stail] va *síuperman* ['su:pə,mæn] kabi so‘zlarga tadbiq qilinadi. Yasama bo‘lmagan so‘zlar *bladder* ['blædə] yoki *blanket* ['blæŋkit], ba’zi tarkibida suffiks mavjud bo‘lgan *blácking* ['blækɪŋ] yoki *blábber* ['blæbə] so‘zlarida ham shunday holat kuzatiladi. Qiziqarlisiga shuki, ba’zi bir tarixiy qo‘shma so‘zlar o‘zlarining murakkab morfologik strukturasini yakunlab, hozirda tub so‘z normalari asosida urg‘u qo‘yiladi. Masalan *cupboard* so‘zi sezilarli reduksiyaga uchragan unli bilan ['kʌbəd] sifatida aytilsa devoriy shkaf ma’nosini anglatadi, ['kʌbɔ:d] (13 urg‘u modelida) shunchaki finjonlar turgan barkash deganidir. Dastlab *sheep* [ʃi:p] va *herd* [hɜ:d] so‘zları qo‘shilib *shepherd* ['ʃɛpəd] so‘ziga, *post* [pəʊst] va *man* [mæn] so‘zları *postman* ['pəʊstmæn] so‘ziga, *black* [blæk] va *berry* ['beri] so‘zları *blackberry* ['blækbəri] so‘ziga aylandi<sup>68</sup>. *Forehead* so‘zi esa ikki muqobil talaffuzga ega: birinchisi qo‘shma so‘zlarda tadbiq qilinadigan qoidalariga binoan ['fɔ:,hed], ikkinchi qismi reduksiyaga uchrashi normasi asosida ['fɔ:rɪd].

Demak, so‘zning morfologik strukturasi uning talaffuzida aniq aks etadi, ya’ni bosh urg‘u va uchinchi darajali urg‘u bog‘langan so‘zlargina real qo‘shma so‘zlardir. Afsuski, yuqorida keltirilgan barcha urg‘u normalari istisnolarga egadir.

---

<sup>68</sup>Balogné B. K., Slizárd S. The pronunciation of English. Korbai Hajnaltól. 2006. –B. 122.

Leksik urg‘u darajalari haqidagi qarashlar turlichal bo‘lsa-da, ularning aynan birini dominant sifatida qabul qilish qiyin. Sababi, biz so‘zlardagi har bir bo‘g‘inni xosil qilishda jismoniy jihatdan turlichal energiya sarf etamiz. Shu nuqtai nazardan so‘zdagi bo‘g‘inlar va darajalar soni bir xil deyish ham mumkin. Ba’zi olimlarning fikricha, so‘zda faqatgina bitta yaqqollik avji (bosh urg‘u) mavjuddir, ikkinchi darajali urg‘u esa fonologik jihatdan ahamiyatga ega emas, chunki uning o‘rnini o‘zgarishi so‘zlar o‘rtasida hech qanday ma’noni farqlash vazifasini bajarmaydi u shunchaki so‘z sturkturasini ko‘rsatib beradi<sup>69</sup>. Shuning uchun ingliz va o‘zbek tillarining lug‘aviy urg‘usiga umumiy ta’rif berilganda asosan bosh urg‘u nazarda tutiladi. Afsuski urg‘u darajalari haqida o‘zbek tilida manbalar cheklangandir. Sababi, deyarli hech bir yirik o‘zbek tili lug‘atlarida (entsiklopedik yoki izohli lug‘atlarda) va darsliklarda faqatgina bosh urg‘uning o‘rni ko‘rsatilgan. Ba’zan o‘zbek tilida urg‘uni darajalanishi haqida gapirilganda, urg‘uni darajalarga ajratish asosli dalillarga ega emas degan fikr bildiriladi.<sup>70</sup> Demak, leksik urg‘uning darajalanishi ingliz tilida o‘zbek tilidan ko‘proq ahamiyatga egadir.

---

<sup>69</sup> Heinz J. Stress. University of California. 2013. –B. 3. Claire-A. Forel & Genoveva P, Updated by Cornelia H and Carmen S. PHONETICS AND PHONOLOGY University of Oldenburg.:2005. –B. 45.

<sup>70</sup>Фозиева М. Ўзбек тилида ургу// Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. Farg’ona. 2017. –B. 262.

## **2.2. So‘z urg‘usining o‘rni, unga ta’sir qiluvchi omillar va aksentuatsion tendensiyalar**

So‘z urg‘usi o‘rniga ko‘ra dunyo tillari ikki guruhga bo‘linadi: erkin va turg‘un (bog‘langan) urg‘uli tillar<sup>71</sup>. Turg‘un urg‘uli tillarda ba’zi istisnolarni xisobga olmagan holda leksik urg‘u so‘zlarning muayyan bir bo‘g‘iniga tushadi. O‘zbek tili so‘zning oxirgi bog‘ini urg‘u oladi. Gimsonning fikricha „Ingliz tilida so‘z urg‘usi har qanday so‘zda asosiy urg‘uni har doim alohida bir bo‘g‘inga tushishini hisobga oladigan bo‘lsak bog‘langan, lekin ba’zi tillardagi kabi so‘zni tashkil etuvchi qismlari bo‘lmish bo‘g‘inlar zanjirining ma’lum holatiga aynan bog‘liq emasligini e’tiborga oladigan bo‘lsak erkin urg‘u hisoblanadi”<sup>72</sup>. Shuning uchun ham agar biz bo‘g‘inlari urg‘u qabul qilishi mumkin bo‘lgan barcha so‘zlarni inobatga olsak ingliz tilida so‘z urg‘usi erkin deb hisoblaymiz. Masalan *water*, *common* (urg‘u birinchi bo‘g‘inda), *become*, *misspell* (urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda), *afternoon* (urg‘u uchinchi bo‘g‘inda, birinchi bo‘g‘in ikkinchi darajali va ikkinchi bo‘g‘in uchinchi darajali urg‘uni qabul qilgan), *representation* (to‘rtinchi bo‘g‘inga urg‘u tushadi) va hokazo.

Ingliz tilini o‘rganayotgan talaba va o‘quvchilarni qiyayotgan savol bu qanday qilib so‘zlardagi urg‘uli bo‘ginni ajrata olish mumkin? Buning asosiy sababi ingliz tili umumiylug‘aviy urg‘u normalariga tayanuvchi o‘zbek (urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi), tilidan tubdan farq qiladi. Ba’zi mualliflarning fikricha ingliz tili so‘z urg‘usi taxmin qilish shunchalik murakkabki, urg‘uning

---

<sup>71</sup>Содиков А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш.—Т.: “Ўқитувчи”, 1981. —В. 45, Jalilov S. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). —Nukus.: 2011. —В. 51.

<sup>72</sup>Gimson A. An introduction to the Pronunciation of English. —London.: 1962. —В. 216.

o‘rnini aniqlash uchun har bir so‘zni alohida o‘rganib chiqish lozimdir.<sup>73</sup> Albatta, ingliz tilida so‘z urg‘usining o‘rnini aniqlash mushkul jarayondir. Shunga qaramay mahalliy ingliz tilida gaplashuvchilar ko‘p hollarda notanish so‘zlarga duch kelishganda ham urg‘udan to‘g‘ri foydalanadilar. Urg‘uning o‘rnini belgilashga doir ba’zi qoidalar mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi istisnolarga egadir.

So‘zlardagi urg‘uning o‘zgaruvchanligi ingliz tilida turli tendensiyalarga sabab bo‘ldi. Ulardan biri bu ritmik tendensiyadir. Ritm omili muayyan bo‘g‘in yoki bo‘g‘inlarni urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inning ketma-ket sodir bo‘lishi ritmik odatlar va tendensiyalar asosida urg‘u unsurlarining yaqinlik asosida bir vaqtda urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inni ajratib olish jarayonida kuzatiladi. So‘z urg‘usi ingliz tilida so‘zning aynan bir boshlang‘ich, o‘rta, yakuniy bo‘g‘iniga tushishi mumkin. Ko‘p holatlarda bosh urg‘u olgan bo‘g‘indan oldingi bo‘g‘in urg‘u olmagan yoki kuchsiz urg‘uga ega bo‘ladi, qolgan bo‘g‘in esa ikkinchi darajali urg‘uga ega bo‘ladi:*supernatural*/,su:pə'nætʃrəl/,      *hypercritical*/,haɪpə'kritɪkəl/. Shuning uchun urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar ketma-ketligi ritmik usulda aniqlanadi. Ritmik tendensiyaning ikki turi mavjuddir: diaxronik(bosh urg‘u uch yoki to‘rt bo‘g‘inli so‘zlarning oxiridan uchinchi bo‘g‘inida bo‘ladi)*family, articulate*) va sinxronik (ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning bosh urg‘uda oldingi ikkinchi bo‘g‘in ikkinchi darajali urg‘u oladi.)

Ingliz tilidagi so‘zlarning aksentual strukturasi zamonaviy ingliz tili so‘z boyligi turli til qatlamlari asosida vujudga kelganligi sababli beqaror bo‘lishi mumkin. Resessiv tendensiya bo‘yicha german tillarining birinchi yoki ikkinchi bo‘g‘ini urg‘ulantiriladi.Ba’zi so‘zlar ingliz tiliga lotin tilidan o‘z urg‘u pozitsiyasini saqlagan holda o‘tgan: *perceive /pə'si:v/, percept /'pɜ:sept/, perception /pə'septʃən/, transcribe /træn'skraib/, transcript /'trænskript/, transcription /træn'skriptʃən/* va hokazo.O‘zining ifoda ma’nosini yuqotgan prefiksli so‘zlardagi

---

<sup>73</sup>Roach P. English phonetics and phonology.A practical course second edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 1991. —B. 88.

resessiv urg‘uning ikkita ikkinchi darajali turi mavjuddir. (1) cheklangan va (2) cheklanmagan (urg‘u olmagan prefiks bo‘yicha).<sup>74</sup>

Cheklanmagan resessiv urg‘u mahalliy ingliz tilidagi ko‘pgina so‘zlearning boshlang‘ich bo‘g‘iniga tushadi: *sunday /'sʌndɪ/, hopeful /'haʊpfʊl/, freedom /'fri:dəm/, brightness /'braɪtnɪs/*. Cheklangan urg‘u zamonaviy ingliz tilida ifoda ma’nosini yuqotgan prefiksli mahalliy so‘zlearning asos qismiga tushadi: *forgive /fə'gɪv/, asleep /ə'sli:p/, withdraw /wið'drɔ:/, again /ə'geɪn/* va hokazo.

Oxirgi bo‘g‘ini urg‘u oladigan ba’zi so‘zlar mavjud, ammo bu ba’zi prefiksli fe’llar uchun chegaralangan. Ba’zi lotin va fransuz prefiksli fe’llari esa oxirgi bo‘g‘inda urg‘u olish xususiyatini saqlab qolgan. Bunday xorij so‘zlarining mahalliy nutq normalariga moslashuvi aksentual assimilyatsiya deb nomlanadi. Tillar orasidagi o‘zaro aloqa nuqtai nazaridan bunday fonetik birlashuv tillar o‘rtasidagi aksentual aralashish deb nomlanadi. Ingliz tiliga fransuz tilidan olingan aksariyat olinma so‘zlar aksentual aralashish natijasida resessiv urg‘uga egadir. German tilidan va fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni taqqoslaydigan bo‘lsak, fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarda aksariyat holatlarda birinchi bo‘g‘in urg‘u olmaydi.<sup>75</sup>

Yuqoridagilardan tashqari retentiv tendensiya ham mavjud bo‘lib so‘z hosil qilishdagi urg‘uning o‘zgarmas o‘rnini harakterlaydi. Retentiv tendensiya odatda bir xil asosdan hosil qilinadigan, urg‘u doim muayyan bo‘g‘inga tushadigan va o‘zgarmaydigan holatlarda kuzatiladi: ‘hope-‘hoping-‘hopefully, ‘life-‘lively-‘liveliness-‘livelihood. Ingliz tilidagi ko‘p sonli ikki va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda bosh va ikkinchi darajali urg‘u o‘zak so‘zga tushadi:*de`clare-declaration, `examine-exami`nation, `prepare-pre`parathion, refuge /'refju:dʒ/-refuges /'refju:dʒiz/- refugee /refju'dʒi:/*. D.Jones yasama so‘zlardagi urg‘uni aniq tariflaydi. Agar o‘zak so‘z bir bo‘g‘inli bo‘lsa, u holda u kuchli urg‘uga ega bo‘lib

<sup>74</sup>Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.—B. 132

<sup>75</sup>Soxibov S. Ingliz tiliga fransuz tilidan kirib kelgan so‘zlar urg‘usi// Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. Farg’ona. 2017. —B. 212.

qolgan affikslar esa urg‘u olmasligi mumkin: *cognitive* [‘kɒgnɪtɪv] - *cognitivist* [‘kɒgnɪtɪvɪst].

So‘z aksentuatsiyasidagi o‘zgarishlar turli tendensiyalarga sabab bo‘lgan bo‘lib, ular hamon davom etmoqda. A.C.Gimsonning ta’kidlashicha „ eng yaqqol o‘zgarish maydoni bu so‘z aksentuatsiyasidir? ”<sup>76</sup>

Peter Rovchning fikricha, ingliz tilidagi leksikurg‘usini o‘rnini aniqlashda til o‘rganuvchilar birinchi navbatda so‘z haqidagi quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim:

1. So‘zning morfologik jihatdan tuzulishi uning oddiy yoki murakkabligi ya’ni affikslar soni yoki so‘zning qo‘shma yoki tub so‘z ekanligi.
2. So‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligi (ot, sifat, son, fe’l, ravish).
3. So‘zdagi bo‘g‘inlar soni (bir yoki undan ortiqligi).
4. Bo‘g‘inlarning fonologik strukturasi (monoftong yoki diftong ekanligi).<sup>77</sup>

Yuqoridagilarni inkor etmagan holda, ba’zi olimlar so‘zlarning tarixini, ya’ni etimologiyasini ham bilish urg‘uni o‘rnini aniqlashda muhim deb hisoblaydilar.<sup>78</sup> Ta’kidlab o‘tilganidek atash ma’nosiga ega bo‘lgan bir bo‘g‘inli so‘zlarning barchasi leksik urg‘uga ega. Albatta bir bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘usini aniqlash qiyinchilik tug‘dirmaydi, bo‘g‘inlar soni ko‘payib borgan sari urg‘uning o‘rnini aniqlash murakkablashib boradi.

Masalan, ikki bo‘g‘inli fe’llarda agar ikkinchi bo‘g‘in o‘z ichiga diftong yoki cho‘ziq unlini olsa yoki oxirgi bo‘g‘in birdan ortiq undosh tovushlar bilan tugasa urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga tushadi: *apply* /ə'plai/, *attract* /ə'trakt/, *arrive* /ə'raiv/, *assist* /ə'sist/. Agar qisqa unli ikkinchi bo‘g‘inda bo‘lsa, urg‘u so‘zning birinchi bo‘g‘iniga tushadi: *open* /'əʊp(ə)n/, *envy* /'envi/,

<sup>76</sup>A. C. Gimson. English as she is spoke (n). New Society, 8 July 1976, -B. 72.

<sup>77</sup>Roach P. English phonetics and phonology. A practical course second edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 1991. —B. 88.

<sup>78</sup>Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009 —B. 76.; Robert S., Minkova D. English Words. History and Structure. —Cambridge.: Cambridge University Press, 2001. —B. 168.

equal /'i:kwəl/, enter /'entə/. Agar qisqa unli oxirgi bo‘g‘in tarkibida bo‘lsa ham ushbu bo‘g‘in urg‘u olmaydi (follow/'fɒləʊ/, borrow /'bɒrəʊ/). Ikki bo‘g‘inli sifatlar ham yuqorida keltirilgan qoida asosida urg‘ulantiriladi. *lovely* /'lʌvli/, *divine* /dɪ'veɪn/, even /'i:v(ə)n/, *correct* /kə'rekt/, *hollow* /'hɒləʊ/, *alive*/ə'laɪv/. Aksariyat urg‘u qoidalarida istisnolar mavjuddir. Masalan honest/'ɒnist/ va *perfect*/'pɜ:(r)fɪkt/ so‘zlari. Har ikkovida ham ohirgi bo‘g‘in ikkita undosh bilan tugashiga qaramay , urg‘u so‘zning birinchi bo‘g‘iniga tushadi.

Otlar esa turlicha qoidalarni taqozo etadi: agar ikkinchi bo‘g‘in o‘z tarkibiga qisqa unlini olsa, urg‘u odatda so‘zning birinchi bo‘g‘iniga tushadi. Aksincha bo‘lsa, ikkinchi bo‘g‘in urg‘u oladi: *money* /'mʌni/, *estate* /'eɪstet/, *product* /'prɒdʌkt/, *balloon* /bə'lju:n/, *larynx* /'lærɪŋks/, *design* /dɪ'zain/. Boshqa ikki bo‘g‘inli ravishlar va predloglar ham huddi fe’llar va sifatlar kabi urg‘u o‘rniga egadir.

Uch bo‘g‘inli fe’llarda agar oxirgi bo‘gin o‘z ichiga qisqa unlini olsa va bitta undosh bilan tugasa, shu bo‘g‘in urg‘u olmaydi, eng so‘nggi bo‘g‘indan oldingi bo‘g‘in esa urg‘uga ega bo‘ladi<sup>79</sup>: *encounter*/ɪn'kaʊntə/, *determine* /dɪ'tɜ:(r)mɪn/. Agar oxirgi bo‘g‘in tarkibida cho‘ziq unli yoki diftong tovush bo‘lsa yoki birdan ortiq undosh tovush bilan tugasa, urg‘u aynan shu bo‘g‘inda bo‘ladi: *entertain* /entə'tein/, *resurrect/rezə'rekt/*. Otlarda esa, agar oxirgi bo‘g‘in o‘z ichiga qisqa unli yoki əu ni olsa, bu bo‘g‘inga urg‘u tushmaydi; agar o‘rtadagi bo‘g‘in tarkibida cho‘ziq unli yoki diftong bo‘lsa yoki birdan ortiq undosh tovush bilan tugasa , urg‘u o‘rta bo‘g‘inga tushadi: *mimosa*/mi'məʊzə/, *disaster/dɪ'za:stə(r)/*, *potato* /pə'teɪtəʊ/,*synopsis/sɪ'nɒpsɪs/*. Agar oxirgi bo‘g‘in o‘z ichiga qisqa unlini olsa va ikkinchi bo‘g‘inda doim qisqa unli mavjud bo‘lib bittadan ortiq bo‘lmagan undosh tovush bilan tugasa, urg‘u so‘zning birinchi bo‘g‘inida bo‘ladi: *quantity* /'kwɒntəti/, *emperor* /'emp(ə)rə(r)/, *cinema* /'sɪnəmə/, *custody* /'kʌstədi/.

---

<sup>79</sup>Roach P. English phonetics and phonology.A practical course second edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 1991. —B. 90.

Yuqorida keltirilgan qoidalarning barchasi urg‘uning cho‘ziq unli yoki diftonga ega, birdan ortiq undosh bilan tugaydigan bo‘lishini ta‘kidlagan bo‘lsa, uch bo‘g‘inli otlar bundan mustasnodir. Agar oxirgi bo‘g‘in yuqoridagidek tipdagisi ot bo‘lsa, urg‘u so‘zning birinchi bo‘g‘iniga tushadi: *intellect* /'intəlekt/, *telecast* /'telɪ,ka:st/. Sifatlar ham shunday qoidaga amal qilishni taqozo etadi: *opportune* /'ɒpɒ(r)tju:n/, *fairytales* /'feəri,teɪl/, *versatile* /'vɜ:(r)sətəil/, *derelict* /'derəlɪkt/.

Ingliz tilidagi leksik urg‘u joylashuvining yanada murakkablashuvi affiksatsiya va qo‘shma so‘zlar xosil qilinganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, qo‘shimchalarining urg‘uga qay darajada ta’sir qilishini bilish uchun biz albatta ushbu qo‘shimchaning turini (prefiks yoki suffiks ekanligini), tarixini (ushbu qo‘shimchaning tilga qaysi tildan kirib kelganligi) bilish muhim ahamiyatga egadir. Masalan ingliz tilidagi aksariyat old qo‘shimchalar lotin va german tillariga tegishli bo‘lib, so‘z tarixini bilish urg‘u o‘rnini topishda yordam beradi:

German tilidan kelib chiqqan prefikslar	Lotin tilidan kelib chiqqan prefikslar
<i>a-, be-, for-, mis-, out-, over-, un-, under-, up-, with-:awake, believe, forgive, foresee, mistake, outrun, overdo, untie, understand, uphold, withdraw</i>	<i>a(d)-, com-, de-, dis-, ex-, en-, in-, o-, per-, pre-, pro-, re-, sub-, sur-:admix, complain, dislike, exclude, entreat, inhale, oppose, persuade, remember, subside, surmount.</i>
1) Ba’zi prefikslar har doim urg‘u olmaydi: <i>a-, be-, fore-, with-</i> . 2) Boshqalari prefiks+fe’l shaklidagi kombinatsiyada odatda ikkinchi darajali urg‘uga ega bo‘ladi; <i>undo, outdo, overlook, underpray</i> . 3) Ikkinci qoidaga istisno sifatida agar prefiks ot qo‘shma so‘zi	1) German prefikslaridan farqli ravishda aksariyat lotin prefikslari fe’lning qismi bo‘lib kelganda urg‘u olmaydi: <i>compare, disturb, produce, expect</i> . 2) Bu prefikslar so‘zning bir qismi bo‘lib ot sifatidagi funksiyani bajarsa ko‘pincha bosh urg‘u

<p>qolipi kabi otdek funksiyani bajarsa prefiks yoki uning birinchi bo‘g‘ini bosh urg‘uga ega bo‘ladi: <i>foresight,</i> <i>outlook, overdose, underwear,</i> <i>upstart.</i> ; I couldn’t stop OVERflow of the tank!</p>	<p>oladi: Fresh PROduce (ot) is expensive in winter. The company will proDUCE (fe'l) new brands. Bu misollarda urg‘u qoliplaridagi farqlar so‘z turkumlarini farqlashga yordam beradi.</p>
---	--

Albatta, keltirilgan old qo‘s Shimchalar hozirda o‘zining qo‘s Shimchalik xususiyatini yuqotib ularning ko‘pi tub so‘zga aylanib bo’lgan.

O‘zbek tilida ham urg‘uga ta’sir qiluvchi prefikslar mavjuddir. Masalan allashuningdek, sifatning ma’nosini orttirish maqsadida qo‘llanadigan prefikslar urg‘uni o‘zi bilan birga olib yuradi: állakim, állanima, sáp-sariq, yám-yashil. Aslida ko‘plab old qo‘s Shimchalar fors tojik tilidan olingan bo‘lib, ular sof turkiy tilda kamdan-kam qo‘llanilgan. Yuqorida keltirilgan old qo‘s Shimchalar istisno sifatida qabul qilingan bo‘lib, odatda o‘zbek tilida prefikslar urg‘u olmaydi.

Ingliz tili urg‘u doirasida biz mavjud suffikslarni uch turga bo‘lishimiz mumkin.<sup>80</sup>

<p>1) Urg‘uga neytral suffiks – asosda mavjud urg‘uning o‘rniga ta’sir qilmaydigan suffiks</p>	<p>2) Urg‘uni tortuvchi suffiks – urg‘uning asosning muayyan bir bo‘g‘inda bo‘lishiga sabab bo‘ladigan suffiks</p>	<p>3) Urg‘u olgan suffiks – suffiksning o‘zi urg‘u oladigan turi</p>
--	--	--

<sup>80</sup>Celce-Murcia M., Brinton D., Goodwin J. Teaching Pronunciation: A Reference 8. for Teachers of English to Speakers of Other Languages. - Cambridge: Cambridge University Press, 1996. –B. 136. Gimson A. Gimson's Pronunciation of English. Sixth Edition./ Revised by 11. Alan Cruttenden. – London, New York: Edward Arnold, 2001. –B. 226-227

1) Urg‘uga neytral suffikslarning aksariyatining kelib chiqishi german tillariga borib taqaladi: <b>-hood, -less, -ship, -ful</b> , va hokazo. Masalan: <i>motherhood, flawless, shameful, membership.</i>	1) Urg‘u suffiksdan oldingi bo‘g‘inda bo‘ladi: <b>-eous:</b> <i>advangeTAous -graphy:</i>	1) Asosan fransuz tilidan olingan suffikslar so‘zning oxirgi bo‘g‘inida bosh urg‘uga ega bo‘ladilar: <b>-</b> <i>aire:questionNAIRE -eer:volunTEER -ese:VietnamESE -esque:groTESQUE -ique;anTIQUE -oon:ballOON -ette:casSETTE</i>
2) Qolgan neytral suffikslarning hammasi ham german tillaridan olingan emas. Ularning ko‘pchiligi <b>-ment</b> suffiksi bilan bir xil funksiyani bajaradigan oxiri <b>-y</b> bilan tugaydigan suffikslardir: <b>-ary, -ery, -ory, -cy, -acy, -ty;</b> bundan tashqari <b>-ish, -ism, -ist, -er, -ess, -ness, -dom</b> va hokazo. Masalan: <i>disaGReement, inFIRmary, DELicacy, FOOLish, SEParatist, LIONess kabi.</i>	<i>photoGraphy -ial: proVERBial -ian: PaRIsian -ic: cliMAtic -ical: ecoLOGical -ious: inJURious -ity: aBILity -ion: eduCAtion</i>	

O‘zak va suffiksning kelib chiqish tarixi turlicha bo‘lsa, suffiks ingliz tilidagi urg‘uning qolipini belgilaydi. German tillariga tegishli bo‘lgan **-ly** va **-ness** suffikslari kelib chiqishiga ko‘ra roman tillariga tegishli bo‘lgan so‘zlarga qo‘shilganda urg‘uda hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi: PASSive, PASSiveness, ammo lotin suffiksi bo‘lgan **-ity** PASSive so‘ziga qo‘shilganda pasSIVity ga o‘zgaradi.

Ba’zi suffikslar alohida sabablarga ko‘ra urg‘uga neytral yoki urg‘uli bo‘lishi mumkin. Masalan: ko‘p hollarda urg‘uga nisbatan neytral holda uchraydigan **-able** : *adore=aDORable, question=QUEStionable, reconcile=Reconcilable.* Shunga qaramay, bir nechta ikki bo‘g‘inli asosga

qo'shilganda oxirgi bo'g'indagi urg'u birinchi bo'g'inga ko'chadi: *admire=ADmirable, apply=APplicable, prefer=PREferable*. Ba'zi hollarda **–able** ning neytral bo'lishi alternativ talaffuzga olib kelishi mumkin: *apPLICable, COMparable-comPARable(umumiy amerikanchada), deMONstrable-DEMOnstrable*, hokazo.

O'zbek tilida ham mavjud suffikslarni shartli ravishda ikki turga ajratishimiz mumkin: urg'u oladigan va urg'u olmaydigan suffikslar.

Oz sonli suffikslar odatda urg'u olmaydi:

- -ta (dona son qo'shimchasi) *béshta*;
- -cha (ravish yasovchi qo'shimcha) *rúscha*;
- -tacha (chama son qo'shimchasi) *úchtacha*;
- -gina (kina) (yuklama bo'lsa) *ulárgina*;
- -dek, -day (o'xshatish qo'shimchalari) *ótdek, tuyáday*;
- -ov, -ova, -yev, -yeva (familiyaning so'ngi bo'g'inlari)<sup>81</sup> *Xolmátov*;
- -ma (fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi) *bóрма*;
- -man, -san, -miz, -siz (shaxs ko'rsatuvchi bog'lama va shaxs-son qo'shimchalari) *talabáman, talabásiz*;
- -di, -gan, -moqchi, -ajak kabi (zamon qo'shimchalari) *kéldi*;
- qo'shimcha yuklamalar: *oldi-ku, sen-chi, keldi-da*;
- -dir qo'shimchasi ham (har qanday vazifani bajarayotgan paytda ham) urg'u olmaydi.

Demak, o'zbek tilida muayyan holatlarda so'zga suffikslar qo'shilganda ham leksik urg'u o'z o'mini o'zgartirmaydi.

Qo'shma so'zlar ham o'ziga xos urg'u normalarini taqozo etadi. Qo'shma so'zlar birdan ortiq asosdan tashkil topgan bo'lsa-da, grammatik va semantik jihatdan bir so'zga tengdir. Qo'shma so'zlar bir so'z qilib qo'shib(dishwasher), defis bilan (user-friendly), yoki ikki element o'rtasida bo'sh joy tashlab(season ticket) yozilishi mumkin. Keltirilgan uchchala yo'ldan birini tanlashning tizimli

---

<sup>81</sup>Muhammadov E. So'z urg'usi // Imtihon. 2016. № 6. —B.4.

yo‘li mavjud emas. Shunga qaramay, birinchi elementi bosh urg‘uga ega qo‘shma so‘zlar bir so‘z qilib yoki defies bilan yozish va bosh urg‘u so‘nggi elementda bo‘lsa, asoslarni ajratib ajratib yozish tendensiyasi bor.

Sifat o‘zidan keyin kelayotgan otga tobe bo‘lsa demak ular so‘z birikmasini hosil qilishadi, va odatda ikkinchi so‘z birinchisiga qarganda ko‘proq urg‘uga ega bo‘ladi: *polished 'wood, , interesting 'book, , funning 'water, , hard 'work, , difficult 'course.*

Qo‘shma so‘zlarning birinchi elementi ikkinchisiga qaraganda ko‘proq urg‘u olishi qo‘shma so‘zlarga xos holat hisoblanadi: *'firewood, 'library book, 'running shoes, 'homework.*<sup>82</sup>

Urg‘u qo‘shma so‘zning birinchi bo‘g‘inida bo‘ladigan holatlar:

- Ikki element bir so‘z sifatida yozilganda: *'headline, 'screwdriver, 'laptop, 'lifestyle;*
- Ot+ot strukturasidagi qo‘shma so‘zlar: *'picture frame, 'child abuse, 'theme park.*
- Sifat+ot, ot’s+ot, ot+fe’l, ot+fe’l ing: *'batting average, 'bull'seye, 'crow'snest, 'landfill, 'ear-splitting, 'job-sharing.*
- Fraza shaklidagi yoki predlogli fe’llar ot sifatida qo‘llanilganda: *'burn-out, 'lay-off, 'melt-down, 'set-up.*

Quyidagi holatlarda qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalarida urg‘u oxirgi elementga tushadi:

- Agar birinchi element predmetning nimadan taylorlangani yoki tarkibini bildirsa: *cherry 'pie, pork 'chop, pee 'pudding, panama 'split* kabi. Shuni esda saqlab qolish lozimki, *cake, water va juice* so‘zlari bundan mustasno, ular ikkinchi element vazifasida kelganda bosh urg‘uni olmaydi: *'carrot cake, 'orange juice, 'mineral water.*

---

<sup>82</sup>Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009. –B. 77.

- Agar birinchi element atoqli ot bo‘lsa: , *Euston 'Road, the, Hilton 'Hotel, , Oxford 'Circus*, lekin street so‘zi bundan mustasno bo‘lib, street ikkinchi element sifatida qatnashganda ular normal boshlang‘ich urg‘uga ega bo‘ladi: *'Oxford street, 'Euston Street.*
- Birinchi element joy yoki vaqt nomini bildirsa: *city 'centre, ,town 'hall, ,summer 'holidays, Easter 'bunny, Christmas 'pudding, morning 'paper, ,office 'party, kitchen 'sink.*
- Har ikkala komponent ham teng tasviriy darajaga ega bo‘lsa: *acid 'rain, aroma 'therapy, fridge-'freezer;*
- Birinchi element qiymatni bildirsa: *100 percent 'effort, dollar 'bill, pound 'note.*

Qo‘shma sifatlarda bosh urg‘u dastlabki elementda 'seasick, 'hen-pecked, `ladylike vasovngi elementda deep-'seated, rent-'free, skin-'deep, sky-'blue.

Ba’zida so‘zlarning bunday tartibda kelishi so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘zni hosil qiladi. Bu yerda esa urg‘uning boshlang‘ich yoki oxirgi elementda qo‘llanishi farqlashga yordam beradi.

Qo‘shma so‘z =boshlang‘ich urg‘u	So‘z birikmasi=so‘nggi urg‘u
<i>a 'darkroom</i> = tasvirni suratga aylantirish xonasi	<i>a dark 'room</i> = qorong‘u xona
<i>a 'moving van</i> =boshqa uyga ko‘chayotganda mebellarni olib o‘tish	<i>a moving 'van</i> = harakatdagi furgon
<i>a 'blackbird</i> = qush turi	
<i>an 'English teacher</i> = ingliz tili o‘qituvchisi	<i>a black 'bird</i> = har qanday qora qush <i>an English 'teacher</i> = ingliz millatiga mansub o‘qituvchi

Ingliz tilidagi so‘zlarda so‘z urg‘usi qolipi turlicha bo‘lishi mumkin. Urg‘u o‘rnining erkin variant ritmik va analogik bosimga, so‘zlardagi tovush strukturasiga muhim qo‘shimcha o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi qo‘shma, juft va takror so‘zlar albatta bittadan leksik urg‘usiga (bosh urg‘uga) egadir. Urg‘u har doim so‘zning oxirgi bo‘g‘inida bo‘ladi. Ba’zi tilshunoslarning fikricha esa takror so‘zlarda urg‘u so‘zning birinchi qismida bo‘ladi: *kungaboqár, aka-uká, ásta-asta*.<sup>83</sup>

Ingliz tilidagi urg‘uga olinma so‘z va qo‘shimchalarning ta’siri kuchli bo‘lgan bo‘lsa o‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Sababi aynan boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilida mavjud so‘zlar bilan omonimlikni xosil qildi va urg‘uning joylashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shunday ekan bu so‘zlarni farqlashda biz so‘z urg‘usiga murojaat qilamiz:

*olma* (ot) – *olma*(fe’l)

*etik* (kiyim) – *etik* (fan)

*atlas* (ko‘ylak) – *atlas* (xarita)

*hozir* (tayyor) – *hozir* (payt)

*yangi*(kitob) – *yangi* (payt)

*qo‘llar* (ot) – *qo‘llar* (fe’l)

*yaxshi* (sifat) – *yaxshi* (ravish)

*akademik* (litsey) – *akademik* (olim)

*texnik*(sifat) – *texnik* (ot)

*soya*(yorug‘lik tufayli xosil bo‘ladigan qoramtil shakl) – *soya* (o‘simlik)

*banda* (inson) – *banda* (jinoiy guruh)

Keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, leksik urg‘u nafaqat ingliz balki, o‘zbek tilida ham muayyan holatlarda so‘z turkumlarini farqlash funksiyasini bajaradi: *qo‘llar* (ot) – *qo‘llar* (fe’l), *increase* ['ɪnkri:s] (ot) - *increase* [ɪn'kri:s] (fe’l).

O‘zbek tili so‘z urg‘usining murakkablashuviga o‘zlashgan so‘zlar ular bilan bir qatorda ba’zi o‘zbekcha so‘zlar ham hissa qo‘shgan. Ya’ni bu so‘zlarda urg‘u so‘zning boshqa bir bo‘g‘iniga tushadi:

- Buyruq fe’lida: *gápir, bóshla*.

---

<sup>83</sup>Muhammadov E. So‘z urg‘usi // Imtihon. 2016. № 6. —B.4.

- Qo'shma va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida: *sótib oldi, yózib oldi, bérib yubordi*.
- Orttirma darajali sifatlarda: *bús-butun, yám-yashil*.<sup>84</sup>
- Bir so'zdan tashkil topgan sonlarda: *sákson, ólti*.
- Murakkab sonlarda: *ó'n besh, yígirma uch*.
- Ravishlarda: *tóza, yángi*.
- So'roq olmoshlarida: *níma, qáysi, qáchon*.
- Belgilash olmoshlarida: *hámma, bárcha, bári, hár bir, hár qachon, hár qaysi*.
- Bo'lishsizlik olmoshlarida: *héch kim, héch narsa*.
- Guman olmoshlarida: *kímdir, állanima*.
- Bog'lovchilarda: *lékin, ámmo, chúnki, zéro*.
- Modal so'zlarda: *albátta, bálki*.
- Takror so'zlarda: *kátta-katta*.
- Arab tilidan olingan kishi ismlari: *Lutfúlla, Asadúlla*.<sup>85</sup>

Ayni paytda o'zbek tilida so'z urg'usi umuman tushmaydigan so'zlar ham mavjud. Masalan, sof ko'makchilar leksik urg'u olmaydi, urg'u o'zidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: *maktáb sari, kún bo'yí, hámma bilan*. Qisqartma otlarda urg'u hodisasi (bosh urg'u) kuzatilmaydi: *BMT, AQSH, NATO*.<sup>86</sup>

Shu o'rinda qisqartma otlardagi urg'u ingliz tilida asosan XX asr manbalarida har bir qism alohida bosh urg'uga ega degan fikr keltirilgan ('U' S'A kabi). Bu qarash ingliz tilidagi ba'zi so'zlarda ikki va undan ortiq leksik urg'u mavjud degan qarashga sabab bo'ldi. Lekin hozirda mavjud adabiyotlar va lug'atlar bu fikrni rad etadi (*USA / ju: es 'ei/*).

Ingliz tili ayni paytda xalqaro til bo'lганligi sababli undagi urg'uga ta'sir qiluvchi omillarning barchasini to'liq va aniq izohlash qiyin. Aynan shuning uchun turli chegaralangan qarashlar mavjud. Xususan, bir necha bo'g'inli oxirgi

<sup>84</sup>Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. —Ташкент. “Ўқитувчи”, 1990.—B. 44.

<sup>85</sup>Bokhari H, Washington N. Stress in Saudi Diaspora Uzbek and its relation to stress in Turkish. //Excerpt from Proceedings of the 1st Conference on Central Asian Languages and Linguistics (ConCALL). Indiana University. Volume 1, 2015. —B. 52

<sup>86</sup>Marasulov K. Hozirgi O'zbek Adabiy Tilidan Qo'llanma. 2-qism. Farg'ona.: 2015. —B. 13.

bo‘g‘inga yaqin joyda urg‘uga ega bo‘lagan so‘zlardan keyin urg‘u boshlang‘ich bo‘g‘inga yaqin holatda joy olgan so‘z kelsa, birinchi so‘zdagi urg‘u o‘zidan urg‘u olishi mumkin bo‘lgan bo‘g‘inga ko‘chadi degan qarash mavjud.<sup>87</sup> Masalan *academic* so‘zi alohida so‘z sifatida urg‘u so‘zning oxiridan ikkinchi bo‘g‘iniga tushadi [-dem-]. Shunga qaramay, bu so‘zdan so‘ng „year“ so‘zi kelsa urg‘u ko‘pincha so‘zning birinchi bo‘g‘inida bo‘ladi[æk]. Natijada „*academic year*“ urg‘u namunasi hosil bo‘ladi. Ajratilgan holda *fundamental* va *Japanese* so‘zlarida bosh urg‘u –ment va –nese bo‘g‘inlariga tushsa, nutq bilan bog‘langan holda fund-va Jap- bo‘g‘inlari qolganlariga qaraganda yuqoriroq urg‘uga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, qo‘shma so‘zlarga urg‘u qo‘yishda umumiy amerikancha va britancha talaffuz normalarida ham farqlar mavjud:

Britancha talaffuz normasiga ko‘ra	Umumiy amerikancha talaffuz normasiga ko‘ra
'Season ,ticket	,Season 'ticket
,Adam's 'apple	'Adam's ,apple
,Peanut 'butter	'Peanut ,butter
,Vocal 'cords	'Vocal ,cords

Ingliz tilidagi urg‘uning pozitysiysiga nutqning tempi ham ta’sir qilishi mumkin. Yuqori temp artikulyatsiyasi ehtiyotkorlikni pasaytiradi, unlilar reduksiyaga uchraydi yoki tushirib qoldiriladi, ikkinchi darajali urg‘u ham tushirib qoldirilishi mumkin. The `whole organi`zation of the `meeting was `faulty.<sup>88</sup>

O‘z o‘rnida o‘zbek tili ham turlicha chalkashliklardan holi emas, albatta. Masalan, unli boshqa unliga o‘xshab o‘qilsa, urg‘u olmaydi:

A unli quiyidagi unlilarga moyil talaffuz qilinadi:

---

<sup>87</sup>Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poliprint. Ungvár.: 2009. –B. 78.

<sup>88</sup>Соколова М, Гитовт К, Тихонова И, Тихонова Р. English Phonetics. A Theoretical Course. Москва.: Высшая школа, 1991. –Б. 107.

- O unlisiga moyil: *zamón, javób.*
- I unlisiga moyil: *munosabát, muomala.*
- O‘ unlisiga moyil: *davlát, ravshán.*

O unli quiyidagilarga moyil talaffuz qilinadi;

Rus tili orqali yevropa tillaridan kirgan so‘zlarda o unli urg‘uli bo‘g‘indan oldin kelsa, a unli tarzida; bo‘g‘indan keyin kelsa, i unli tarzida o‘qiladi: kompyúter, réktor. O unli tovushi o‘ unli tarzida o‘qilsa, o unli urg‘u oladi: nóta, nójabr, óna, móda.

- A unlisiga moyil: *monitóring, konbáyn.*
- I unlisiga moyil: *diréktor, tráktor.*

Leksik urg‘uni aniqlashning yana bir sodda usuli mavjud. Buning uchun siz qo‘lingizni tashqi tomonini jag‘ ostiga tegar tegmas holatda tuting va so‘zni orfoepik jihatdan to‘g‘ri talaffuz qiling. Jag‘ingiz qaysi bo‘g‘inda qo‘lingizga tegsa, o‘sha bo‘g‘indagi unli urg‘u olgan bo‘ladi.<sup>89</sup>



Albatta, bu fikrni hozirda barcha olimlar ma’qullagan emas. Sababi, turli omillar oqibatida xatoliklarga yo‘l qo‘yilish ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ilmiy tajribalarda maxsus asboblardan foydalanish aniqlikni, tajribaning ishonchliligini belgilab beradi.

---

<sup>89</sup>Muhammadov E. So‘z urg‘usi // Imtihon. 2016. № 6. —B.4.

Ingliz tilidagi urg‘uning beqarorligi va chalkashliklari tufayli olimlar aksentuatsion qoliplar orqali ifodalashni taklif qildilar. D.Jonesning to‘g‘ri talaffuz lug‘atini tahlil qilish doirasida G.P.Torsuyev ingliz tilidagi so‘zlarning o‘n bitta aksentual qolipini va aksentual bo‘g‘in qoliplarini yaratdi.<sup>90</sup> A.C. Gimson ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar uchun ingliz tilidagi so‘zlarning ellikdan oshiq aksentual bo‘g‘in qoliplarini yaratdi.<sup>91</sup> Boshqa mualliflardan, masalan, Yi-Chen Fu ingliz tilidagi so‘zlarning fonemik strukturasi doirasida taxminan qirqtadan saksontagacha aksentual bo‘g‘in qoliplarini aniqlagan.<sup>92</sup> Quyida Torsuyevning grafik belgilari asosidagi ko‘p uchraydigan aksentual bo‘g‘in qoliplari keltiriladi:  $\perp$  asosiy urg‘uga ega bo‘g‘in,  $\top$  ikkinchi darajali urg‘uga ega bo‘g‘in, — kuchsiz bo‘g‘in.

Bir bo‘g‘inli so‘zlarning urg‘u qolipi bo‘lmaydi. Agar so‘zlar atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlar ot, sifat, fe’l, ravish, sondan biriga mansub bo‘lsa, ular urg‘uning bir darajasiga ega bo‘ladi. Yordamchi so‘zlar (yordamchi fe’llar, bog‘lovchilar, predloglar, olmoshlar va muayyan ravishlar) odatda urg‘usiz yoki yarim urg‘uga ega bo‘ladi. Ularga urg‘u qo‘yish so‘z birikmasining strukturasi, uni tashkil qiluvchi qismlari bilan bog‘liq.

So‘z urg‘usi darajalari o‘rtasidagi farq asosiy va ikkinchi darajali urg‘uni va so‘zlardagi turli aksentual qoliplarni shakllantiradi: / $\perp \perp$ /, / $\perp \top$ /, / $\top \perp$ /, / $\perp \top \perp$ / va hokazo. Urg‘ularning so‘zdagi bo‘g‘inlarda taqsimlanishi so‘zning aksentual bo‘g‘in strukturasini hosil qiladi. Masalan, bir aksentual qolipda turlicha aksentual bo‘g‘in strukturalari mavjud bo‘ladi: / $\perp \perp -$ /, / $\perp - \perp -$ /, / $\perp - - \perp -$ /, / $\perp - - - \perp$ / va hokazo.

Aksentual qoliplar va ularning aksentual bo‘g‘in strukturalari so‘z hosil qilishning morfologik turi, so‘zdagi bo‘g‘inlar soni, so‘zdagi affiks va suffikslar va

<sup>90</sup>Торсев Г. П. Вопросы акцентологии современного английского языка. М., 1960. –Б. 52 — 61.

<sup>91</sup>A. C. Gimson. A Practical Course of English Pronunciation. London, 1975, -Б. 33 — 43.

<sup>92</sup> Yi-Chen Fu. The Phonemic Structure of English Words. Taipei, Taiwan, 1960, -Б. 152— 160.

asosning semantik vazni va boshqa so‘z aksentuatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillar va tendensiyalar orqali aniqlanadi.<sup>93</sup>

Ayni paytgacha o‘zbek tilida hali hech bir tilshunos aksentual bo‘g‘in qoliplarini tilimizga tadbiq qilmagan. Buning asosiy sababi, urg‘u darajalarining ingliz tiliga nisbatan o‘ta muhim ahamiyatga ega emasligi va murakkablik darajasining pastligidir. Ya’ni urg‘uning oxirgi bo‘g‘inga tushmay qolishi faqatgina alohida holatlarda, lug‘atimizda mavjud barcha so‘zlarga nisbatan kam sonli so‘zlarda kuzatiladi. Asosan rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘tgan asrda o‘zbek tili leksik urg‘usiga sezilarli ta’sir qilgan bo‘lsa, mustaqillik yillaridan beri ularning soni tobora kamayib bormoqda.

Aksentual qolip va ularning bo‘g‘in strukturalari mavjud qarashlarni yanada soddalashtirishga yordam beradi. Shuni inobatga olgan holda, istisno tariqasida o‘zbek tilida ham sodda shakldagi urg‘u va bo‘g‘in asosidagi qoliplarni yaratish foydadan xoli emas deb o‘ylaymiz. Urg‘u darajalaridan ikkinchi darajali urg‘u o‘zbek tilida ingliz tiliga nisbatan katta ahamiyatga ega emas. Shuning uchun o‘zbek tili aksentual modelida uni qo‘llashga yetarli asos yo‘q degan fikrdaman. Demak, faqatgina ikkita urg‘uli (bosh urg‘uli)  $\perp$  va urg‘usiz (urg‘u olmagan) — bo‘g‘inlar doirasiqoliplarni hosil qilamiz. Har qanday so‘zda faqatgina bittadan bosh urg‘u bo‘lishini hisobga oladigan bo‘lsak, qoliplarni bosh urg‘uning o‘rni orqali tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi aksentual qolipda uchta bosh urg‘u birinchi bog‘inda joylashadi urg‘u olmagan bo‘g‘inlar soni affiksatsiya jarayonida ortib borishi mumkin ( $/\perp-$  ... /): ammo, aslo,  $/\perp-$  /, atayin, har qaysi  $/\perp--$  /, allanima, allanarsa  $/\perp---$  /.

Ikkinchi aksentual qolipda urg‘u demak ikkinchi bog‘inda bo‘ladi va undan oldin bitta urg‘usiz bo‘g‘in mavjud bo‘ladi: kitob, daftар  $/-\perp$  /, albatta  $/-\perp-$  /, Ne’matova  $/-\perp--$  /.

---

<sup>93</sup>Abduazizov A. Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.—B. 141.

Uchinchi aksentual qolipda esa urg‘u bo‘g‘in uchinchisidir: bedana /— — ⊥/ akademik(olim), monitoring /— — ⊥ — /, Sotvoldiyeva /— — ⊥ — —/.

Yuqorida keltirilgan so‘zlarning barchasi faqat o‘zakdan tashkil topgan bo‘lib, qo‘shimchalar qo‘shish orqali yanada chuqurroq tajribalar orqali ushbu modellarni yanada takomillashtirish va boyitish mumkin.

### **2.3. So‘z urg‘usining vazifalari. So‘z urg‘usi stilistik vosita sifatida**

Tilda har qanday lisoniy hodisa o‘zining alohida funksiyasiga ega bo‘lib, bunday vazifani boshqa bir til hodisasi yordamida ifodalash mumkin emas. Leksik urg‘u ingliz va o‘zbek tillarida o‘xhash va farqli bo‘lgan bir nechta funksional xususiyatlarga egadir. Biz ta’kidlab o‘tdikki, urg‘u so‘zning hosil qiluvchi belgilaridan biridir. Har qanday so‘z bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli yoki ko‘p bo‘g‘inli bo‘lishidan qat’iy nazar, u, albatta, o‘zining urg‘usiga ega bo‘ladi. Urg‘uning xosil qilish funksiyasi so‘zlarni fonetik jihatdan shakllantiradi, ya’ni hajm, zarb va tovushning asosiy toni yordamida urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni artikulyatsion vositalar yordamida tovush ketma ketligida birlashtiradi. So‘zning aksentual-ritmik strukturasi bo‘g‘in strukturasi, fonemalarning bog‘lanishi asosida hosil bo‘ladigan so‘zning fonemik strukturasi va fonetik strukturasining tarkibiy elementi hisoblanadi. So‘z fonetik strukturasining bu uch komponenti aksentual ritmik struktura doirasida birlashadi, natijada semantik va lingvistik birlik sifatida qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘z xosil bo‘ladi. J. Laverning fikricha leksik urg‘u kulminativ funksiyaga egadir: u so‘zning asosiy xossasi sifatida tinglovchiga

so‘zlovchi tomonidan aytilgan jumladagi qancha alohida so‘z aytilanini mulohaza qilib ko‘rishga imkoniyat yaratadi.<sup>94</sup>

So‘z urg‘usi prosodik yoki supersegment birlik sifatida fonologik ya’ni farqlovchi funksiyaga ega, ya’ni urg‘uning o‘rni va darajasi so‘zlar va ularning grammatik shakllarini farqlay oladi. So‘z urg‘usining farqlovchi funksiyasi leksik va morfologik aspektlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar urg‘uning o‘rni yoki darajasi grammatik shakllarni (so‘z turkumlari yoki morfemalar) bir-biridan farqlay olsa, u holda bunday urg‘u morfologik funksiyani bajaruvchi grammatik urg‘u deb ataladi. Grammatik urg‘uning ikki turi mavjud: 1) morfologik va 2) demarkative (chegaralovchi). Urg‘uning o‘rni yordamida morfologik kategoriyalar (so‘z turkumlari va morfemalar) bir-biridan farqlovchi morfologik urg‘u o‘zbek va ingliz tillarida mavjuddir: *present /'prez(ə)nt/ (ot)*, *present /pri'zent/ (fe'l)*; o‘zbek tilida *olmá (ot)*, *ólma* (bo‘lishsiz buyruq maylidagi fe'l).

Demarkativ(chegaralovchi) urg‘u chegara yoki signal sifatida xizmat qiladi. Masalan polyak tilida so‘zning oxiridan ikkinchi bo‘g‘iniga urg‘u tushadi. Shuning uchun ham so‘z urg‘usining farqlovchi funksiyasi bir vaqtning o‘zida ham leksik, ham grammatik vazifani bajaradi.

Farqlovchi funksiya so‘z urg‘usini alohida, supersegmental, prosodik va fonologik birlikka aylantiradi, bunday birlik ichki va funksional lingvistik atamashunoslik bo‘yicha V.A.Vasilyev tomonidan so‘z aksentemasi deb nomlangan.<sup>95</sup> Erkin urg‘uga ega tildagi bir nechta so‘z aksentemalari oxirgisining farqlash darajasi soni bilan aniqlanadi.

Ingliz tilida bosh va kuchsiz so‘z aksentemalari faqatgina so‘zlarni bir-biridan farqlash funksiyasini bajaradi: *contest /'kɒntest/(ot(tortishuv))* - to contest /kən'test/(fe'l(tortishmoq)), *absent /'æbs(ə)nt/ (sifat(kelmagan))* - to absent /æb'sent/ (fe'l (bormaslik)). Orfografik jihatdan aynan bir xil faqatgina so‘z urg‘usining o‘rni orqali ot yoki fe'l so‘z turkumiga mansubligi aniqlanadigan so‘zlar quyidagilardir. Urg‘u oxirgi bo‘g‘inda bo‘lsa, bu so‘zfe'l so‘z turkumiga,

<sup>94</sup>Laver J. Principles of Phonetics: Cambridge: Cambridge University Press, 1995. –B. 517.

<sup>95</sup>Vassilyev, V. A. English Phonetics: A theoretical course. – Moscow: Higher. School Publishing House, 1970. -B. 30-33.

urg‘u oxiridan oldingi bo‘g‘inlarda bo‘lsa bu so‘z ot yoki sifat so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Ingliz tilida bunday urg‘u yordamida aniqlanadigan fe’l va otlar juftligi 131 tani tashkil etadi.<sup>96</sup> Shu o‘rinda nafaqat ot va fe’l ba’zan ot, fe’l va sifat yuqoridagidek turli juftliklarni hosil qilishi mumkin. Shubhasiz biz yana bu holatda leksik urg‘uga murojaat qilamiz.

Fe’l	Ot	Sifat
absTRACT	ABstract	ABstract
freQUENT	—	FREquent
preSENT	PREsent	PREsent
perFECT	—	PERfect
susPECT	SUspect	SUspect

Urg‘u yordamida farqlanadigan so‘zlarda ko‘pincha ot va sifat bir xil o‘rinda urg‘uni qabul qiladi.

Birinchi tarkibiy qismi bosh urg‘u olgan, ikkinchi elementi esa uchinchi darajali urg‘uga ega qo‘shma so‘zlar erkin so‘zbirikuvidan bosh urg‘uni uchinchi darajali urg‘uga qarama-qarshi qo‘yish orqali farqlanadi: a blue bird – a blue bird, a glass house— a glass house, a black board— a black board. Bu kabi kam sonli juftliklar orqali biz so‘z va gap urg‘usi o‘rtasidagi farqlarni aniqlashtirishimiz mumkin va oxirgi holatga ko‘ra biz so‘zdagi urg‘uning so‘zni chegaralash funksiyasidan xabardor bo‘lishimiz mumkin.

Ko‘pgina sabablarga ko‘ra, so‘z urg‘usi birinchi va ikkinchi bo‘g‘indagi urg‘u darajalari o‘rtasidagi farqning doimiy emasligi sababli chegaralash funksiyasini bajara olmay qoladi. O‘zbek tilida bosh urg‘u so‘zning chegarasini ifodalaydi va keyingi so‘z odatda kuchsiz urg‘u bilan boshlanadi. Odatda urg‘uning paydo bo‘lishi o‘zbek tilida so‘zning nihoyasiga yetganini anglatib nutqda payqash mumkin bo‘lgan pauzaga sabab bo‘ladi. Shuning uchun o‘zbek va rus tillarida so‘z urg‘usi chegarani aniqlash funksiyasiga ega. Urg‘uning boshlanishi ingliz tilidagi so‘zlarda ulardagi morfologik struktura orqali aniqlanadi.

---

<sup>96</sup>Robert S, Minkova D. English Words. History and Structure. –Cambridge.: Cambridge University Press, 2001. – B. 172.

Urg‘uning boshlanishi so‘zning yoki morfemaning boshlanishini tinglovchi uchun belgilab beruvchi ilk undosh yoki undosh bog‘lамини kuchaytiradi. Bu jarayon quyidagi so‘zlarda osonlikcha ko‘zga tashlanadi: selfish, 'shell—, fish va , self—'interest, 'shelf- ice ; the 'street, , two 'streets, 'Bay street va , this 'treat; 'race—track va , last 'rack, 'test run. Keltirilgan har bir jumlalar komplektida bo‘g‘inlar o‘rtasidagi undoshlar ketma-ketligi bir xil, ammo morfologik struktura orqali aniqlangan urg‘u boshlanishi tufayli o‘zgaradi. Bundan tashqari, shunday turdagи so‘z chegarasi signal berishiga bir necha holatlar mavjud bo‘lib qachonki urg‘u holatidagi allofonlar quyidagicha kichik juftlikda a'name /ə'neɪm/ — an 'aim /ən'eɪm/ va morfema bo‘linishining prosodik signalini tasvirlash uchun xizmat qiluvchi undoshlarning kuchli allofonlari juftligi buy 'tin /baɪ'tɪn/— bite in /baɪt'ɪn/ va boshqalarda sodir bo‘ladi. Shuning uchun, chegaralash funksiyasi prosodik belgilar asosidagi bo‘g‘in va morfologik chegaralar yordamida aniqlanadi.

Ingliz tilida so‘z urg‘usi morfologik aspektga ega bo‘lib, u odatda so‘z urg‘usi morfonologik funksiyasining yoki urg‘u ketma-ketligining grammatic funksiyasi sifatida ma’lum. Ingliz tilidagi erkin so‘z urg‘usi uning turli yasama so‘zlarda o‘z o‘rni va darajasini o‘zgartirishi va turlicha grammatic (morfologik) kategoriyalarni ifodalashi bilan belgilanadi: diplomat ['dɪpləmæt]—diplomacy [dr'pləʊməsi]—diplomatic [.dɪplə'mætɪk], mechanic [mɪ'kænɪk]—mechanician [.mækə'nɪʃən], diagnostic [.daɪəg'nɒstɪk]—diagnostician [.daɪəgnɒs'tɪʃən], history ['histəri]—historian [hi'stɔ:rɪən], custody ['kʌstədɪ]—custodian [kʌ'stəʊdiən], placid ['plæsɪd]—placidity [plæ'sɪdɪtɪ], plural ['pluərəl]—plurality [pluə'rælɪtɪ].

Keltirilgan misollar urg‘u ketma-ketligidan tashqari morfologik pozitsiyasi bilan aniqlab bo‘lmaydigan fonemik ketma-ketlikka ham misol bo‘la oladi. Har ikkala fonemik(segmental), prosodik(supersegmental) ketma-ketlik tilshunoslikning fonologiya va morfologiya o‘rtasidagi maxsus daraja hisoblanmish morfonologiya tomonidan o‘rganiladi. So‘z urg‘usining morfonologik funksiyasi uning farqlash(fonologik) funksiyasi bilan o‘zaro aloqadorlikdadir, sababi ingliz tilidagi so‘z yasalishi so‘zlarning semantik

aniqloviga hissa qo'shuvchi urg'u ketma-ketligiga (fonemik ketma-ketligiga) asoslanadi.

So'z urg'usining bunday funksiyasi fonologik birlik sifatida so'z aksentemasi to'g'ri semantik aniqlov sari olib boruvchi vazifasi bo'lib, u tanituvchi deb ataladi. So'zning nato'g'ri aksentuatsiyasi uning semantik funksiyasini buzadi. So'z urg'usining tanituvchi funksiyasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhimdir. So'z urg'usining barcha funksiyalari bir-biri bilan yaqin aloqadorlikda bo'lib, nato'g'ri urg'ulantirish(so'z urg'usi o'rni yoki darajasini xato tadbiq qilish) funksiyalarni buzadi va natijada tushunarsiz nutq va aloqa hosil bo'ladi. Bunday hodisa asosan tillarning turli aksentual qolipga ega bo'lganligi sababli paydo bo'ladi. Shuning uchun ingliz tilidagi har bir so'zning aksentual qolipi alohida ohang(tovushning asosiy toni) tartibi asosida tushuntirilishi lozim. Masalan, educational so'zi uch ohang ketma-ketligidan iborat: /ɛdʒu'/—ohang oldi, /keɪ/—ohangdor bo'g'in, /ʃən(ə)l/—ohang orti; 'purify so'zida ohangdor bo'g'in /'pjʊə/ va ohang orti tartibi /rɪ\_fəɪ/ mayjud, internationalization so'zida beshta /ɪ<sup>5</sup> n\_tə<sup>4</sup>næ<sup>3</sup> n<sup>2</sup>əla<sup>1</sup>ɪ/ ohangdor bo'g'in /zeɪ/ va ohang orti /ʃən/. Ohangdor bo'g'in va bosh urg'u o'rni odatda bir joyda bo'ladi.

Stilistika so'zi bu stil so'zi bilan bog'liq bo'lib, lotincha uchi ingichka yozuv tayoqchasi so'zidan kelib chiqqan. Stil so'zi aslida til elementlarining ma'lum funksiya bajarishiga bog'liq holda birlashadigan, til birliklarining o'ziga xos tanlanishi, birikishi va shu kabilar bilan xarakterlanadigan sistemalardir. Stil til vositalarining ekspressiv-stilistik belgi asosida tanlanishi ; nutqning so'z qo'llash va sintaksis normalariga mos holda tuzilishidir.<sup>97</sup> Demak, stilistika tilshunoslikning turli stillarini o'rganuvchi sohasi, ya'ni tilning tasviriy vositalari va ularning qo'llanish doiralari haqidagi ta'limotdir.

Insonning til orqali fikr va his-tuyg'ularini ifodalashi tilning tafakkur bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Fonetik usullar orqali har bir individual o'zining emotsiyasini bildira olishi mumkin. Aynan ushbu holatni fonostilistika deb nomlangan tilshunoslikning bir sohasi o'rganadi. Fonostilistika — stilistikaning

<sup>97</sup> Xodjiyev A. Tilshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent. O'qituvchi.: 1985. –B. 80.

so‘z va so‘z birikmalari talaffuz variantlarining ekspressiv xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi.<sup>98</sup> Boshqa so‘z bilan aytganda, nutq tovushlaridagi emotSIONallik, ta’sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, ularning badiiy qo‘llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikaning o‘rganish obyektiidir.

Leksik urg‘u yuqorida keltirilgan vazifalaridan tashqari stilistik vosita sifatida ham qo‘llanishi mumkin. Ya’ni urg‘u orqali nafaqat so‘zning muayyan bir bo‘g‘inini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin, bunga qo‘s Shimcha ravishda so‘zdagi ma’noni yanada intensivligini oshirish maqsadida ham qo‘llash mumkin. O‘zbek tilida urg‘uli bo‘g‘indagi unlini kuchli talaffuz qilish ma’noni kuchaytirishda ikki holat bor:

1) Urg‘uli unli kuchliroq talaffuz qilinadi:

*Bo‘ston dahlizdagи lip-lip qilib turgan chiroqning yorug‘ida dag‘ál qo‘llarini erinmay sochiqqa artardi.*(**Chingiz Aytmatov**),

*Uning yonida kalta baqay, yo‘g‘ón dumini tagiga bosib, xuddi toshdan yo‘nalgan sanamday bo‘lib serka Akbara chayir qo‘llarini yerga mahkam tiragancha uzala tushgan.*(**Chingiz Aytmatov**),

*Surma qo‘ygandek ohu ko‘zi, qizil olmadek taráng yuzi bor.*(**Abdulla Qodiri**),

*Xoldor ravotga tutásh qurilgan shiypon ostida Supersur mashinasini kavlashtirayotganini ko‘rib.*(**Anvar Obidjon**).

2) Urg‘u odatiy normalarni rad etgan holda boshqa bo‘g‘inga ko‘chiriladi va shu bo‘g‘inda unli kuchli talaffuz etiladi:

*Unga yángi ko‘ylak, qishki kurtka, biror etik va yana bir adeyal ham lozim.*(**Ernest Hemingvey**),

*Nega Zaynab semizu Kumush ózg‘in?!*(**Abdulla Qodiri**),

*Safarali yelkasiga chiqqan jíkkak yigit emasmi taqsir?*(**Abdulla Qodiri**),

*Unsin bir to‘xtadi-yu, choynakni íkkala qo‘li bilan bag‘riga bosib, darmoni yetkuncha jadalladi.*(**Abdulla Qahhor**),

*Kenja xotini qáttiq shamollahdan betob yotgani sababli olti oylik o‘gli Bekxo‘ja bilan shaharda qolip ketdi.* (**Anvar Obidjon**),

<sup>98</sup>Xodjiyev A. Tilshunoslik terminlari lug’ati. Toshkent. O’qituvchi.: 1985. –B. 103.

*Endi shu daqiqadan boshlab kishilarning áchchiq tazyiqlarni va menga nafrat bilan qarashlarini butun vujudim bilan his qila boshladim. (Chingiz Aytmatov), Chol uyqusini qochirish uchun piyolaga qáynoq choy quyayotgan vaqtda. (Anvar Obidjon),*

*... ular bunaqa paytda sálqin joyni topvolishib, muzdek limonad ichib o'tirishadi. (Anvar Obidjon),*

*Avtobola dágal borib soyga kalla tashladi. (Anvar Obidjon),*

*Ko'rshapalak seyfni inqillagancha zó'rg'a engashtirib, ichidagi narsalarni ag'dardi. (Anvar Obidjon)*

Urg‘uni bo‘g‘inga ko‘chirish va shu bo‘gindagi kuchli talaffuz orqali ma’noni kuchaytirishda urg‘u har qanday so‘zda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xohlagan bo‘g‘inga ko‘chirilavermaydi. Urg‘uning aynan bir boshqa bir bo‘g‘inga ko‘chishi fonetik sharoitlar bilan bog‘liqdir.

Hozirgi zamon o‘zbek tili dalillarining ko‘rsatishicha, qo‘sh undoshli so‘zlarda urg‘u shu qo‘sh undosh oldidagi unliga ko‘chiriladi va shu unlini kuchli talaffuz etish orqali ma’no kuchaytiriladi: oppoq qor, lallayib yuraverasanmi, qalloplik qilmoq, jikkakkina bola.

Ayrim qo‘sh undoshlardan oldingi so‘zlarda urg‘u aslida qo‘sh undoshdan oldingi unliga bo‘ladi va shu unlini kuchli talaffuz etilishi bilan ma’no kuchaytiriladi. Demak bunday hodisani urg‘uni ko‘chirish va urg‘u ko‘chirilgan bo‘g‘indagi unlini talaffuz etish orqali ma’no kuchaytirish hodisasi bilan aralashtirmaslik lozim.

Ham sifat, ham ravish vazifasini bajaruvchi so‘zlar orqali quyidagicha ma’noni kuchaytirish mumkin. To‘g‘ri so‘zi ravish bo‘lsa urg‘u birinchi bo‘g‘in bo‘lib, shu bo‘g‘indagi unlini kuchli talaffuz etilishi bilan ma’no kuchaytiriladi. To‘g‘ri so‘zi sifat bo‘lsa urg‘u uning oxirgi bo‘g‘inida, bu so‘z bildirgan belgini urg‘uni oldingi bo‘g‘inga ko‘chirish va shu bo‘g‘indagi unlini kuchli talaffuz etish bilan bo‘ladi.

Urg‘uning o‘rnini o‘zgartirishiga turli lisoniy hodisalar ta’sir ko‘rsatadi, ularidan biri geminatsiya hodisadir. Geminatsiya ikki aynan bir xil undoshli

holatning yuzaga kelishi.<sup>99</sup> Bir xil undoshlarning qavatlanishi paytida urg‘u qo‘sh undosh oldidagi unliga ko‘chadi va shu unli kuchli talaffuz qilinadi:  
*lallayib, tinniq, mazza, teppaga.*

*Bir vaqt lállayganicha suzib kep qoldi. (Anvar Obidjon)*

*Og‘izlarida qultillatib o‘ynab, mázza qilib, to‘yib-to‘yib ichishardi. (Chingiz Aytmatov),*

Ma’lumki, hozirgi zamon o‘zbek tilidagi qo‘sh undoshli (qattiq, achchiq) so‘zlarining ko‘plari tarixan qo‘sh undoshli bo‘lmagan: qatig‘, achig‘. O‘zbek tilidagi faktlarning ko‘rsatilishicha, ma’lum so‘zlardagi qo‘sh undoshlar ma‘noni kuchaytirish talabi bilan yuzaga kelgan.

Belgini bildiruvchi ayrim so‘zlarda fonetik usul bilan ma‘noni kuchaytirishning yuqoridagi ikki yo‘lini ham ko‘rishimiz mumkin. Bunday so‘zlar orqali predmet yoki harakatning belgisi davomlilik, uzunlik (vaqt yoki masofaga nisbatan) yoki boshqa jihatdan ham xarakterlanishi mumkin: birpas kut-birpa:as jim o‘tir, har zamonda baland binolar ko‘rinadi-har zamo:onda bir gapirib qo‘yadi. Albatta bu usul bilan ma‘noni kuchaytirish mumkinligini (ma‘noni kuchayish sababini) sezish va isbotlash qiyin emas. Chunonchi, kuchli talaffuz ma‘nodagi intensivlikni oshirish demakdir. Ortiqlik va kuchlilik, orttirish va kuchaytirish tushunchalari o‘rtasida umumiylit mavjuddir. Intensifikatsiyaning qaysi usulidan foydalanish esa kuchaytirishning qaysi nuqtai nazardan bo‘lishiga bog‘liqdir.

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda ma‘noni kuchaytirish asosan urg‘uli unli orqali amalga oshiriladi: *Xomu:ush o‘tiribdi. Ahyo:onda bir yomg‘ir yog‘adi. Zo ‘o‘rg‘a uyga yetib oldim.* Demak, unlining cho‘ziqligi emotsiyani kuchaytiradi.

Avval ham ta’kidlab o‘tilganidek, o‘zbek tilidagi urg‘uni aynan dinamik deb atash biroz mujmal bo‘lib qolmoqda. Sababi, yuqorida keltirilgan misollarning aksariyatida urg‘u zarbdan ko‘ra cho‘ziqlilik va davomiylit omillariga tayanmoqda. Demak, ularning ko‘pini kvantitativ urg‘uning yaqqol ko‘rinishi deb aytsak bo‘ladi. Bundan tashqari, tovushlardagi cho‘ziqlilik haqida gap ketganda undoshlarda ham xuddi unlilar kabi xususiyat ham ko‘zga tashlanadi. Masalan,

<sup>99</sup> Xodjiyev A. Tilshunoslik terminlari lug’ati. Toshkent. O‘qituvchi.: 1985. –B. 28.

yuqorida geminatsiya hodisasini yoritishda foydalanilgan mazza (maza so‘zidan xosil qilingan) so‘zidagi birinchi bo‘g‘indagi z tovushida cho‘ziqlilik kuzatiladi. Ya’ni bu tovush maza so‘zidagi z tovushidan uzunroq davomiylikka egadir.

Ingliz tilida ham urg‘u ma’noga ta’sir qilishi, ya’ni intensifikatsion vosita bo‘la olishi mumkin. Ifodali (ekspressiv) prosodiya, albatta, odatdagi tizimlashtirilgan morfemalerdan tubdan farq qiladi. Ifodali (ekspressiv) urg‘uning birinchi vazifasi bu taqqoslashdir, ya’ni ifodalananayotgan predmetni ehtimoliy boshqa bir predmet bilan taqqoslashdir: *He wants to buy the latest book of Hemingway*. (U Hemingveyning eng so‘ngi kitobini sotib olmoqchi.) So‘zlovchi Hemingveyning birinchi yoki ikkinchimas aynan eng so‘ngi kitobini sotib olish istagini bildirmoqda. Fonetik jihatdan qiyosiy ifodali urg‘u alohida artikulyatsion energiya bilan hosil qilinadi va asosan gapning oxirgi qismlaridagi yuqori darajadagi urg‘uga ega so‘zda kuzatiladigan gap intonatsiyasi bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Bundan tashqari so‘roq ohangi gapdagi qiyosiy urg‘uga ega so‘zda ifodalanishi mumkin. normal so‘roq gaplarda aslida ohang oxirgi so‘zda bo‘ladi: *Shall I hand him a sheet of paper?* Lekin ekspressiv urg‘uga ega yellow so‘zi qo‘shilganda *Shall I hand him the yellow paper?* Demak, qiyosiy ifodali urg‘u nafaqat so‘zdagi artikulyatsion o‘zgarishga, balki gap ohangiga ham sezilarli ta’sir qiladi. Qiyosiy ifodali urg‘u normal nutqda har doim ham ifodalash qiyin bo‘lgan g‘azablanish, qarshi ma’no, achchiqlanish kabi farqlarni nutq tempini urg‘uli so‘zda pasaytirish orqali ifodalaydi.

Urg‘uning yana bir turi bu ritorik aksentema deb ataladi. Urg‘uning bu turi unlining kvantitativ (miqdoriy) xususiyati bilan belgilanadi. Masalan *He lives in a large room*. Odatiy gaplarda large so‘zi alohida zarb va ohang bilan ajratilmaydi. Albatta, qiyosiy urg‘u kabi u ham ma’no u ham ma’no darajalanishining manbai bo‘lib, cho‘ziqlikning oshirilishi va intensivlikning ko‘tarilishi hayratlanish, ajablanish va turli bilinar-bilinmas va noodatiy mavhumliklarni ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan misollarni grammatik normalar asosida ifodalab bo‘lmaydi. Ekspressiv (ifodali) urg‘ular hech qanday artikulyatsion zarb vositasi bilan chegaralanmagan. Masalan, unlining miqdoriy ko’rsatkichi ritorik urg‘uda

odatdagidan uch yoki to‘rt barobar cho‘ziqroq bo‘ladi.<sup>100</sup> Shunga qaramay faqatgina cho‘ziqlilik mustaqil xususiyat emas, albatta.

Odatda ba’zilar ekspressiv urg‘u va mantiqiy urg‘uni bir hodisa deb tushunadilar. Aslida esa unday emas. Sababi mantiqiy urg‘u orqali ham gapdagi alohida bir gap bo‘lagi ajratib aytildi, lekin bu jarayonda so‘zning ma’no tomoni ta’kidlanadi. Ekspressiv urg‘u esa ma’noga qo‘sishimcha ravishda so‘zlovchining his-hayajonini, voqelikka bo’lgan subyektiv munosabatini (achchiqlanish, ma’qullash, xayartlanish, ajablanish, kinoya) ifodalaydi.

Leksik urg‘uning yana bir vazifasi bu ingliz tilida she’riy ritmni (Iambik ritmni) hosil qilishidir. Ingliz tili she’riyati ritmik qoliplarga asoslanadi. Bu kabi qoliplar deyarli barcha so’zlarda mavjud. Ritm avval ham ta’kidlab o’tganimizdek, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar ketma-ketligi orqali ifodalanadi. She’riyatda urg‘u so‘zning biror bo‘g‘inini ritmning bir qismi sifatida alohida ajratib aytishdir.<sup>101</sup> Chunonchi, iambik ritm stilistik vosita bo‘lib bu urg‘usiz bo‘g‘inning urg‘uli bo‘g‘in bilan qoplanishidir. (—’—).

Shook down on me,

The dust of snow

From a hemlock tree. (Robert Frost)<sup>102</sup>

Yuqorida eslatib o’tganimizdek, hech qanday bir lisoniy hodisa o‘z –o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Urg‘uning ahamiyatini uning birgina farqlash xususiyati ham belgilab berishi mumkin. Albatta, o‘zbek tili urg‘u bilan farqlanadigan omonimlar soni cheklangan, ingliz tilida esa ularning soni talaygina. Kontekstdan tashqarida bunday so‘zlarni turkumlarga ajratish va ma’noni to‘g‘ri nazorat qilish faqatgina urg‘u hodisasi yordamida amalga oshiriladi. Leksik urg‘uning yuqorida keltirilgan funksiyalarini inobatga oladigan bo‘lsak, uning nafaqat normal nutqda balki badiiy nutqda ham, stilistikada ham tutgan o‘rni beqiyosdir. Guvohi bo‘lganimizdek, urg‘u har ikkala tilda ham so‘zdagi va bir vaqtning o‘zida gapdagi ma’noga va

<sup>100</sup> Stanley S. On the Stress System of English.// WORD. Volume 2. Number 3. Mexico city. 1946. –B 171-174.

<sup>101</sup> Dauda M.E. Literary stylistics. National Open University of Nigeria. 2013. –B. 70.

<sup>102</sup> www.google.com// Stylistic devices.

intonatsiyaga ta'siri kuchlidir. Urg'uli bo'g'inlar gaplarda alohida bo'g'inni, so'zni va alohida ahamiyatga ega bo'lgan so'zni ajratib ko'rsata oladi.

Demak, urg'uli tillarda nutq jarayoni so'zlar zanjiri shubhasiz urg'u orqali shakllantiriladi. Agar ingliz tilidagi va o'zbek tilidagi leksik urg'u tamoman olib tashlansa, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar hisobiga shakllanadigan ritm ham yuqoladi natijada nutqda so'zlarni ajratib olish va ma'nolarni farqlash, konotativ ma'noni farqlashning imkoniyati butunlay yuqoladi, she'riyatdagi qofiyalanishga putur yetadi.

### **3-bob. So'z urg'usiga doir lingvodidaktik masalalar**

#### **3.1. Ingliz tilini o'rganuvchi o'zbek talabalarida so'z urg'usi ko'nikmalarini shakllantirishning afzalliklari**


Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Yangi va zamonaviy maktab kollejlar va bilim yurtlari qurildi va ular zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi. Shunga qaramay, hali bu sohadagi islohotlar o'z nihoyasiga yetgani yo'q, albatta. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday fikr bildirdilar „Zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q.”<sup>103</sup> Demak, ta'limda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar yetarlicha bo'lib ular hamon yechimini kutmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitish sohasida ham doimiy ko'zga tashlanib turadigan mummolarning aksariyati fonetika, xususan, leksik urg'uni qo'llash bilan bog'liqidir. Ingliz tilida so'z urg'usi 90 foizdan ortiqroq so'zlarning talaffuz va

<sup>103</sup>Шавкат Мирзиёев. Танкидий Тахлил, Қатъий Тартиб-Интизом Ва Шахсий Жавобгарлик – Хар Бир Раҳбар Фаолиятининг Кундалик Коидаси Бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –В. 45.

ularning sintaktik, semantik jihatdan to‘g‘ri ekanligini belgilab beradigan vosita hisoblanadi.<sup>104</sup> Tillar o‘rtasidagi o‘zaro lisoniy farqlar talabalarning ingliz tilidagi leksik urg‘uning nato‘g‘ri tadbiq qilishlariga olib keladi. Shuning uchun o‘zbek talabalari ko‘pincha ingliz tilidagi so‘zlarni aytayotib bosh urg‘uni oxirgi bo‘g‘inda qo‘llaydilar. Bunday xatolikni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki bu holat o‘zaro aloqaga (kommunikatsion jarayonga) putur yetkazib, noaniqlik sari yetaklaydi. Shuning uchun ham o‘zbek talabalariga, shuningdek, ona tilisi urg‘u aspektida ingliz tilidan farqli bo‘lgan til o‘rganuvchilarga leksik urg‘uni o‘rgatish muhimdir.

So‘z urg‘usining til o‘rganishdagi va o‘qitishdagi ahamiyati hamda uning dolzarbligini isbotlash, tadqiqotning amaliy va nazariy ahamiyatini oshirish maqsadida Farg‘ona davlat universiteti talabalari o‘rtasida so‘rovnoma shaklidagi eksperiment o‘tkazildi. Ushbu jarayonda universitetning Chet tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishida tahsil olayotgan, bakalavr bosqichidagi birinchi kursdan to‘rtinchı kursga qadar, har bir bosqich talabalaridan 50tadan 200 nafar ixtiyoriy vakil ishtirok etdi.



Ko‘rib turganingizdek, qatnashuvchilarning aksariyatini qizlar tashkil etadi.

---

<sup>104</sup> Moinzadeh A. Teaching Word Stress Patterns Of English Using A Musically-simulated Technique // Journal of Language Studies. 2012. Volume 12. –B. 522.


So‘rovnomani o‘tkazishdan avval ingliz tilidagi urg‘uning umumiy va alohida xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi 16 ta so‘z tanlab olindi. Ushbu so‘zlarni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Tovushlarning turli jihatlari (unlining cho‘ziq yoki qisqaligi, monoftong yoki diftongligi), qaysi so‘z tarkumiga mansub ekanligi, bo‘g‘inlar soni va undoshlar ketma-ketligiga asoslanib belgilanadigan leksik urg‘uni aks ettiruvchi so‘zlar (**open, attract, entertain, abstract, fairytale**);
2. Qo‘shma so‘z va so‘z birikmalarida qo‘llaniladigan so‘z urg‘usiga doir so‘zlar(**screwdriver, orange juice, Toshkent Circus, Oxford street**);
3. Britancha va amerikancha urg‘u normalaridagi tafovutni ko‘rsatib beruvchi so‘zlar(**vocal cords**);
4. Affiksatsiya jarayonining leksik urg‘uga ta’siri va o‘zgaruvchan va o‘zgarmas urg‘uni yoritib beruvchi so‘zlar (**separatist, diplomat, diplomacy, wonder, wonderful** ) tanlab olindi.

Tajribaning asosiy maqsadi avvalambor talabalarning urg‘u bo‘yicha turli so‘zlarda yo‘l qo‘yishlari mumkin bo‘lgan xatoliklarni va o‘z o‘rnida ularning ustun tomonlarini aniqlash. Har bir bosqichdagi talabalarning natijalarini o‘zaro taqqoslash va umumiyligi, xususiy xulosalarni tahlil qilish. Bundan tashqari so‘rovnomada talabalarning urg‘uni samarali o‘rganish va o‘rgatishga doir fikr va mulohazalari, takliflarini ham bildirib o‘tishlari nazarda tutilgan. Bu orqali bo‘lajak o‘qituvchi sifatida talabalarning metodik bilimlariga baho beriladi.


So‘rovnomaning adolatli mezonda o‘tkazish maqsadida so‘rovnomada o‘tkazish va tekshiruv jarayoni Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti D.G‘aniyeva va ikkinchi bosqich lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi magistranlari I.Qo‘chqorov, I.Jo‘rayev, N.Qurbanov tomonidan nazorat qilindi. So‘rovnomada ishtirok etayotgan talabalarning shaxsini tasdiqlash maqsadida ularning o‘zlari haqida qisqa ma’lumot berishlari, anketa yozilgan sanani belgilab qo‘yishlari va oxirida shaxsiy imzolarini qo‘yishlari belgilandi.

Yuqorida keltirilgan, dastlabki tovushning alohida xususiyatlari, so‘z turkumi, undoshlar ketma-ketligiga asoslanib topiladigan so‘z urg‘usi bo‘yicha natijalar quyidagicha:




Ko‘rib turganimizdek yuqori kurs vakillari boshlang‘ich kurs talabalariga qaraganda, yaxshiroq natijaga erishdilar. 4-kurs talabalari 71,6 % ko‘rsatkich bilan eng yuqori natijaga erishgan bo‘lsalar, ikkinchi kurs talabalari 52,8 % foizli natija bilan eng past natija ko‘rsatdilar. Qolgan birinchi va uchinchi bosqich talabalarining ham ushbu urg‘u normalari bo‘yicha bilim darajalarini yuqori deb bo‘lmaydi. Sababi ular ham o’rtacha 60 % ijobiy natijaga erisha oldilar xolos.

Ikkinci turkum o‘z ichiga qo‘shma so‘z va so‘z birikmalarini qamrab olgan bo‘lib, bunda talabalarning murakkab so‘zlardagi va so‘z birikmalaridagi urg‘uni aniqlay olish ko‘nikmasi tekshiriladi. Ushbu kategoriya bo‘yicha talabalarning natjalari quyidagicha:



Guvohi bo'lganimizdek, murakkab leksik urg'uni aniqlash talabalar uchun o'ta mushkul jarayondir. Garchi uchinchi bosqich talabalari 47,5 % ko'rsatkich bilan eng yuqori natijaga erishgan bo'lsalarda, qolgan uchinchi bosqich talabalari, deyarli yarmi so'z birikmasi va qo'shma so'zlarda qo'llaniladigan urg'udan bexabar ekanliklari aniqlandi. Birinchi va ikkinchi bosqich talabalarining har to'rttadan bittasi murakkab urg'uning o'rnini topa olgan xolos.


Uchinchi turkum so'zlar ketma-ketligi amerikancha va britancha ingliz tilida farqlanuvchi so'z urg'usini aniqlashga qaratilgan bo'lib talabalar quyidagicha natijaga erishdilar:



Shubhasiz, talabalarning amerikancha va britancha ingliz tilidagi urg'usi farqli bo'lgan so'zlar haqida yetarli ma'lumotga ega emasliklari kundek ravshan. Uchinchi bosqich talabalari eng yaxshi natija (31%) bilan ustunlik qigan bo'lsa


boshlang‘ich birinchi va ikkinchi kurs talabalari 23 % ko‘rsatkich bilan cheklandilar. Negadir bitiruvchi talabalarimizning natijalari xavas qilgudek emas, albatta. Ular yana bir bor uchinchi bosqich talabalaridan (4% farq bilan) orqada qolmoqdalar.

Nihoyat eng so‘nggi guruhga kiruvchi so‘zlar affiksatsiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bunda talabalarning qo‘sishchalar qo‘sish jarayonida o‘zgarmas va o‘zgaruvchan urg‘uni, ya’ni urg‘uga ta’sir qiluvchi va urg‘uga neytral bo‘lgan affikslarni ajrata olish ko‘nikmalari tekshirildi. Natijalarni quyidagi diagramma orqali bilib olamiz:



Ko‘rsatkich talabalarning tajribasiga asoslangan holda o‘sib bormoqda, bitiruvchi talabalarimizning pastroq natijalarini xisobga olmaganda, albatta. Eng quyi natija 37% ni tashkil etgan bo‘lsa (birinchi bosqich talabalari tomonidan), ikkinchi bosqich vakillarining natijalari biroz ijobiyroq (55,2 %). Bitiruvchilarimiz ushbu bosqichda avvalgilariga qaraganda yaxshiroq natija ko‘rsatgan bo‘lsalarda (52%), uchinchi bosqich talabalari yana bir bora eng yaxshi natija bilan qolgan bosqich vakillarini ortda qoldirdilar.

Demak, so‘rovnomanning umumiyligi natijalarini diagramma quyidagicha:



Birinchi va ikkinchi bosqich talabalarining natijalari deyarli bir xil (42,5 % va 42 %). Uchinchi bosqich talabalari esa 55 % ko‘rsatkich bilan 4,5%ga bitiruvchi kurs vakillaridan o‘zib ketdilar. Ma’lumot o‘rnida shuni ham eslatib o‘tish lozimki, eng past natija birinchi va ikkinchi kurs vakillari orasida aniqlangan bo‘lib ularning natijalari 0 % ni tashkil etadi, boshqa so‘z bilan aytganda ular berilgan 16ta so‘zdagi birorta urg‘u o‘rnini ham to‘g‘ri topa olmadilar. Eng yuqori natija ko‘rsatgan ikki talaba ikkinchi va to‘rtinchi bosqich vakillaridan bo‘lib, ularning natijalari 87 % ni tashkil etadi, ya’ni ular atigi ikkita so‘zdagi urg‘uning o‘rnini aniqlashda xatoga yo‘l qo‘yanlar.

Guvohi bo‘lganingizdek, har qaysi bosqich talabalarining leksik urg‘uni aniqlash ko‘nikmalarini qoniqarli deb baho berish qiyin. Albatta bu jarayonga turli omillar sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin:

- Birinchidan, ona tilimizdagи urg‘uning ta’siri. Bilasizki, o‘zbek tilidagi urg‘u turg‘un urg‘u va u deyarli har doim so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Shu sababli aksariyat talabalar ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning urg‘uli bog‘inini oxirgi bo‘g‘inda deb belgilashgan. Masalan, *separatist* so‘zidagi urg‘uni ko‘pgina talabalar eng oxirgi yoki undan oldingi bo‘g‘inda deb o‘ylashgan.
- Ikkinchidan, amaliy va nazariy fonetika va fonologiyaga ajratilgan o‘quv soatlari ham yetarli darajada emas deb o‘ylaymiz. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek ingliz tili leksik urg‘usi aniqlash eng murakkab

jarayonlardan bo‘lib, u nafaqat fonetika va fonologiya fanlarining bir qismi sifatida, balki morfologiya, leksikologiya va morfemikaning ham ajralmas qismi sifatida o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan leksikologiya fanida qo‘sishimchalarining semantik ta’siridan tashqari ularning so‘zga bo‘lgan fonetik va fonologik ta’sirlariga ham aniqlik kiritib o‘tish lozim bo‘ladi.

- Uchinchidan, universitetda talabalarimiz uchun yetarli darslik va qulayliklarning mavjud emasligidir. Kutubxonalarda ingliz tili fonetikasiga doir kitoblar, qolganlariga qaraganda kam miqdorda bo‘lib, ularning aksariyatini XX asr o‘rtasi va oxirlarida yaratilgan darsliklarni tashkil etadi. Zamonaviy ingliz tili fonetika va fonologiyasiga doir kitoblarni deyarli topib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, xorijiy tillar fakulteti binosidagi lingafon xonalar soni yetarli miqdorda emas, shuning uchun ular fonetika darslari jarayonida haqiqiy til materiallaridan qoniqarli darajada foydalana olmaydilar.

Demak, urg‘uni o‘rgatish va o‘rganish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina bo‘lib, ularning birontasini ham nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi va vaziyatga jiddiy, tanqidiy yondashuvni taqozo etadi.

Shunchaki nuqsonlarga ega bo‘lgan talaffuz chet tilini o‘rganuvchilarning nuqsonli prosodik va intonatsion malakasiga olib keladi. Bu esa o‘rganuvchiga ham tinglovchiga ham o‘zaro aloqada yoqimsiz vaziyatga sabab bo‘lishi mumkin. Chet tilini o‘qituvchi mutaxassislar oxirgi kunlarda bu fikrlarni inobatga olgan holda segment va supersegment birliklarni haqida tushunchani shakllantirishga e’tiborlarini qaratmoqdalar. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘rgatilayotgan tilning prosodiyasi va intonatsiyasi, prosodik va intonatsion yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolar va bunday xatoliklarning asosiy sabablarini bilishi lozim. Ba’zi holatlarda ingliz va o‘zbek tillari urg‘usi haqida gap borganda asosan urg‘uni o‘rnini tog‘ri topishga qaratilgan fikrlar ko‘zga tashlanadi. Ammo, xatoliklar urg‘uning o‘rnini to‘g‘ri topish bilan emas, urg‘uni to‘liq aks ettirishda ham

namoyon bo‘ladi. Agar urg‘u maromiga yetkazilmasa, tinglovchiga urg‘usiz bo‘lib tuyulishi mumkin. Demak, mutaxassislar ingliz tilidagi nuqson siz urg‘uni qanday hosil qilishni bilishlari va bunday ko‘nikmani talabalarda shakllantirishlari lozim.

Albatta, urg‘uni o‘rnini aniqlash o‘rganishning dastlabki bosqichlarida qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Shunga qaramay, chet tilining prosodiyasini o‘rganish yuzasidan olib borilgan kuzatuvlar darslarda urg‘uga alohida e’tibor berish lozimligini isbotladi. Chunonchi, eksperiment jarayonida aksariyat talabalar ingliz tili leksik urg‘usi haqida hech qanday ma’lumotga ega emasliklarini va fonetika va fonologiya darslariga ajratilgan soatlarni yanada ko‘paytirish lozimligini aytib o‘tishgan. Qiziqarlisi shuki, bu fikrga nafaqat birinchi va ikkinchi kurs vakillari, balki yuqori kurs talabalari ham qo‘shilishgan.

Fonemalar bir so‘zni boshqa bir so‘zdan farqlay olsa, urg‘u so‘zlarning ahamiyatini ham belgilab beradi. Birinchi bobda ham aytib o‘tganimizdek, urg‘uni hosil qiluvchi akustik belgilar hamma tilda ham bir xil emas. Masalan, mahalliy ingliz tilida so‘zlashuvchilar cho‘ziqlik, tovushning asosiy toni, zarb, yuqori chastotasidan ko‘pincha bir paytda foydalanadilar. Til o‘rganuvchilar esa ushbu omillardan ba’zan bir yoki ikkitasini qo‘llashlari sababli urg‘uning sifatiga putur yetadi. Aytaylik, o‘zbek talabalar ko‘proq zarbga e’tibor qaratib qolgan omilarni nazardan chetda qoldiradilar. Bu holat nafaqat urg‘uni hosil qilish, balki uni anglash jarayoniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yana bir bor eslatib o‘tamiz, so‘rovnomada talabalarning leksik urg‘uni samarali o‘qitish bo‘yicha o‘zlarining takliflarini ham berishlari nazarda tutilgan edi. Ular asosan quyidagilarni dars jarayoni uchun muhim deb hisoblashgan:

- ❖ Lug‘atlar bilan ko‘proq ishslash;
- ❖ Urg‘uga doir qoidalarni puxta o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq qilish;
- ❖ Audiolingval va kommunikativ metodlardan foydalanish;
- ❖ Ingliz tili urg‘usini boshqa tillar (o‘zbek tili, rus tili) bilan qiyoslash va solishtirish asosida o‘rganish;

❖ Asl nusxadagi til materiallaridan, shu qatori qo'shiqlar, filmlardan foydalanish;

❖ Interfaol usullar turli o'yin va qiziqarli mashg'ulotlarni tashkillash;

❖ Urg'uni semantika, morfologiya va leksikologiyaga bog'lagan holda o'rghanish;

❖ Urg'uni o'rghanishdan avval bo'g'in haqida tushunchani to'liq shakllantirish;

Ingliz tilini o'rghanuvchilar qachon ishonch bilan ravon so'zlay oladilar degan savolga javob topgandaymiz. Qachonki ular leksik urg'u haqida to'liqroq bilimga ega bo'lishganda, albatta. Sababi urg'u orqali talabalar nafaqat nutqni fonetik nuqtai nazardan balki, stilistik, semantik aspektda ham shakllantirib boradilar. Urg'u orqali so'z va gapdagi ohangni ritmni boshqarishni o'rghanadilar. Agar so'z urg'usi mavzusi chetlab o'tilsa, yoki leksik urg'uga doir darslar ko'ngildagidek tashkil etilmasa talabalar nutqida nuqsonlar paydo bo'lishi yoki mahalliy ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan aloqa jarayonida tushunmovchiliklarga sodir bo'lishi davom etaveradi.

### **3.2. Ingliz tili so'z urg'usini o'qitishning samarali metodlari**

So'z urg'usi ingliz tilidagi nutqning muhim elementi sifatida gap urg'usi va ritmni o'rghanishda oldin talabalar bilishi zarur bo'lgan lisoniy hodisadir. O'tkazilgan so'rovnama natijalari va yuqoridagi tilshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida ingliz tilida so'z urg'usining qay darajada murakkab hodisa ekanligiga ishonchimiz komil bo'ldi. Demakki, bunday leksik urg'uni o'qitish jarayoni ham oson kechmaydi. Faqatgina, aniq yo'naltirilgan samarali usullar orqali pedagoglar ijobiy natijalarga erishishi mumkin deb o'ylaymiz.

Qiyinchiliklarning asosiy sababi, aytib o‘tganimizdek ingliz tilidagi urg‘uning o‘ziga xos jihatlarining ko‘pligi, ya’ni uning o‘zgaruvchanligi, urg‘uga ta’sir qiluvchi omillar ko‘pligi, tilshunoslarning urg‘u normalariga nisbatan qarama-qarshi fikrlarining mavjudligi, nutqda o‘zbek tiliga nisbatan o‘z ahamiyatining ustunligi, uning boshqa til satihlari (morfologiya, leksikologiya, morfemika, etimologiya) bilan chambarchas bog‘liqligi, akustik va artikulyatsion belgilarining o‘ziga xosligi, darajalanish xossasining mavjudligidir. Til o‘rganuvchilar asosan qiyosiy aspektida tilni tahlil qilish orqali o‘zlashtirishlari oson kechadi. Afsuski, ingliz tilidagi urg‘uni o‘zbek tiliga taqqoslash mushkuldir.

Ingliz tilidagi urg‘uni o‘qituvchi mutaxasislar oldiga asosan quyidagi uch maqsadni qo‘yadi:

- Nima uchun ingliz tilidagi urg‘uning muhimligini isbotlash;
- So‘z urg‘usi nima, u qanday hosil qilinishiga aniqlik kiritish;
- So‘z urg‘usiga doir normalar, tendensiyalar va ulardagi istisnolar ko‘rsatib berish;
- Qanday qilib leksik urg‘u qoidalarini tez va samarali o‘rganish yo‘llarini o‘zlashtirishni o‘rgatish;

Keltirilgan tamoyillar asosida mavjudqiyinchiliklarni yengish va urg‘u ko‘nikmasini tez sur’atda shakllantirish uchun quyidagi maqbul yo‘llardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

1. Audiolingval metoddan foydalanish: ushbu metod asosan talaffuz va tinglab tushunishni o‘rgatishga asoslangan chet tilini o‘qitish metodlaridan biridir.

Audiolingval so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, audire-tinglash, lingua-til ma’nolarini anglatadi. Agar “audiolingval metodi” atamasi so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, “tinglash-gapirish metodi”, ya’ni “tilni tinglash-gapirish” yo‘li bilan o‘rganish ma’nosini anglatadi.<sup>105</sup> Ushbu metodning urg‘uni o‘qitishda samarililigin unda mavjud bo‘lgan bir necha faktorlar ifodalaydi. Masalan, tildagi normalar avvalo og‘zaki nutqqa tadbiq qilinib, o‘qish va yozish tinglab tushunish va gapirish

<sup>105</sup>Ходжаев М, Қаххорова М. Чет тилини ўқитиш методикаси. —Т.: Fan va texnologiya, 2013. —В. 7-8.

ko‘nikmasidan keyin amalga oshiriladi. Ko‘proq taqlid qilish va takrorlash mashqlaridan foydalilanadi. Bundan tashqari tilni o‘rgatishda asosan autentik materiallardan, til sohiblarining asl nutqlari yozib olingan tasmalar qo‘llaniladi.

Yuqoridagi ustunliklarga qaramay, ushbu metod ham ba’zi kamchiliklardan xoli emas. Sababi, u ona tilini dars jarayonidan chiqarib tashlashga asoslangandir. Urg‘uni o‘rganish esa tillarni o‘zaro taqqoslab o‘rganishni va shu orqali yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Demak, ushbu metodni yanada rivojlantirish, mukammallashtirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

## 2. Dastlab urg‘uning ahamiyati va uni hosil qilishni o‘rganishdan boshlash maqsadga muvofiqli

Aytaylik urg‘uning ahamiyatini eng oddiy yo‘l bilan tushuntirish uchun o‘qituvchi ingliz tilidagi kamida ikki bo‘g‘inli bo‘lgan so‘zni tanlab olib, urg‘uniso‘zning turli bo‘g‘inlarida yaqqol qo‘llaydi.<sup>106</sup> Masalan,COMputer, comPUter, compuTER so‘zlari kabi. So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilardan qaysi bir variant eng maqbul kelayotganini so‘raydi. o‘rganuvchilar darhol maqbul urg‘uga ega so‘zni ajratib oladilar (comPUter so‘zini). Bu jarayonda ular qolgan ikki so‘zda qo‘llangan nato‘g‘ri urg‘uning nutqqa qay darajada salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ham tushunib yetadilar. Buning uchun o‘qituvchi so‘zlarni kontekstda ham qo‘llab urg‘uni ko‘rsatib beradi. Bu esa talabalarning urg‘u va nuqsonsiz nutq o‘rtasidagi o‘zaro aloqani anglab yetishlariga yordam beradi.

Urg‘uni hosil qilish hamma tillarda ham bir xil kechmaydi. Biz yuqorida urg‘uni fonetik tabiatiga ko‘ra turlarga ajratayotib ingliz va o‘zbek tillarining dinamik urg‘u oilasiga kirishinin ta’kidlab o‘tgan edik. Demak har ikkala til urg‘usi uchun ham zarb ko‘proq ahamiyatga egadir. Masalaning ikkinchi tomoni ingliz tilidagi urg‘uni xosil qilishda faqatgina zarbning o‘zi ishtirok etmaslidigadir. Shuning uchun dastlab urg‘u o‘rnidan ko‘ra uni xosil qilish o‘rgatilishi ma’qulroq degan fikrdamiz. Buning uchun o‘qituvchi ma’noga ega bo‘lmagan bo‘g‘inlar ketma-ketligini sun’iy tarzda yaratib undagi bir bo‘g‘inni qolganlariga qaraganda

<sup>106</sup>[www.professorjackrichards.com/integrating-word -stress-into-lessons/](http://www.professorjackrichards.com/integrating-word -stress-into-lessons/)

cho‘ziqroq, balandroq, aniqroq va tovushning yuqori toni orqali talaffuz qiladi (baBIba kabi). Bu esa til o‘rganuvchilarda urg‘u konseptiga qo‘yilgan ilk qadamdir. Keyinchalik ushbu mashqni real so‘zlarga tadbiq qilinadi (diRECTOR kabi).

### 3. Urg‘uga doir variativ mashqlar va interfaol usullardan foydalanish.

Ingliz tili leksik urg‘usi murakkab jarayonligi haqida aytib o‘tgan edik. Pedagogning asosiy vazifasi esa aynan shu murakkablikni osonlashtirishdir. Buning uchun mutahassis turli so‘zlardagi urg‘uning o‘rnini aniqlashda yordam beruvchi rangbarang mashqlarni qo‘llashi lozim bo‘ladi. Birinchidan o‘rganuvchilarning faqat bir xildagi topshiriqlarni bajarishi ularni zeriktirib qo‘yishi tabiiy. Ikkinchidan so‘z urg‘usining muayyan so‘zdagi o‘rnini bilib olish uchun talabalar bir necha bor aynan o‘sha so‘zga murojaat qilishlariga to‘g‘ri keladi.<sup>107</sup> Uchinchidan turli urg‘u normalari turlicha mashqlardan, interfaol usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Zamonaviy urg‘uni o‘qitish metodikasida urg‘u modellarini yaratib olish, bu jarayonda asosan katta(urg‘uli bo‘g‘in uchun) va kichik(urg‘usiz bo‘g‘in uchun) aylanalardan foydalanish urfga aylangan. Masalan avval aralash tartibdagi so‘zlar keltirilgan, keyin esa ushbu so‘zlarni guruhlarga ajratish mo‘ljallangan jadval joylashgan materiallar talabalarga tarqatiladi.

*Empty, guitar, against, alarm, argue, bathroom, control, crowded, event, improve, retired, jumper, lawyer, lovely, pavement, prefer, prevent, protect, routine, scissors, stomach, towels, wedding, without.*

O o	o O
Empty	Guitar

O‘rganuvchilarning asosiy vazifasi namunadagi kabi berilgan so‘zlarni jadvalga muvofiq tarzda joylashtirishdir. Albatta, bu yerda faqat ikki bo‘g‘inli so‘zlar misolidagi mashq tashkillangan bo‘lsa, o‘qituvchi bog‘inlar sonini ularga mos qoidalar o‘zlashtirilishi bilan ko‘paytirib boradi.

<sup>107</sup><https://www.teachingenglish.org.uk>

Dars jarayonida urg‘u ko‘nikmasini shakllantirishga mo‘ljallangan turli o‘yinlardan ham foydalanish mumkin. Buning uchun yuqoridagi kabi har bir talabaga bir nechta so‘zlar yozilgan material tarqatiladi. Talabalarga berilgan so‘zlar ma’lum bir urg‘u qolipitartibiga ega bo‘lib, ularning o‘yin paytidagi vazifasi muayyan vaqt ichida xuddi o‘zlariniki kabi urg‘u qolipi tartibiga ega bo‘lgan talabani topishlari kerak bo‘ladi. Masalan birinchi talabada quyidagi so‘zlar bor: *parrot* (*O o*), *imagine*(*o O o*), *bicycle*(*O o o*). Ikkinchi talabada esa *open* (*O o*), *potato* (*o O o*), *excellent*(*O o o*) so‘zlari bor. Demak ulardagi tartib bir xil, ishtirokchilar o‘yin davomida barcha o‘z sheriklarini qidiradi va urg‘u qolipining tartibi asosida guruhga ajraladilar. Qaysi guruh a’zolari birinchi bo‘lib o‘z sheriklarini to‘liq topa olsa, o‘sha guruh o‘yin g‘olibiga aylanadi.

#### 4. Leksik urg‘uni aynan fonetika darslarida emas, qolgan fanlarning ham bir qismi sifatida o‘qitish.

So‘z urg‘usining murakkabligi uning tilshunoslikning boshqa satihlari bilan chambarchas bog‘liqligidir. Demak, aynan o‘sha fanlarda ham urg‘u haqida ma’lumot berib o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Masalan nazariy yoki amaliy grammatika oid darslarda urg‘u orqali so‘z turkumlarining farqlanishi (exPORT – fe’l. Uzbekistan *exports* two million tons of cotton last year. EXport – ot. An *export* is beneficial for all countries’ economy. ), morfemikaga oid darslarda esa qo‘srimchalarning urg‘uga ta’siri tahlil qilib o‘tilishi lozim bo‘ladi (til o‘rganuvchilarning urg‘u aspektida qo‘srimchalarni turli guruhlarga ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish lozim bo‘ladi. Masalan, ba’zi suffiks yoki affikslar urg‘uga ta’sir qilmaydi (*un-, over-, -ship, -ful*), ba’zilari aksincha urg‘uning pozitsiyasini o‘zgartirish xususiyatiga ega (*pro-, -ial, -ian, -ic*), qolganlari esa urg‘uni har doim o‘zi bilan olib yuradi. (*-eer, -ese, -esque, -ique*)). Leksikologiya fani ham so‘z urg‘usini o‘rgatishda qo‘l keladi, sababi biz tilshunoslikning bu bo‘limida so‘z va uning shakl-ma’no munosabati jihatidan tasniflaymiz. Qolaversa, so‘zlarning tarixi, ya’ni etimologiyasini ham talabalar aynan shu bo‘limda o‘rganadilar. Ya’ni leksikologiya darslarida urg‘uning yuqorida keltirilgan omonimlikni farqlash funksiyasi, urg‘uning so‘zga bo‘lgan

semantik ta'siri, so'z tarixi va bu jarayonda urg'uga ta'sir qilgan omillar o'zgarishlar, olinma so'zlar va ularning urg'uga bo'lgan ta'siri o'rganilishi albatta foydadan holi bo'lmaydi degan fikrdamiz. Bundan tashqari stilistika darslarida ham urg'u va uning stilistik ma'nosiga to'xtalib, izoh berib o'tilishi talabalarning urg'u haqidagi bilimlarini yanada mustahakamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda ingliz tilini o'rganuvchi o'zbek talabalarda uchrab turadigan inferentiv fonetik nuqsonlar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bunday xatoliklar fonetik hodisalardan biri bo'l mish leksik urg'udan foydalanish jarayonida ham ko'zga tashlanadi. So'z urg'usi ko'nikmasini shakllantirish murakkab va aksariyat talabalar urg'u normalari haqida yetarlicha yoki hech qanday ma'lumotga ega emas ( fikrimizni yuqorida o'tkazilgan tahlil qilingan eksperiment natijalari isbotlaydi.)

Demak, ingliz tili leksik urg'usini tez va oson o'rgatish uchun pedagoglar darslarni innovatsion tarzda tashkillashi, variativ mashqlardan foydalanishi, interfaol usullarni darsga tadbiq qilishi, dars jarayonida foydalaniladigan til materiallarini to'g'ri tanlay olishi (ko'proq autentik materiallardan foydalanishi), qolaversa, tilning boshqa satihlari o'rganilayotgan paytda urg'uga murojaat qilinishi, ya'ni uning vazifasi, paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa til bo'limlarida ham urg'u konseptiga aniqlik kiritilishi ijobjiy samara beradi deb o'ylaymiz. Yana bir narsani aytib o'tish joizki, tavsiya etilgan barcha o'qitish metodlari ham o'zining yutuq va kamchiliklariga ega. Masalan, urg'uni o'rgatishda ko'proq katta va kichik aylanalar orqali urg'u qoliplarini yaratish urfga kirgan va bu taqlidda urg'uni o'qitish talabalarning urg'u haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Lekin bunday mashqlar asosan ko'rish bilan bog'liq bo'lagani uchun, ularda tinglash bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Yoki aksincha tinglab tushunish mashqlarining o'zigagina tayangan holda urg'uni o'rgatish yangi so'zlarga duch kelganda vizual holatda urg'uning o'rmini aniqlash bilan bog'liq muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari o'rganuvchilarning qobiliyatlarini ham inobatga olish lozim bo'ladi (ba'zilarda ko'rib tushunish, ba'zilarda tinglab tushunish, ba'zilarda yozish orqali

tushunish mahorati dominant harakterga ega bo‘ladi.) Demak, o‘qituvchi dars jarayonida keltirilgan fikrlarning barchasini inobatga olgan holda darslarni tashkillashi maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

## Xulosa

Tadqiqot ishlarini olib borish davomida aniqlandiki, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida fonetik va fonologik o‘xshashlik va farqli jihatlar talaygina va ular hali to‘liq tahlil qilinmagan bo‘lib, so‘z urg‘usi ham bundan mustasno emas, albatta. Demak, leksik urg‘uni har ikkala tilda ham kelajakda yanada chuqurroq muhokama etish va bu sohadagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarur deb o‘ylaymiz. Ingliz va o‘zbek tilshunoslari tomonidan so‘z urg‘usi haqida bildirilgan fikrlar, o‘rganilgan adabiyotlar, qolaversa, o‘tkazilgan tajribalar natijasiga tayangan xolda quyidagi xulosalarga keldik.

1. Har qanday tildagi fonetik hodisalar, xususan, urg‘u ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lмаган, у тилларда муайян функцияларни бajaradi. Dunyoning barcha tillari ham so‘z urg‘usiga ega emas. Faqatgina muayyan tillargina leksik urg‘uga egadir. Tilshunoslar urg‘u konseptiga turli tomondan yondashgan bo‘lsalarda ularning qarashlari va olib borishgan tadqiqot natijalari urg‘uni to‘liqroq tushunib olishga yordam beradi. Leksik urg‘u supersegment birlik sifatida ingliz va o‘zbek tilida o‘ziga xos ahamiyatga va turlicha artikulyatsion va akustik xususiyatlarga ega bo‘lgan fonetik hodisa bo‘lib, uni hosil qilishda tovushning asosiy toni, zarb, tovushning yuqori chastotasi, cho‘ziqlik (davomiylik) kabi omillar ishtirok etadi. Keltirilgan omillarning ba’zan bir yoki ikkitasi qolganlariga qaraganda ustun bo‘lishi mumkin.

2. Ingliz va o‘zbek tilidagi har qanday atash ma’nosiga ega bo‘lgan bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli yoki ko‘p bo‘g‘inli so‘z albatta bitta urg‘uga (bosh urg‘uga) ega bo‘ladi. Urg‘uning paydo bo‘lishida unli tovushlar, undoshlarga qaraganda birlamchi xarakterga egadir.

3. Urg‘uni fonetik tabiatiga ko‘ra tasniflash tillardagi leksik urg‘uni hosil qilishdagi dominant omilni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ingliz va o‘zbek tilida zARB qolgan faktorlarga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli biz har ikkala tilni dinamik urg‘uli tillar oilasiga mansub deb hisoblaymiz.

4. Ingliz tili leksik urg‘usidagi darajalanish xossasi o‘zbek tiliga qaraganda muhimroqdir. Tilshunoslarning urg‘uni darajalarga ajratish haqidagi fikrlari turlicha bo‘lib, ularning aynan bittasini qolganlariga qaraganda ustun degan fikrni aytish qiyin. O‘zbek tilida urg‘uning darajalanishiga yetarli asos va dalillar yo‘qligi, boshqacha qilib aytganda leksik urg‘udagi darajalarga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qligi sababli manbalarda bu jarayonga to‘liq izoh berilmagan.

5. Ingliz tili erkin urg‘uli tillar oilasiga mansub bo‘lib, bu tildagi mavjud urg‘u normalari umumiyligini qoidalarni rad etadi va urg‘uning doim bir bo‘g‘inda bo‘lishi mumkin emas. Zid ravishda, o‘zbek tilida urg‘u asosan so‘zning ohirgi bo‘g‘iniga tushadi, shunga qaramay ayrim til xodisalari, olinma so‘z va qo’shimchalar tufayli ba’zan urg‘u oxiridan oldingi bo‘g‘inlarda ham bo‘lishi

mumkin. Ingliz tilidagi leksik urg‘uning o‘rnini aniqlash murakkab jarayon bo‘lib, olimlar o‘rtasida ham turlicha bahs munozaralarga sabab bo‘lgan. Ayni zamonaviy ingliz tilida paytda urg‘uni o‘rnini aniqlashga yordam beradigan resessiv, retentiv, ritmik kabi uchta tendensiya mavjuddir. Ammo bu tendensiyalardagi istisnolarning ko‘pligi tufayli ular har doim ham samara beravermaydi. Shuning uchun so‘zlarning morfologik jihatdan tuzilishi, bo‘g‘inlar soni, bo‘g‘inlarning fonologik strukturasi, so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligi inobatga olgan holda urg‘uning o‘rnini aniqlash oson va qulay. Lekin bu usulda urg‘u qo‘yish ham ba’zi istisno holatlarni bilib olishni taqozo etadi.

6. Ingliz va o‘zbek tili leksik urg‘usiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan omil bu olinma so‘z va qo‘shimchalar bo‘lib, aynan ular tufayli urg‘u normalarida noturg‘unlik holati vujudga keldi.

7. Ingliz tilidagi qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridagi urg‘uni aniqlash ularni tashkil etuvchi elementlarga aniqlik kiritishga, semantik va orfografik jihatdan chuqur tahlil qilishga, britancha va amerikancha talaffuz tafovutlarini farqlashga asoslanadi. O‘zbek hamda ingliz tillarida ko‘pincha yordamchi so‘zlar urg‘u qabul qilmaydi. Ingliz tiliga zid ravishda qisqartma otlar ham urg‘u olmaydi.

8. Ingliz tilidagi so‘zlarning aksentual bo‘g‘in strukturalari urg‘u darajalari va ularning so‘zdagi bo‘g‘inlarda taqsimlanishiga asoslanadi. Bunday qoliplar so‘z xosil qilishning morfologik turi, so‘zdagi bo‘g‘inlar soni, so‘zdagi affiks va suffikslar va asosning semantik vazni orqali aniqlanadi.

9. So‘z urg‘usi tillarda asosan uch muhim vazifani bajaradi: hosil qilish, chegaralash va farqlashdir. Ushbu vazifalarni urg‘uning o‘rnida boshqa hech qanday lisoniy hodisa bajara olmaydi. Leksik urg‘u nutqda stilistik ma’no ifoda etishning manbai hisoblanadi. Urg‘u orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi ma’no kuchaytiriladi. O‘zbek tilida urg‘u orqali ma’no kuchaytirilganda zarbdan ko‘ra unlining cho‘ziqligi ustun turadi.

10. Urg‘u ko‘nikmasini to‘la o‘zlashtirmaslik natijasida til o‘rganuvchilarda nuqsonli nutq ko‘nikmasi hosil bo‘ladi va bu holat mahalliy

ingliz tilida so‘zlashuvchilar, yoki malakali til mutahassislari bilan so‘zlashuv jarayonida turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

11. Farg‘ona davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasи talabalarining leksik urg‘u bo‘yicha bilimlari qoniqarli darajada emas deb baholaymiz. O‘quv jarayonini samarali tashkillash, auditoriyalarni zamonaviy lingafon jihozlari bilan ta’minlash, talabalarni yetarli darsliklar bilan ta’minlashni tanqidiy ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilidagi urg‘u konsepti o‘ziga hos murakkabliklarga ega bo‘lib, uni o‘qitish jarayoni ham bundan mustasno emas. Darslarda erishiladigan ijobiy natijajalar va yutuqlar o‘qituvchining o‘quv jarayoniga, innovativ tarzda yondashuviga, interfaol usullardan foydalanishiga, o‘quvchilarning alohida qobilyatlarini, imkoniyatlarini inobatga olishiga bog‘liqdir.

12. Ingliz tili leksik urg‘usini o‘rgatish bosqichma-bosqich jarayonni, aniqlikni, yo‘l qo‘yilgan xatoliklar va ularning sabablarini doimiy o‘rganib borishni, urg‘uni fonetikadan tashqari boshqa til satihlari doirasida ham tahlil qilishni va albatta, darslarni qiyosiy aspektda tashkillashni taqozo etadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ilmiy ishlari:**

1. Ислом Каримов. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. —Т.: Ўзбекистон, 2015.
2. Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008.

3. Шавкат Мирзиёев. Танқидий Таҳлил, Қатый Тартиб - Интизом Ва Шахсий Жавобгарлик – Ҳар Бир Раҳбар Фаолиятининг Кундалик Қоидаси Бўлиши керак. —Т.: Ўзбекистон, 2017.

## **II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari:**

1. Ўзбекистон Республикаси президентининг қарори. Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида. 10.12.2012. № ПҚ-1875// “Халқ сўзи”, 2012 yil 11- dekabr.
2. Ўзбекистон Республикаси президентининг қарори. Фанлар академияси фаолияти, илмий–тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида. 17.02.2017. // “Халқ сўзи”, 2017 yil 18- fevral.

## **III. Maxsus adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Махмудов А. Словесное ударение в узбекском языке. —Ташкент. 1960.
2. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. —Ташкент. “Ўқитувчи”, 1990.
3. Салиджанов С. Силлабическая и акцентная структуры слова и их соотношение в разно системных языках. (Сопоставительно-типологическое и экспериментально- фонетическое исследование на материале английского и узбекского языков.) Автореферат канд. Диссертации. Москва.: 1982.
4. Содиков А., Абдуазизов А., Ирисколов М. Тилшуносликка кириш. —Т.: “Ўқитувчи”, 1981.
5. Соколова М, Гитовт К, Тихонова И, Тихонова Р. EnglishPhonetics. A Theoretical Course. Москва.: Высшая школа, 1991.
6. Торсуев Г. Вопросы акцентологии современного английского языка. —Москва.: 1960
7. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. —Изд. ЛГУ. 1979.
8. Abduazizov A.Theoretical Phonetics Of Modern English . —Tashkent.: “Ўқитувчи”, 1986.
9. Abulazova M, Yo’ldosheva D. Tilshunoslikka kirish. —Toshkent.: Universitet, 2005.

10. Anne C. ERRORS OF STRESS AND INTONATION. Laboratory of Experimental Psychology. University of Sussex. –Brighton, England. 1980.
11. Argenis A. Stress and Rhythm. Unversidad de Los Andes. 2009.
12. Balogné B. K, Slizárd S. The pronunciation of English. Korbai Hajnaltól. 2006.
13. Celce-MurciaM., Brinton D., Goodwin J. Teaching Pronunciation: A Reference 8. for Teachers of English to Speakers of Other Languages. - Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
14. Claire-A. Forel & Genoveva P, Updated by Cornelia H and Carmen S. PHONETICS AND PHONOLOGY University of Oldenburg.:2005.
15. CRYSTAL D. English as a Global Language. Cambridge:. Cambridge University Press, 2003.
16. Crystal D. A dictionary of linguistics and phonetics. Sixth edition. –Oxford.: Blackwell publishing, 2008.
17. Chomsky N, Halle M. The Sound Patterns of English. New York.; 1968.
18. Dauda M.E. Literary stylistics. National Open University of Nigeria. 2013.
19. Fry D. 1958. Language and speech Vol. 1: Experiments in the Perception of Stress.
20. Gimson A. An introduction to the Pronunciation of English. –London.: 1962.
21. Gimson A. English as she is spoke (n). New Society, 8 July 1976
22. Gimson A. Gimson's Pronunciation of English. Sixth Edition./ Revised by11. Alan Cruttenden. – London, New York: Edward Arnold, 2001.
23. Halle M, Keyser J. English stress. Its form, its Growth and its Role in Verse. –New York.: 1970.
24. Heinz J. Stress. University of California. 2013.
25. Jalilov S. Hozirgi o'zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). –Nukus.: 2011
26. Jerry S. New Practical Chinese Reader. Second edition. –Beijing.: Beijing Language And Culture University Press, 2013
27. Kingdon R.The Groundwork of English Stress. London.: 1958.

28. Kurath H. A phonology and prosody of modern English. Ann Arbor, 1964.
29. Kreidler C. Pronunciation of English. A course book. Second edition. – Oxford.: Blackwell publishing, 2004.
30. Ladefogd p. A course in phonetics. Harcourt Brace Jovanovich. Inc, 1975.
31. Laver J. Principles of Phonetics: Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
32. Leontyeva S. A theoretical course of English phonetics. –Moscow.: 1980. VYSSAJA SKOLA.
33. Mamajonova N. Fonetik inferentiv xatoliklar: sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari // Til va adabiyot ta'limi. 2016. № 7.
34. Marasulov K. Hozirgi O'zbek Adabiy Tilidan Qo'llanma. 2-qism. Farg'ona.: 2015.
35. Moinzadeh A. Teaching Word Stress Patterns Of English Using A Musically-simulated Technique // Journal of Language Studies. 2012. Volume 12.
36. Muhammadov E. So'z urg'usi // Imtihon. 2016. № 6.
37. Robert S, Minkova D. English Words. History and Structure. –Cambridge.: Cambridge University Press, 2001.
38. Roach P. English phonetics and phonology. A practical course second edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 1991.
39. Roach P. English phonetics and phonology. A practical course fourth edition.—Cambridge.: Cambridge University press, 2009.
40. Southworth F, Daswani Ch. Foundation of linguistics. New York.; 1974.
41. Stanley S. On the Stress System of English.// WORD. Volume 2. Number 3. Mexico city. 1946.
42. Sweet H. A primer of phonetics. —Oxford.: 1929.
43. Turniyozov N, Rahimov A. O'zbek tili. (I qism) –Samarqand.: 2006.
44. Vassilyev, V. A. English Phonetics: A theoretical course. – Moscow: Higher. School Publishing House, 1970.

45. Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poli print. Ungvár.: 2009
46. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. —Toshkent.: 2007.
47. Yi-Chen Fu. The Phonemic Structure of English Words. Taipei, Taiwan, 1960.

#### **IV. Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абдулла Қодирий. МЕХРОБДАН ЧАЁН. —Т.: Faafur Fulom, 1994.
2. Анвар Обиджон. ОЛТИН ЙОРАКЛИ АВТОБОЛА. —Т.: Ёшгвардия, 1988.
3. Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. —Москва. 1959.
4. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. —Т.: “Ўқитувчи”, 1985.
5. Ходжаев М, Қаххорова М. Чет тилини ўқитиш методикаси. —Т.: Fanvatexnologiya, 2013.
6. Трубецкой Н. Основы фонологии. —Москва. 1960.
7. Эрнест Хемингуэй. ЧОЛ ВА ДЕНГИЗ. —Т.: Ёш гвардия, 1986.
8. Чингиз Айтматов. Таңланган асарлар (1-жилд). —Т.: Шарқ, 2009.
9. ЧингизАйтматов. СОҲИЛЁҚАЛАБЧОПАЁТГАНОЛАПАР. —Т.: Faafur Fulom, 1984.
10. ЧингизАйтматов. ҚИЁМАТ. —Т.: Faafur Fulom, 1984.
11. Фозиева М. Ўзбек тилида ургу// Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. Farg'ona. 2017.
12. Bokhari H, Washington N. Stress in Saudi Diaspora Uzbek and its relation to stress in Turkish. //Excerpt from Proceedings of the 1st Conference on Central Asian Languages and Linguistics (ConCALL). Indiana University. Volume 1, 2015.
13. Sharipov O', Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. —Toshkent.: 2006.

14. Sokolová H. THE PRONUNCIATION OF CZECH TEACHERS OF ENGLISH: ENGLISH WORD STRESS. Diploma thesis. CHARLES UNIVERSITY PRAGUE. 2009.

15. Soxibov S. Ingliz tiliga fransuz tilidan kirib kelgan so‘zlar urg‘usi// Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. —Farg‘ona. 2017.

**V.Foydalanilgan internet manbalari:**

1. [www.google.com// Stylistic devices.](http://www.google.com/)
2. [www.ChefSolus.com](http://www.ChefSolus.com)
3. [www.professorjackrichards.com/integrating-word -stress-into-lessons/](http://www.professorjackrichards.com/integrating-word-stress-into-lessons/)
4. <https://www.teachingenglish.org.uk>
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси

## Ilova

Survey based on word stress for research purpose. Organized by Kholmatov Shahriyor.

Gender: \_\_\_\_\_

Name: \_\_\_\_\_

Surname: \_\_\_\_\_

Course : \_\_\_\_\_

Please paint the circle of stressed syllable.

o o

Open

o o

Attract

o o o

entertain

o o

abstract(noun)

o o

abstract(verb)

o o o

fairytales

o o o

separatist

o o o

screwdriver

o o o

orange juice

o o o

Tashkent Circus

o o o

Oxford Street

o o o

vocal cords (american)

o o o

vocal cords (british)

o o o

diplomat

o o o o

diplomacy

o o

wonder

o o o

wonderful

Please give your suggestions for effective teaching and learning the word stress: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

Date: \_\_\_\_\_

Your signature: \_\_\_\_\_

Thanks for your answer!!!